XX asr boshlarida xalq artistlari Tamaraxonim va Usta Olim Komilovlar ana shu qadimiy ritm va harakatlar asosida “Katta o‘yin”ning sahnalashtirilgan versiyasini yaratishdi. Bugungi kunda, afsonaviy Mukarram Turg‘unboyeva sahnalashtirgan mazkur raqs “Bahor” davlat raqs ansambli repertuaridagi eng sevimli va talabgir raqslardan biri bo‘lib qolmoqda. Nafosat va qadriyatlarga boy bo‘lgan bu raqs o‘zining dastlabki syujet asosini yo‘qotgan bo‘lsa-da, o‘zbek xoreografiyasining haqiqiy timsoliga aylangan. U ham xalqning tabiat va zamon bilan chuqur tarixiy hamda ma’naviy aloqalarini aks ettiruvchi ko‘plab marosim va an’analarni o‘zida mujassam etgan Navro‘z bayrami kabi O‘zbekiston madaniy merosining muhim qismi hisoblanadi.

Zardushtiylik madaniyatida mart oyi odatda “farvardin” deb atalgan va ajdodlarga bag‘ishlangan. Olamdan o‘tgan qarindosh-urug‘larning ruhi Navro‘z bayrami arafasida yerga qaytadi, deb hisoblangan va bu vaqtda odamlar sadaqa berib, ulardan yordam so‘ragan.

Главное блюдо Навруза — сумаляк — готовится совместными усилиями. Это сладкий десерт из пророщенной пшеницы, который варится в больших котлах всю ночь. Процесс сопровождается шутками, песнями и танцами, а каждый, кто найдёт орешек или камушек, может загадать желание. По традиции, женщины по очереди помешивают сумаляк, чтобы он не пригорел, а утром его раздают всем, кто участвовал в приготовлении.

Празднование начинается затемно, когда вся семья, облачившись в новые одежды, собирается за столом, на который ставится новая посуда. Стол, накрытый на Навруз, называется «хафт-син». На этом столе должно быть семь (хафт) продуктов, чьи названия начинаются с арабской буквы «син». Это семена руты (сипанд), яблоко (себ), семена тмина (сиахдане), дикая маслина (санджид), уксус (сирке), чеснок (сир) и проросшее зерно (сабзи). Эти семь магических продуктов символизируют дар Солнцу, которое, принимая его, должно позаботиться о богатом урожае в новом году. Также важно накормить не только близких, но и соседей, гостей, оказать помощь малоимущим и пожилым.

Navro‘zning asosiy taomi bo’lgan sumalak birgalikdagi sa’y-harakatlar bilan tayyorlanadi. Sumalak undirilgan bug‘doydan tayyorlanadigan shirin taom bo‘lib, katta qozonlarda tun bo‘yi qaynatiladi. Butun jarayon hazil-mutoyiba, qo‘shiq va raqslar bilan o‘tadi, sumalak ichidan yong‘oq yoki toshcha topgan har bir kishi tilak tilashi mumkin. Urf-odatga ko‘ra, ayollar sumalakni tagiga olib ketmasligi uchun navbat bilan aralashtirishadi, ertalab esa uni tayyorlashda ishtirok etganlarga tarqatishadi.

Bayram tun qorong‘usida butun oila yangi liboslarini kiyib, yangi idish-tovoqlar qo‘yilgan dasturxon atrofiga to‘planishi bilan boshlanadi. Navro‘z sharafiga yozilgan bu dasturxon “haft-sin” deb ataladi. Unda arab alifbosi harfi “sin” bilan boshlanadigan yettita (haft) mahsulot bo‘lishi shart. Bular – isiriq urug’i (sipand), olma (seb), zira urug‘i (siyohdona), yovvoyi zaytun (sanjid), sirka, sarimsoq va unib chiqqan don (sabza). Bu yettita sehrli mahsulot Quyoshga hadya ramzi bo‘lib, uni qabul qilgan Quyosh yangi yilda hosilning mo‘l-ko‘l bo‘lishi haqida qayg‘urishi kerak. Shuningdek, nafaqat yaqinlarni, balki qo‘shni, mehmonlarni ham taomlar bilan siylash, kam ta’minlanganlarga va keksalarga yordam berish muhim hisoblanadi.

По традиции, перед Наврузом надо покаяться в грехах, помириться с недругами, вернуть долги и простить их другим. В дни Навруза добрые ангелы-фаришта приносят изобилие и благополучие тем, кто чист душой, кто освободил своё сердце от обид и заботится о порядке в доме. Люди верили, что чистота пространства вокруг человека отражает ясность его внутреннего состояния, поэтому перед праздником хозяева стремятся навести порядок в домах, побелить стены и сделать мелкий ремонт. Ещё один из интересных обычаев — приглашать в дом первого гостя, который считается символом будущего благополучия. Если гость добрый и весёлый, год обещает быть удачным.

Праздничные гуляния

Широкие празднества Навруза были распространены ещё в Согде и Древнем Хорезме. Они сопровождались различными обрядами, большую роль в которых играли пение, музыка, танец. В работах исследователей можно найти описание этого праздника: «...празднование открывается большим шествием, при котором присутствует наместник. Впереди идут дервиши-календеры, поют и пляшут; за ними идут чиновники и ахуны *(Прим. ред.: ученые высокого ранга)*... Празднество заканчивается песнями и плясками мужчин и женщин», или: «Население, нарядившись в новые платья и украсив колпаки цветами, собирается на самые высокие места за городом; там при звуках бубнов, наев *(Прим. ред.: най – узбекский народный музыкальный инструмент, похож на свирель)* и других музыкальных инструментов забавляются скачками на лошадях, стрельбой из лука».

Taomilga ko'ra, Navro'z arafasida gunohlardan tavba qilish, dushmanlar bilan yarashish, qarzlarni qaytarish va boshqalarni kechirish lozim. Navro'z kunlarida mehribon farishtalar qalbi pok, dilidan gina-kuduratni haydagan va uyida saranjom-sarishtalikni saqlaydiganlarga baraka va farovonlik olib keladi. Odamlar insonni o'rab turgan muhitning ozodaligi uning ichki dunyosi sofligini aks ettiradi, deb ishonishgan. Shu bois, bayram oldidan uy egalari xonadonlarini sarishta qilish, devorlarni oqlash va mayda-chuyda ta'mirlash ishlarini bajarishga harakat qilishadi. Yana bir qiziqarli urf-odat — uyga bo'lajak farovonlikning ramzi hisoblangan birinchi mehmonni taklif qilish. Agar mehmon saxiy va xushchaqchaq bo'lsa, yil omadli kelishi va'da qilinadi.

Bayram sayillari

Navro'z bayrami Sug'd va Qadimgi Xorazmda ham keng nishonlangan. Bu bayram turli marosimlar bilan birgalikda o'tkazilib, ularda qo'shiq, musiqa va raqs muhim o'rin egallagan. Tadqiqotchilarning asarlarida bu bayramning quyidagicha ta'riflarini uchratish mumkin: "...bayram noib ishtirokidagi katta yurish bilan boshlanadi. Oldinda darvesh-qalandarlar qo'shiq aytib, raqsga tushib boradi; ular ortidan amaldor va oxunlar (yuqori martabali olimlar) boradi. Bayram erkak va ayollarning qo'shiq va raqslari bilan yakunlanadi." Yoki boshqa bir tavsifda: "Aholi yangi liboslar kiyib, do'ppilarini gullar bilan bezatib, shahar tashqarisidagi eng baland joylarda to'planadi; u yerda nog'ora, nay va boshqa cholg'u asboblari sadolari ostida ot choptirib, kamondan o'q uzish bilan vaqt o'tkazishadi."

Навруз в современном Узбекистане

На протяжении многих веков наша история претерпевала значительные изменения: сменялись династии, изменялись религиозные убеждения, однако традиция празднования Навруза сохранилась и глубоко укоренилась в быту народов Средней Азии, и он по сей день отмечается с размахом, причем при государственной поддержке. В современном Узбекистане 21 марта ежегодно проходят массовые торжества. В парках и на площадях организовываются концерты, выставки и ярмарки. Выступления канатоходцев и масхарабозов, спортивные игры и национальные танцы создают атмосферу радости и веселья. Особенно популярны номера творческих коллективов и представления культурных центров, которые демонстрируют богатство многонациональной культуры Узбекистана. Следует отметить, что это время, когда люди не только празднуют, но и задумываются о духовных ценностях: заботятся о природе, помогают нуждающимся, прощают обиды и творят добрые дела. В 2009 году ЮНЕСКО включило Навруз в Репрезентативный список нематериального культурного наследия человечества, что подчеркивает его уникальное значение для всего мира.

Навруз соединяет прошлое и настоящее, природу и культуру, людей и их традиции. Если вы окажетесь в Узбекистане в дни празднования, то обязательно почувствуете магию этого удивительного времени, наполненного теплом, радостью и гостеприимством.

Zamonaviy O‘zbekistondagi Navro‘z

Asrlar davomida tariximiz jiddiy o‘zgarishlarga uchragan: sulolalar almashgan, diniy e’tiqodlar o‘zgargan. Lekin, Navro‘zni nishonlash an’anasi saqlanib qolgan va u O‘rta Osiyo xalqlari hayotiga chuqur singib ketgan. Bayram bugungi kunda ham davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, keng miqyosda nishonlanmoqda. O‘zbekistonda har yili 21-mart kuni ommaviy bayram tadbirlari o‘tkaziladi. Bog‘ va maydonlarda konsert, ko‘rgazma va yarmarkalar tashkil etiladi. Dorboz va masxarabozlarning chiqishlari, sport musobaqalari, milliy raqslar shodiyona va quvnoq muhitni yaratadi. Ayniqsa, ijodiy jamoalarning chiqishlari va madaniyat markazlarining tomoshalari ko‘p millatli O‘zbekiston madaniyatining boyligini namoyish etadi. Shuni ham ta’kidlash joizki, bu odamlar nafaqat bayramni nishonlaydigan, balki ma’naviy qadriyatlar — tabiatga g‘amxo‘rlik qilish, muhtojlarga yordam berish, gina-kuduratlarni unutish va ezgu ishlar qilish haqida o‘ylaydigan payt. 2009-yilda YUNESKO tomonidan Navro‘zning insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilishi uni butun dunyo uchun noyob ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi.

Navro‘z — o‘tmish va bugunni, tabiat va madaniyatni, insonlar va ularning an’analarini birlashtiruvchi bayram. Agar siz bayram nishonlanayotgan kunlarda O‘zbekistonda bo’lsangiz, ezgulik, quvonch va mehmondo‘stlik bilan to‘lib-toshgan bu ajoyib fursatning sehrini albatta his qilasiz.



СКВОЗЬ ВЕКА

КАК СОХРАНИЛИСЬ ТРАДИЦИИ НАСТОЯЩИХ УЗБЕКСКИХ СВАДЕБ

ASRLAR OSHA

YOKI HAQIQIY O‘ZBEK TO‘YLARINING AN’ANALARI QANDAY SAQLANIB QOLGANLIGI TO‘G‘RISIDA

Узбекские свадебные традиции корнями уходят в глубь истории. Как предки чтили традиции гостеприимства и семейные ценности, так и современное поколение старается сохранить уважение к устоям. Свадьба была и остаётся не просто объединением двух сердец, а важным событием для всего рода. Сегодня многие древние обычаи продолжают жить, получив дополнение в виде современных элементов. Яркие наряды, пышные пиры, древние обряды – всё это создаёт атмосферу волшебства и загадочности, о которой мы вам расскажем далее.

ПОМОЛВКА И ПОДГОТОВКА К ТОРЖЕСТВУ

Приготовления и связанные с ними обряды начинаются ещё с момента знакомства потенциальных жениха и невесты. Если сватовство проходит успешно и молодые нравятся друг другу, проводится обряд «нон синдириш» – в знак единения двух семей старейшие представители каждой ломали пополам одну лепешку.

Главным обрядом перед самой свадьбой считается «фатиха-туй», то есть помолвка. Обычно она проводится за месяц до свадьбы в доме девушки, где её родителям вручают калым – символический «выкуп» невесты в красивой деревянной шкатулке. Калым отдаёт старший родственник жениха, а вместе с деньгами семье девушки преподносят десятки коробок с халвой, лепёшками с кунжутом, сладостями и тканями.

Накануне торжества в доме невесты проходит девичник – «кизлар базми», в котором участвуют подруги, сёстры и молодые соседки. «Проводы» в замужнюю жизнь сопровождаются угощениями и макияжем для невесты. В старину частью «кизлар базми» был ещё один обряд, который к сегодняшнему дню практически изжил себя – присутствие на девичнике плакальщицы. Она помогала невесте попрощаться с юностью и свободой, и чем громче и дольше та плакала, тем легче и счастливее должна была стать замужняя жизнь.

СВАДЬБА И ПОСЛЕДУЮЩИЕ ЗА НЕЙ ДНИ

Свадьба («никах-туй») длится три дня: в первый день проходит «маслахат оши» – собрание старейшин двух семейств, где за пловом обсуждается порядок проведения торжества, во второй день – свадебная церемония, а на третий – «шукрона ош», своего рода вечер благодарения. В некоторых регионах Узбекистана все мероприятия проводятся в определённые дни недели: в пятницу – помолвка, субботу – подготовка к свадьбе, воскресенье – никах. Особое значение имеет свадьба в Навруз, который сам по себе означает начало нового годичного цикла, поэтому символично, что в этот период молодых поздравляют с началом новой жизни.

В день свадьбы жених со своими гостями едет в дом невесты ближе к обеду. В дом его ведут по символической белой дорожке – «пояндоз». Далее жениха ожидает шатёр, край которого ему нужно разорвать. После этого жениха и его гостей угощают пловом «куёв оши». По одной из региональных традиций, он оставляет на плове отпечаток всей ладони, и туда, где отпечатались пальцы, кладут шоколад и несут плов невесте – так молодым желают сладкой жизни в браке.

Во время или после угощения тёти и бабушки невесты вносят в комнату поднос с подарками для жениха – «куёв сарпо». На таком подносе обычно лежат чапан, тюбетейка и поясной платок. Один из близких друзей, повернув жениха в сторону Мекки, помогает ему надеть чапан. Опустевший поднос пускается по кругу: теперь уже друзья жениха кладут на него подарки, а затем возвращают родственницам невесты.

O‘zbek to‘y marosimlarining kelib chiqishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Ajdodlarimiz tomonidan mehmondo‘stlik an’analari va oilaviy qadriyatlar qanchalik e’zozlangan bo‘lsa, hozirgi avlod ham ularni ardoqlab, asrab-avaylashga intilmoqda. To‘y shunchaki ikki qalbning birlashuvi emas, balki butun avlod uchun muhim voqea bo‘lgan va shunday bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda ko‘plab qadimiy urf-odatlar zamonaviy unsurlar bilan uyg‘unlashgan holda saqlanib qolgan. Chiroyli liboslar, hashamatli ziyofatlar, azaliy marosimlar — bularning barchasi sehrli va sirli muhitni yaratadi. Quyida sizlarga shular haqida batafsil hikoya qilamiz.

UNASHTIRISH VA TO‘YLARGA TAYYORGARLIK

Tayyorgarlik va u bilan bog‘liq marosimlar bo‘lajak kuyov va kelinning tanishuvidan boshlanadi. Agar sovchilik muvaffaqiyatli o‘tsa va yoshlar bir-birini ma’qul ko‘rsa, ikki oilaning birlashuvini ifodalash maqsadida “non sindirish” marosimi o‘tkaziladi. Marosimda har bir oilaning eng yoshi ulug‘ vakillari tomonidan bitta non teng ikkiga bo‘linadi.

To‘ydan oldingi eng muhim marosim “Fotiha to‘yi”, ya’ni unashtiruv hisoblanadi. Odatda, bu marosim to‘ydan bir oy oldin qizning uyida o‘tkaziladi, shu kuni chiroyli yog‘och quticha-da qizning ota-onasiga kelin uchun ramziy “to‘lov” — qalin puli topshiriladi. Qalinni kuyovning katta yoshli qarindoshi beradi va qizning oilasiga pul bilan birga o‘nlab qutilarda holva, kunjutli non, shirinliklar va matolar taqdim etiladi.

To‘y arafasida kelinning uyida dugonalari, opa-singillari va yosh qo‘shni qizlar ishtirokida “qizlar bazmi” bo‘lib o‘tadi. Turmush qurishga “uzatish” tadbiri ziyofat va kelinni pardozlash bilan birga kechadi. Qadimda “qizlar bazmi”ning yana bir qismi hisoblangan, ammo bugungi kunga kelib deyarli yo‘qolib ketgan udum bo‘lgan — bazmda yig‘ichi ayol qatnashgan. Kelin qanchalik baland ovozda va uzoq yig‘lasa, turmushi shunchalik oson hamda baxtli bo‘ladi deb hisoblangan. Yig‘ichi ayol kelinga yoshligi va erkinligi bilan xayrlashishda ko‘maklashgan.

TO‘Y VA UNDAN KEYINGI KUNLAR

Nikoh to‘yi uch kun davom etadi: birinchi kuni “maslahat oshi” o‘tkaziladi — ikki oila oqsoqollari yig‘ilib, palov ustida to‘y marosimini o‘tkazish tartibini muhokama qilishadi, ikkinchi kuni to‘y marosimi bo‘ladi, uchinchi kuni esa “shukrona oshi” — o‘ziga xos minnatdorchilik kechasi uyushtiriladi. O‘zbekistonning ba’zi hududlarida barcha tadbirlar haftaning muayyan kunlarida: juma kuni — fotiha, shanba kuni — to‘yga tayyorgarlik, yakshanba kuni — nikoh o‘tkaziladi. Navro‘zda o‘tkaziladigan to‘y alohida ahamiyatga ega, chunki Navro‘zning o‘zi yangi yil boshlanishini anglatadi. Bu davrda yoshlarni yangi hayot boshlayotgani bilan qutlash ramziy ma’no kasb etadi. To‘y kuni tush paytiga yaqin kuyov o‘z mehmonlari bilan kelinning uyiga boradi. Uni uyga ramziy oq yo‘lak — “poyandoz” orqali boshlab borishadi. So‘ngra kuyovni chodir kutadi, u chodirning chetini yirtishi kerak bo‘ladi. Kuyov va uning mehmonlari uchun yozilgan dasturxonga “kuyov oshi” tortiladi. Ayrim hududiy an’analarga ko‘ra, kuyov palovda butun kaftining izini qoldiradi va barmoqlarining izi tushgan joylarga shokolad qo‘yib, palovni kelinga yuborishadi – shu tarzda yosh juftlikka shirin oilaviy hayot tilashadi.

Ziyofat paytida yoki undan so‘ng kelinning buvisi va xolasi xonaga kuyov uchun sovg‘alar solingan patnisni — “kuyov sarpo”ni olib kirishadi. Odatda bunday patnisda chopon, do‘ppi va belbog‘ bo‘ladi. Kuyovning yaqin do‘stlaridan biri uni Makka tomonga qaratib, chopon kiyishiga yordam beradi. Bo‘sh qolgan patnis davra bo‘ylab aylantiriladi: endi kuyovning do‘stlari patnisga sovg‘alar qo‘yib, kelinning qarindoshlariga qaytarib berishadi.

В зависимости от региона и приверженности традициям практиковались и обычаи, сохранившиеся ещё со времен зороастризма. Например, чтобы избежать сглаза, молодых несколько раз водили вокруг костра, а позже, когда нужно было заходить в дом, держали над ними покрывало. Об этой интересной традиции мы спросили у автора фильма о свадьбах «Мужчины и женщины: в обрядах и ритуалах» Умиды Ахмедовой.

– Как люди осознают традиции, связанные с зороастризмом, например, обход костра? Насколько они близки нашему народу?

– Люди не осознают и не связывают их с зороастризмом – просто так было принято испокон веков. Элементы огнепоклонства у нас в Центральной Азии (а может, и не у нас одних: похожие процессы есть на Кавказе и в Иране) сохранились не только в свадебных церемониях. На севере Узбекистана, в Хорезме, в святых мусульманских местах в ниши ставят лампады с огнем, и при этом люди явно не задумываются о зороастризме. Элементы культа, связанные с огнем, я видела также у католиков и армян. В праздник они прыгают через огонь, а у русских сжигают чучело зимы. Азербайджанцы в Навруз тоже прыгают через огонь – то есть мы видим, что обряды, связанные с ним, во многом ещё сохранились. Но в последнее время я наблюдаю, как огонь потихоньку уходит из обрядов, поскольку некоторые люди стали считать, что это не соответствует обычаям ислама.

Mintaqaga va an'analarga rioya qilinishiga qarab zardushtiylik davridan beri saqlanib qolgan urf-odatlar ham amalda bo'lgan. Masalan, yosh kelin-kuyovni ko'z tegishidan asrash maqsadida bir necha bor gulxan atrofida aylantirishgan, keyinroq esa uyga kirishayotganda boshlari uzra choyshab ushlab turishgan. Bu qiziqarli an'ana borasida to'ylar haqidagi "Erkaklar va ayollar: urf-odat va marosimlarda" filmining muallifi Umida Ahmedovaga savol berdik.

— Odamlarning zardushtiylik bilan bog'liq urf-odatlar, masalan, gulxan atrofida aylanish to'g'risidagi fikri qanday? Ular xalqimizga qanchalik yaqin?

— Odamlar buni anglamaydi va zardushtiylik bilan bog'lamaydi — shunchaki, azaldan shunday qabul qilingan. Markaziy Osiyoda (aftidan, faqatgina bizda emas: Kavkaz va Eronda ham o'xshash jarayonlar kuzatiladi) olovga sig'inish unsurlari nafaqat to'y marosimlarida saqlanib qolgan. O'zbekistonning shimoli — Xorazmda musulmonlar ziyoratgohlarida tokchalarga olovli chiroqlar qo'yiladi va odamlar buni zardushtiylik bilan bog'liqligini hayoliga ham keltirishmaydi. Olov bilan bog'liq e'tiqod unsurlarini katolik va armanlarda ham ko'rganman. Ular bayramda olov ustidan sakrashadi, ruslar esa qish qo'riqchisini yoqib yuborishadi. Ozarbayjonliklar ham Navro'zda olov ustidan sakrab o'tishadi — ya'ni, ko'p jihatdan bu bilan bog'liq urf-odatlar saqlanib qolganini ko'rishimiz mumkin. So'nggi paytlarda ba'zi odamlar buni islom urf-odatlariga to'g'ri kelmaydi, deb hisoblay boshlaganlari natijasida olov asta-sekin marosimlardan yo'qolib borayotganini kuzatmoqdaman.

Есть и традиции, в которых участвовала вся махалля: «корпа кавиш» – шитьё и простёгивание ватных одеял и курпачи для постели молодых, «сабзи туграр» – резка моркови для свадебного плова, «мол ёяр» – развешивание приданого невесты, чтобы показать его всем родственникам и соседям.

– Ближе к концу вашего фильма есть эпизод, где жених и невеста лежат под одеялом, затем им приносят зеркало и окуривают. Что означает эта традиция и насколько она распространена?

– К сожалению, мало где сохранились эти магические обряды. Многие из них сошли на нет, опять же, из-за якобы несоответствия традициям ислама. Это реальная проблема, мешающая изучению истории и этнографии, устного народного творчества, костюмов и так далее.

Традиция показывать жениху и невесте собственное отражение уходит глубоко в прошлое. Возможно, так повелось оттого, что раньше жених и невеста могли не видеть друг друга до свадьбы. Создавались разные игры для молодоженов, которые никогда не были близки. Некоторые из этих игр исполнялись женщинами в театральной форме. Скорее всего, всё это имеет какой-то магический смысл, ключи которого утеряны, но люди продолжают следовать традициям, потому что так принято. Этот фрагмент снимался почти 20 лет назад в Хорезме, и сейчас очень мало где сохранился обычай преподносить зеркало молодожёнам, пускать ребёнка между ними.

Butun mahalla aholisi ishtirok etadigan an'analar ham bor: "ko'rpa qavish" — kelin-kuyovning to'shagi uchun paxtalik ko'rpa va ko'rpachalarni tikish hamda qavish, "sabzi to'g'rar" — to'y oshi uchun sabzi to'g'rash, "mol yoyar" — kelinning sepini barcha qarindosh-urug'larga va qo'ni-qo'shnilarga ko'rsatish maqsadida yoyib qo'yish.

— Filmingizning oxirida ko'rpa ostida yotgan kuyov bilan kelin yoniga ko'zgu olib kelib, tutun bostirishgan lavha bor. Bu urf-odat nimani anglatadi va u qanchalik keng tarqalgan?

— Afsuski, bunday sirli marosimlar juda kam joyda saqlanib qolgan. Ularning ko'pchiligi go'yoki islom an'analariga mos kelmasligi tufayli yo'qolib ketdi. Bu tarix va etnografiya, xalq og'zaki ijodi, milliy liboslar va boshqalarni o'rganishga to'sqinlik qiladigan haqiqiy muammo.

Kuyov va kelinga o'z aksini ko'rsatish an'anasi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ehtimol, bu odat ilgari kelin-kuyov bir-birini faqat to'y kuni ko'rgani sababli paydo bo'lgandir. Umrida bir-biriga yaqin bo'lmagan yosh kelin-kuyovlar uchun turli o'yinlar tashkillashtirilgan. O'yinlarning ayrimlari ayollar tomonidan teatrlashtirilgan tarzda ijro etilgan. Aftidan, bularning barchasi qandaydir sehrli ma'noga ega bo'lib, uning sabablari yo'qolib ketgan, ammo udumga aylangani uchun odamlar an'analarga rioya qilishda davom etmoqdalar. Bu lavha qariyb 20 yil avval Xorazmda suratga olingan edi va hozirda yosh kelin-kuyovga ko'zgu tutish, ular orasiga bola yotqizish odati juda kam joylardagina saqlanib qolgan.

ПОДРОБНЕЕ О СВАДЕБНЫХ ОБРЯДАХ ХОРЕЗМА МЫ РЕШИЛИ СПРОСИТЬ У МЕСТНЫХ ЖИТЕЛЕЙ:

Бекпоша Тоирова: «О традиции с зеркалами я не слышала, но сохранился обряд, когда жениха и невесту кладут под одеяло и к ним пускают ребёнка. Ребёнок должен быть один, от 1 до 5 лет – не старше. Он должен пройти под одеялом со стороны ног молодоженов, а выйти со стороны их голов. Таким образом молодым желают иметь больше детей».

Камила Ибрагимова: «Первое, с чего начинается создание новой ячейки общества, «фотиха», то есть помолвка. Это говорит о том, что обе стороны согласны на свадьбу. Жильё предоставляет сторона жениха, и непосредственно перед свадьбой близкие невесты приходят посмотреть на дом, где будут жить молодые, чтобы примерно понять расположение комнат и размеры. Приданое в основном делает сторона невесты, и называется это «уй курар». Незадолго до свадьбы несколько человек (в основном это родственницы невесты) приезжают к жениху, чтобы обставить комнату новой мебелью и подготовить всё для молодожёнов. Рано утром в день свадьбы сторона невесты всех угощает пловом. В среднем на это мероприятие приглашаются человек 300, а то и больше, и только мужчины. Когда жених приезжает забирать невесту, ему и его друзьям накрывают стол, и обязательно на столе должен быть плов. Жених кормит им своих неженатых друзей и братьев, чтобы холостые тоже в скором времени женились. Вечером проходит сама свадьба с гостями, песнями и танцами.

Есть ещё некоторые негласные традиции: перед началом мероприятия взрослые женщины благословляют жениха, а на его колени сажают маленьких детей, чтобы в семье у них тоже в скором времени появились наследники. И если посадят девочку, то первым ребёнком будет девочка, если мальчика, то родится мальчик. Потом жених идёт за невестой, которая сидит в машине и ждёт своего выхода. С этим тоже связана интересная традиция – невеста спускает ногу на землю, и жених должен в этот момент наступить на неё. Это говорит о том, что хозяин в семье мужчина».

После церемонии женщины поют народную свадебную песню «Ёр-ёр», и все отправляются в дом жениха на празднование образования новой семьи – «той базм».

XORAZMDAGI TO'Y URF-ODATLARI HAQIDA MAHALLIY AHOLIDAN BATAFSIL SO'RAB-SURISHTIRISHGA QAROR QILDIK:

Bekposha Toirova: "Ko'zgu bilan bog'liq udum haqida eshitmaganman, ammo ko'rpa ostidagi kelin-kuyov orasiga bola kiritish marosimi saqlanib qolgan. Bolaning yoshi 1 dan 5 gacha bo'lishi, undan katta bo'lmasligi lozim. U ko'rpa ostiga yosh kelin-kuyovning oyoq tomonidan kirib, bosh tomonidan chiqishi kerak. Shu tariqa yoshlarga ko'p farzandli bo'lish tilak qilinadi".

Kamila Ibragimova: "Jamiyatning yangi yacheykasi paydo bo'lishining birinchi bosqichi — "fotiha", ya'ni unashtirish marosimi. Bu ikkala tomonning nikohga roziligini bildiradi. Turar joy kuyov tomonidan taqdim etiladi, kelin tomon xonalarning joylashuvi va o'lchamlarini taxminan tushunish uchun to'ydan avval kelin-kuyov yashaydigan uyni ko'rishga keladi, bu "uy ko'rar" deb ataladi. Sep-sidirg'a asosan kelin tarafidan qilinadi. To'ydan sal oldin bir necha kishi (asosan, kelin tarafdan kelgan ayollar) kuyov uyiga kelib, xonani yangi mebel bilan jihozlashadi va kelin-kuyov uchun hamma narsani tayyorlab qo'yishadi. To'y kuni erta tongda kelin tomon osh bilan hammaga ziyofat beradi. Bu tadbirga o'rtacha 300 nafar yoki undan ko'proq kishi va faqat erkaklar taklif qilinadi. Kuyov kelinni olib ketgani kelganda, u hamda do'stlariga dasturxon yoziladi, dasturxonda albatta palov bo'lishi shart. Bo'ydoqlarni ham tez orada uylanishini niyat qilib, kuyov bo'ydoq do'stlarini va aka-ukalarini palov bilan siylaydi. Mehmonlar ishtirokidagi to'y marosimi qo'shiq va raqslar bilan kechqurun o'tkaziladi.

Yana ayrim nooshkor urf-odatlar ham bor: tadbir boshlanishidan oldin katta yoshli ayollar kuyovga oq fotiha berishadi, ularning oilasida ham tez orada farzandlar dunyoga kelishini tilagan holda kuyovning tizzasiga yosh bolalarni o'tqazishadi. Agar qiz bola o'tqazilsa, birinchi farzand qiz, o'g'il bola o'tqazilsa, o'g'il tug'iladi deb hisoblanadi.

Shundan so'ng, kuyov mashinada o'z chiqishini kutayotgan kelinni olib kelishga boradi. Bu bilan bog'liq yana bir qiziqarli urf-odat bor — kelin oyog'ini yerga qo'ygan zahoti kuyov uning oyog'ini bosib olishi kerak. Bu oilada erkak xo'jayin bo'lishini anglatadi. Marosimdan so'ng ayollar xalq to'y qo'shig'i "Yor-yor"ni kuylashadi, hamma yangi oila qurilganini nishonlash uchun kuyovning uyida bo'ladigan "to'y bazmi"ga yo'l oladi.

Кстати, «Ёр-ёр» Умида Ахмедова называет своей любимой обрядовой песней: «Есть такая песня свадебная: девушку провожают к жениху, когда она покидает отчий дом. Очень трогательная музыка». Послушать её можно здесь:

Aytgancha, Umida Ahmedova "Yor-yor"ni o'zining eng sevimli marosim qo'shig'i deb ataydi: "Qiz ota uyini tark etib, kuyovnikiga ketayotganda aytiladigan to'y qo'shig'i bor. Juda ta'sirli". Uni mana bu yerda tinglashingiz mumkin

В доме жениха для невесты уже приготовлена комната – чивиллик, непременным атрибутом которой являются большие тяжёлые занавеси на всех окнах, украшенные бусами и бисером. Здесь же размещают её приданое и личные вещи. На третий день проводят «келин салом» – приветствие невесты в её новом доме. Важная часть традиции – лепёшка, от которой сначала должна откусить невеста, а затем свекровь – это символизирует совместный дружный быт, а также изобилие в доме. После свекровь дарит невестке золотые украшения, за ней это делает каждый родственник со стороны мужа. Келин *(Прим. ред.: так называют молодую невестку родственники мужа, к которым она пришла в семью),* в свою очередь, стоит, покрытая платком и в благодарность кланяется каждому.

Для свадебной одежды молодых тоже есть свои традиции. На свадебную церемонию мужчины надевают куйлак – рубашку прямого покроя, иштон – широкие шаровары, чапан – стеганый халат с разрезами по бокам, который подвязывается поясом. Пояс украшен или расшит серебром, а на голове жениха обязательно должна быть тюбетейка. Женский свадебный наряд состоит из платья простого кроя из хан-атласа и шароваров. Головной убор у женщин немного сложнее и включает три части: шапочку, платок и тюрбан.

Все эти традиции, ритуалы и церемонии, часть которых сохранилась в первозданном виде до сегодняшнего дня, и делают узбекскую свадьбу столь особенной. Гармоничное сочетание древних обычаев и современных тенденций – живое свидетельство богатой истории и культуры народа. Это не просто торжество, а путешествие в мир традиций, где прошлое гармонично переплетается с настоящим.

Kuyovning uyida kelin uchun chimildiq deb ataladigan xona tayyorlab qo'yilgan bo'lib, munchoq va marjonlar bilan bezatilgan, barcha derazalarga osilgan katta, og'ir pardalar bu xonaning ajralmas qismi hisoblanadi. Kelinning sepi va shaxsiy buyumlari ham shu xonaga joylashtiriladi. Uchinchi kuni "kelin salom" marosimi o'tkaziladi — bu kelinning yangi uyidagi salomlashuvi hisoblanadi. An'ananing muhim qismi non bo'lib, uni avval kelin, so'ng qaynona tishlashi kerak. Bu birgalikdagi ahil turmush va xonadondagi farovonlikning ramziy ifodasidir. Shundan so'ng qaynona kelinga oltin taqinchoqlar hadya etadi, navbatma-navbat kuyovning har bir qarindoshi ham sovg'a beradi. Kelin (erning oilasiga kelib qo'shilgan yosh kelinni qarindoshlar shunday atashadi) esa ro'mol ostida turib, minnatdorchilik belgisi sifatida ularning har biriga ta'zim qiladi.

Kelin-kuyovning to'y kiyimlariga doir o'ziga xos urf-odatlar ham mavjud. To'y marosimiga erkaklar tekis bichimli ko'ylak, keng ishton, yonlari kesilgan va belbog' bilan bog'lanadigan qavilgan to'n — chopon kiyadi. Belbog' kumush bilan bezatilgan yoki naqsh tikilgan, kuyovning boshida esa albatta do'ppi bo'lishi shart. Ayollarning to'y libosi oddiy bichimli xon-atlas ko'ylak va lozimdan iborat. Ayollar bosh kiyimi biroz murakkabroq bo'lib, uch qismdan: kichik qalpoq, ro'mol va salladan tashkil topadi.

Bugungi kunga qadar asl holati saqlanib qolgan bu an'ana, urf-odat va marosimlarning aksariyati o'zbek to'yini o'ziga xos qiladi. Qadimiy udumlar va zamonaviy tendensiyalarning uyg'unlashuvi xalqimizning boy tarixi va madaniyatining yorqin dalili hisoblanadi. Bu shunchaki tantana emas, balki o'tmish bilan bugungi kun uyg'unlashib ketgan an'analar dunyosiga sayohatdir.

РЕКЛАМА
LA SPOSA
BRIDAL
ZUHAIR MURAD | EVA LENDEL | VERA WANG | DOVITA | LA SPOSA ATELIER
ул. Фурката B05,
Boulevard Tashkent City
@laspoza.uz
La Spoza Uzbekistan
+998933887888

MADE IN CHINA: секрет успеха Кантонской ярмарки

Kanton yarmarkasi muvaffaqiyatining siri

Си Синьсин
Директор по въездному туризму в Гуанчжоу

Si Sinsin
Guanchjouning kirish turizmi bo'yicha direktori

Десятки лет оставаться лидером – вызов, который под силу лишь немногим. Кантонская ярмарка не просто удерживает первенство среди мировых торговых выставок, но и задаёт темп развитию глобального бизнеса. Это крупнейшая площадка Китая, где рождаются новые рынки, заключаются стратегические сделки и формируются тренды, влияющие на мировую экономику. Директор по въездному туризму в Гуанчжоу Си Синьсин помог нам разобраться, в чём феномен ярмарки и почему предприниматели со всего мира приезжают сюда вновь и вновь.

O'nlab yillar davomida yetakchi bo'lib qolishni faqat ayrimlar uddalay oladilar. Kanton yarmarkasi jahon savdo ko'rgazmalari orasidagi peshqadamligini saqlabgina qolmay, balki global biznesning rivojlanish sur'atlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu Xitoyning yangi bozorlar yaraladigan, strategik bitimlar imzolanadigan va jahon iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatadigan trendlar shakllanadigan yirik maydonchasi hisoblanadi. Guanchjouning kirish turizmi bo'yicha direktori Si Sinsin yarmarka fenomenining mohiyati va butun dunyo tadbirkorlari nima uchun bu yerga qayta-qayta tashrif buyurishlari sababini bilib olishimizga yordam berdi.

Уникальность

Среди множества торговых выставок Кантонская ярмарка занимает особое место. Это не просто крупнейшая бизнес-платформа Китая – это стратегический узел мировой торговли, где соединяются Восток и Запад, традиции и технологии, амбиции и возможности. На протяжении 60 лет ярмарка сохраняет статус ведущего центра международного сотрудничества, предлагая уникальное сочетание масштабов, охвата и гибкости. Здесь объединены более 25 000 экспонентов из самых разных отраслей: от передовой электроники и промышленного оборудования до текстиля, моды, продуктов питания и автомобильных технологий. Это делает её универсальной площадкой для бизнеса любой направленности. На сегодняшний день Кантонская ярмарка формирует будущее состояние мировой торговли. Здесь ежегодно презентуются инновационные технологии, тестируются новые модели взаимодействия между поставщиками и покупателями, внедряются цифровые инструменты, позволяющие сделать процесс переговоров ещё удобнее и эффективнее.

O'ziga xoslik

Ko'plab savdo ko'rgazmalari orasida Kanton yarmarkasi muhim o'rin tutadi. U nafaqat Xitoyning eng yirik biznes maydoni, balki Sharq va G'arb, an'ana va texnologiyalar, ambitsiya va imkoniyatlarni bog'laydigan jahon savdo-sotig'ining strategik markazi hisoblanadi. Yarmarka ko'lam, qamrov va moslashuvchanlikning noyob uyg'unligini taqdim etgan holda 60 yildan buyon xalqaro hamkorlikning yetakchi markazi maqomini saqlab kelmoqda. Bu yerda ilg'or elektronika va sanoat uskunalaridan tortib to'qimachilik, moda, oziq-ovqat hamda avtomobilsozlik texnologiyalarigacha bo'lgan turli sohalarning 25 000 dan ortiq eksponentlari to'plangan. Bu uni har qanday yo'nalishdagi biznes uchun universal maydonchaga aylantiradi. Bugungi kunda Kanton yarmarkasi jahon savdo-sotig'ining kelajakdagi holatini shakllantirmoqda. Yarmarkada har yili innovatsion texnologiyalar taqdim etiladi, yetkazib beruvchilar va xaridorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi modellari sinovdan o'tkaziladi, muzokaralar jarayonini yanada qulay va samarali qiladigan raqamli vositalar joriy etiladi.

Дополнительным преимуществом является персонализированный подход – организаторы помогают зарубежным компаниям находить подходящих партнеров, организовывать встречи и проводить переговоры в комфортных условиях.

Географический фактор также играет ключевую роль, ведь Гуанчжоу – крупнейший торговый центр Южного Китая, обладающий развитой инфраструктурой, удобным расположением и выгодной логистикой. Близость к ведущим производственным кластерам Китая обеспечивает быстрый доступ к фабрикам и поставщикам, что делает Кантонскую ярмарку особенно привлекательной для оптовых закупщиков.

Shaxsiy yondashuv – tashkilotchilarning xorijiy kompaniyalar uchun ularga mos hamkorlarni topish, uchrashuvlarni tashkil etish va qulay sharoitlarda muzokaralar olib borishda yordam berishi bu maydonchaning qo'shimcha ustunligi hisoblanadi.

Geografik omil ham muhim o'rin tutadi, chunki Guanchjou Janubiy Xitoyning eng yirik savdo markazi bo'lib, rivojlangan infratuzilma, qulay joylashuv va samarali logistikaga ega. Xitoyning yetakchi ishlab chiqarish klasterlariga yaqinligi fabrika va yetkazib beruvchilarga tez kirish imkonini beradi va bu ulgurji xaridorlar uchun Kanton yarmarkasini yanada jozibador qiladi.

В отличие от выставок, сосредоточенных на одной отрасли, Кантонская ярмарка объединяет тысячи компаний из разных секторов, создавая универсальную платформу для покупателей со всего мира.

Bir sohaga ixtisoslashgan ko'rgazmalardan farqli o'laroq, Kanton yarmarkasi turli sohalardagi minglab kompaniyalarni birlashtirib, butun dunyo xaridorlari uchun universal platformani yaratadi.

Главная цель

Эта выставка давно переросла формат обычной торговой ярмарки, став стратегической площадкой для развития международного бизнеса. Главная цель – создание условий для эффективного взаимодействия поставщиков и покупателей, стимулирование экспорта и развитие новых рынков. Участники и организаторы стремятся не просто показать товары, а создать среду, в которой предприниматели смогут находить новые возможности, расширять партнерские связи и интегрироваться в международные торговые процессы.

Важнейший аспект мероприятия – ориентир на переговорный процесс и заключение долгосрочных контрактов. Здесь деловые встречи проходят не только на стендах, но и в рамках закрытых бизнес-форумов, где обсуждаются инвестиционные проекты, совместные производства и стратегические альянсы.

И наконец, Кантонская ярмарка – это зеркало глобальной экономики, отражающее актуальные тренды и меняющиеся потребности рынков.

Цифровизация и гибридные решения

За последние годы выставка прошла через серьёзную трансформацию, адаптируясь к новым экономическим реалиям и технологическим вызовам. Одним из главных шагов стало внедрение гибридного формата, который объединил классические оффлайн-экспозиции с передовыми цифровыми инструментами.

Переход к онлайн-платформе начался в 2020 году, когда пандемия вынудила пересмотреть традиционный формат мероприятия. Виртуальные выставочные стенды, видеопрезентации и автоматизированные системы для поиска партнёров сделали участие доступным для ещё большего числа компаний. Теперь деловые переговоры можно проводить удалённо, а демонстрацию продукции – вести в режиме реального времени через интерактивные площадки.

Искусственный интеллект для подбора деловых контактов, интеграция с международными логистическими платформами, цифровые каталоги товаров и другие современные решения делают участие в выставке ещё более удобным и продуктивным, а гибридный формат превратил её в круглогодичную бизнес-экосистему, доступную 24/7.



Asosiy maqsad

Bu ko'rgazma allaqachon oddiy savdo yarmarkasi doirasidan chiqib, xalqaro biznesni rivojlantirish uchun strategik maydonchaga aylangan. Asosiy maqsad – yetkazib beruvchilar va xaridorlarning samarali hamkorligi uchun sharoit yaratish, eksportni rag'batlantirish va yangi bozorlarni rivojlantirish hisoblanadi. Ishtirokchi va tashkilotchilar nafaqat mahsulotlarni namoyish etishga, balki tadbirkorlar yangi imkoniyatlar topishi, hamkorlik aloqalarini kengaytirishi va xalqaro savdo jarayonlariga qo'shilishi uchun muhit yaratishga intilishadi.

Tadbirning eng muhim jihati muzokaralar jarayoniga va uzoq muddatli shartnomalar tuzishga yo'naltirilganligidir. Bu yerda ishbilarmonlik uchrashuvlari nafaqat stendlarda, balki investitsiya loyihalari, qo'shma ishlab chiqarish va strategik hamkorliklar muhokama qilinadigan yopiq biznes-forumlar doirasida ham o'tkaziladi. Qolaversa, Kanton yarmarkasi – bu global iqtisodiyotdagi bozorlarning dolzarb trendlari va o'zgaruvchan ehtiyojlarini aks ettiradigan ko'zgusi hisoblanadi.

Raqamlashtirish va gibrid yechimlar

So'nggi yillarda ko'rgazma yangi iqtisodiy voqelik va texnologik sinovlarga moslashib, jiddiy transformatsiyani boshdan kechirdi. Eng muhim qadamlardan biri an'anaviy oflayn ekspozitsiyalarni zamonaviy raqamli vositalar bilan uyg'unlashtiradigan gibrid formatni joriy etish bo'ldi.

Onlayn platformaga o'tish 2020-yilda, pandemiya tufayli tadbirning an'anaviy formatini qayta ko'rib chiqishga to'g'ri kelganda boshlandi. Virtual ko'rgazma stendlari, videotaqdimotlar va hamkorlarni qidirish uchun avtomatlashtirilgan tizimlar yanada ko'proq kompaniyalar uchun ishtirok etish imkoniyatini yaratdi. Endilikda ishbilarmonlik muzokaralarini masofadan turib o'tkazish, mahsulotlar namoyishini esa interaktiv maydonchalar orqali real vaqt rejimida olib borish mumkin.

Biznes aloqalarini tanlashda yordamchi bo'ladigan sun'iy intellekt, xalqaro logistika platformalari bilan integratsiya, mahsulotlarning raqamli kataloglari va boshqa zamonaviy yechimlar ko'rgazmada ishtirok etishni yanada qulay va samaraliroq qiladi, gibrid format esa uni yil bo'yi 24/7 rejimida ishlaydigan biznes ekotizimiga aylantirdi.

Кантонская ярмарка стремится не просто связывать продавцов и покупателей, а делать это так, чтобы каждый находил надёжного партнера и чувствовал себя уверенно в любой сделке. Ведь бизнес – это в первую очередь про людей.

Kanton yarmarkasi shunchaki sotuvchi va xaridorlarni bog'labgina qolmay, balki har bir ishtirokchi ishonchli hamkor topishi va har bir bitimda o'zini xotirjam his qilishi uchun harakat qiladi. Axir biznes, avvalo insonlar haqida.

Исторические вехи и развитие

Ярмарка прошла путь от небольшой национальной торговой платформы до крупнейшего глобального бизнес-форума. Её история тесно связана с экономическим развитием Китая и его интеграцией в мировую торговлю.

С момента основания в 1957 году мероприятие задумывалось как инструмент укрепления экспортного потенциала страны. В первые десятилетия его участниками были исключительно китайские компании, ориентированные на внешние рынки, однако после экономических реформ 1978 года и с началом политики «открытых дверей» география участников стала расширяться.

2007 год явился знаковым – впервые свои товары на выставке представили иностранные компании, что вывело её на новый уровень международного взаимодействия. С тех пор формат продолжает эволюционировать, интегрируя инновационные технологии и привлекая всё больше экспонентов со всего мира.

Сегодня площадка охватывает 1,1 миллиона квадратных метров и объединяет сотни тысяч посетителей из более чем 200 стран. Её способность адаптироваться к вызовам времени подтверждает лидерский статус и стратегическую значимость для глобального рынка.

Muhim tarixiy davrlar va rivojlanish

Yarmarka kichik milliy savdo platformasidan yirik global biznes-forumgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Uning tarixi Xitoyning iqtisodiy taraqqiyoti va uning jahon savdosiga integratsiyalashuvi bilan chambarchas bog'liq.

1957-yilda asos solingan bu tadbir mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash vositasiga aylanishi mo'ljallangan edi. Dastlabki o'n yilliklarda faqat tashqi bozorlarga e'tibor qaratgan Xitoy kompaniyalari uning ishtirokchilari bo'lsa, 1978-yildagi iqtisodiy islohotlar va "ochiq eshiklar" siyosati boshlanganidan so'ng ishtirokchilar geografiyasi kengaya boshladi.

2007-yil burilish nuqtasi bo'ldi –ko'rgazmada ilk bor xorijiy kompaniyalar o'z mahsulotlarini namoyish etdi va bu uni xalqaro hamkorlikning yangi bosqichiga olib chiqdi. O'shandan beri format innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish va dunyo bo'ylab tobora ko'proq eksponentlarni jalb qilish orqali rivojlanishda davom etmoqda.

Bugungi kunda mazkur maydon 1,1 million kvadrat metrni qamrab olib, 220 dan ortiq mamlakatdan yuz minglab tashrif buyuruvchilarni o'ziga jalb etgan holda dunyodagi eng yirik savdo yarmarkasi maqomini saqlab qolmoqda. Zamon talablariga moslasha olish qobiliyati uning global bozordagi yetakchilik mavqei va strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Благодаря этой ярмарке Гуанчжоу превратился в мировой торговый центр. Каждый год мероприятие привлекает сотни тысяч посетителей, что стимулирует развитие гостиничного бизнеса, деловых центров и международных сервисов, поддерживающих торговлю.

Ushbu yarmarka tufayli Guanchjou jahon savdo markaziga aylandi. Har yili tadbir yuz minglab tashrif buyuruvchilarni jalb etadi va bu mehmonxona biznesi, biznes markazlar va xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlovchi xizmatlarning rivojlanishini rag'batlantiradi.

Как ярмарка изменила Гуанчжоу

За десятилетия своего существования ярмарка превратила Гуанчжоу из регионального торгового центра в один из крупнейших деловых хабов мира. Город, расположенный в самом сердце динамично развивающейся провинции Гуандун, стал символом открытости Китая и его интеграции в мировую экономику.

Благодаря регулярному притоку тысяч международных предпринимателей в Гуанчжоу активно развивалась инфраструктура: строились современные выставочные комплексы, бизнес-центры, отели и логистические терминалы. Появление Выставочного комплекса Пачжоу, крупнейшего в Азии, стало ярким подтверждением этого роста.

Экономическое влияние выставки выходит далеко за её пределы. С каждым новым сезоном увеличивается объем прямых иностранных инвестиций, создаются новые рабочие места в сфере торговли, транспорта, гостеприимства и финансов. Развитие высокоскоростного железнодорожного сообщения и расширение Международного аэропорта Гуанчжоу-Байюнь сделали город ещё более доступным для зарубежных партнёров.

Взаимодействие традиций и технологий

Кантонская ярмарка – это уникальное сочетание многолетних традиций и современных решений. Несмотря на стремительное развитие цифровых технологий, личные встречи, живое общение с поставщиками и тестирование продукции по-прежнему играют ключевую роль. Многие контракты заключаются именно после индивидуальных переговоров, где важны нюансы сотрудничества и доверие между партнёрами.

В то же время цифровизация делает процесс ещё удобнее: B2B-платформы, видеосвязь и онлайн-торговые инструменты позволяют быстрее находить выгодные предложения и заключать сделки. Такой баланс классического подхода и инноваций делает ярмарку незаменимой для бизнеса.

Одним из главных событий остаётся торжественная церемония открытия – масштабное мероприятие, которое собирает мировых бизнес-лидеров и экспертов индустрии. Важную роль играют и неформальные встречи, а культурная программа создаёт дополнительную атмосферу для продуктивного общения.

Ещё один значимый аспект – гибкость цен. Многие поставщики, словно торговцы Великого шелкового пути, готовы обсуждать индивидуальные условия и скидки в зависимости от объёмов закупок, что делает участие в ярмарке ещё более выгодным.

Основные отрасли и товары

Эта выставка – настоящий парад технологий, стиля и инноваций. Ведущие мировые бренды представляют передовые разработки в электронике и бытовой технике, поражая новинками и smart-решениями. Промышленное оборудование – от высокоточных станков до ключевых комплектующих – открывает бизнесу новые горизонты. Одежда и текстиль радуют разнообразием: от трендовой повседневной моды до премиальных коллекций. Шикарные интерьеры? Легко! Мебель и декор для дома и офиса вдохновляют стильными решениями. Автомобильные технологии тоже в центре внимания – лучшие запчасти и инновации привлекают лидеров отрасли. А в гастрономическом секторе акцент на свежих фермерских продуктах и революционных идеях в агробизнесе. Поверьте, здесь есть всё, что делает жизнь удобнее, красивее и технологичнее.

Yarmarka Guanchjouni qanchalik o‘zgartirdi

O‘n yillar davomida yarmarka Guanchjouni mintaqaviy savdo markazidan dunyodagi eng yirik biznes markazlaridan biriga aylantirdi. Tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan Guandun viloyatining markazida joylashgan bu shahar Xitoyning ochiqlik siyosati va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi ramziga aylandi.

Guanchjouga minglab xalqaro tadbirkorlarning muntazam oqimi tufayli shahar infratuzilmasi jadal rivojlandi: zamonaviy ko‘rgazma majmualari, biznes markazlari, mehmonxonalar va logistika terminallari qurildi. Osiyodagi eng yirik Pachjou ko‘rgazma majmuasining barpo etilishi ushbu o‘sishning yaqqol isboti bo‘ldi.

Ko‘rgazmaning iqtisodiy ta’siri yarmarka doirasidan tashqariga ham yoyildi. Har yangi mavsumda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning hajmi ortib, savdo, transport, mehmondo‘stlik va moliya sohalarida yangi ish o‘rinlari paydo bo‘lmoqda. Yuqori tezlikdagi temir yo‘l qatnovining rivojlanishi va Guanchjou-Bayyun Xalqaro aeroportining kengaytirilishi xorijiy hamkorlar uchun yanada ko’proq qulaylik yaratdi.

An’ana va texnologiyalar hamkorligi

Kanton yarmarkasi bu – ko‘p yillik an’ana va zamonaviy yechimlarning o‘ziga xos uyg‘unligi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishiga qaramay, yuzma-yuz uchrashuvlar, yetkazib beruvchilar bilan jonli muloqot va mahsulotlarni sinovdan o‘tkazish hamon muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ko‘pgina shartnomalar hamkorlikning nozik jihatlari va hamkorlar o‘rtasidagi ishonch muhim bo‘lgan individual muzokaralardan so‘ng tuziladi.

Shu bilan bir qatorda, raqamlashtirish jarayonni yanada qulaylashtiradi: B2B platformalar, videoaloqa va onlayn savdo vositalari foydali takliflarni tezroq topish hamda bitimlar tuzish imkonini beradi. An’anaviy yondashuv va innovatsiyalarning bunday uyg‘unligi yarmarkani biznes uchun beqiyos ahamiyatga ega qilmoqda.

Jahon biznesidagi yetakchilar va soha mutaxassislarini bir joyga to‘playdigan keng ko‘lamli tadbir – tantanali ochilish marosimi asosiy voqealardan biri bo‘lib qolmoqda. Norasmiy uchrashuvlar ham muhim ahamiyatga ega, madaniy dastur esa samarali muloqot uchun qo‘shimcha muhit yaratib beradi.

Yana bir muhim jihat – moslashuvchan narxlar. Ko‘plab yetkazib beruvchilar xuddi Buyuk ipak yo‘li savdogarlari singari xaridlar hajmiga mos ravishda individual shart hamda chegirmalarni muhokama qilishga tayyor va bu yarmarkada ishtirok etishni yanada manfaatli qiladi.

Asosiy soha va mahsulotlar

Bu ko‘rgazma – chinakam texnologiya, uslub va innovatsiyalar namoyishi hisoblanadi. Jahonning yetakchi brendlari elektronika va maishiy texnika sohasidagi ilg‘or ishlanmalarini taqdim etib, yangiliklar va smart yechimlar bilan hayratda qoldiryapti. O‘ta aniq dastgohlardan tortib asosiy butlovchi qismlargacha bo‘lgan sanoat uskunalari – biznes uchun yangi ufqlarni ochmoqda. Trenddagi kundalik modadan tortib premium toifadagi to’plamlargacha bo’lgan kiyim-kechak va to‘qimachilik mahsulotlari xilma-xilligi bilan ko‘zni quvontiradi. Hashamatli interyerlarchi? Muammo emas! Uy va ofis uchun mebel hamda dekorlar zamonaviy yechimlar bilan ilhomlantiradi. Avtomobil texnologiyalari ham e’tibor markazida –eng sara ehtiyot qismlar va innovatsiyalar soha yetakchilarini o‘ziga jalb etmoqda. Gastronomiya sohasida esa, fermerlarning yangi mahsulotlari va agrobiznesdagi inqilobiy g‘oyalarga ko’proq urg‘u berilmoqda. Ishonavering, bu yerda hayotni yanada qulay, ajoyib va texnologik jihatdan mukammal qiladigan hamma narsa bor.

Как отбираются экспоненты

Чтобы стать участником выставки, компании должны соответствовать ряду строгих критериев. Важную роль играют опыт работы на международном рынке и деловая репутация, подтверждающие стабильность бизнеса и его готовность к сотрудничеству с зарубежными партнёрами. Высокое качество продукции и наличие международных сертификатов являются обязательными условиями для допуска к экспозиции, поскольку организаторы стремятся поддерживать высокий уровень представленных товаров. Кроме того, рассматривается способность компании предложить конкурентоспособные условия и широкий ассортимент, что делает её привлекательной для потенциальных покупателей.

Отбор проводится с особой тщательностью, чтобы каждая представленная фирма соответствовала установленным стандартам, а сама ярмарка оставалась эффективной площадкой для заключения сделок. Если ваша компания готова стать частью этого международного бизнес-сообщества, подать заявку можно на официальном сайте Кантонской ярмарки.

Популярные мероприятия

Выставка включает не только демонстрацию продукции, но и насыщенную деловую программу, в рамках которой проходят форумы, панельные дискуссии и специализированные мероприятия. Бизнес-сообщество активно обсуждает тренды мировой торговли, делится прогнозами и стратегиями развития. Важной частью становятся презентации, позволяющие участникам увидеть новинки «вживую» и протестировать инновационные решения. Отдельное место занимают закрытые переговорные сессии, ориентированные на обсуждение партнёрских условий и заключение контрактов в формате B2B. Благодаря таким мероприятиям выставка превращается в эффективный инструмент поиска новых партнёров и расширения деловых связей. В рамках ярмарки организуются семинары и дискуссионные панели, помогающие участникам адаптироваться к новым реалиям мировой торговли, понять изменения в логистических цепочках и освоить современные цифровые инструменты ведения бизнеса.

Eksponentlar qanday tanlab olinadi?

Ko‘rgazmada ishtirok etish uchun kompaniyalar bir qator qat’iy mezonlarga javob berishi lozim. Xalqaro bozordagi ish tajribasi va ishbilarmonlik nufuzi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, biznesning barqarorligi va uning xorijiy hamkorlar bilan hamkorlik qilishga tayyorligini tasdiqlaydi. Tashkilotchilar taqdim etilayotgan mahsulotlarning yuqori darajasini saqlab qolishga intilgani sababli, mahsulotning yuqori sifati va xalqaro sertifikatlarning mavjudligi ko‘rgazmada qatnashish ruxsatnomasini olish uchun majburiy shart hisoblanadi. Bundan tashqari, kompaniyaning potensial xaridorlar uchun jozibador raqobatbardosh shartlar va keng assortimentni taklif eta olish imkoniyati ham ko‘rib chiqiladi. Har bir ishtirokchi firma belgilangan standartlarga javob berishi va yarmarka bitimlar tuzishda samarali maydoncha bo‘lib qolishi uchun tanlov alohida e’tibor bilan o‘tkaziladi. Agar kompaniyangiz ushbu xalqaro biznes hamjamiyatining a’zosi bo‘lishga tayyor bo‘lsa, Kanton yarmarkasi rasmiy veb-saytida ariza topshirishingiz mumkin.

Mashhur tadbirlar

Ko‘rgazma mahsulotlarni namoyish etish bilan cheklanibgina qolmaydi, balki keng qamrovli ishbilarmonlik dasturi doirasidagi forumlar, davra munozaralari va ixtisoslashtirilgan tadbirlarni o‘tkazadi. Biznes hamjamiyati jahon savdosi trendlarini faol muhokama qilib, prognozlar va rivojlanish strategiyalari bilan o‘rtoqlashadi. Ishtirokchilarga yangiliklarni “jonli” ko‘rish va innovatsion yechimlarni sinash imkonini beradigan taqdimotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Hamkorlik shartlarini muhokama qilish va B2B formatida shartnomalar tuzishga qaratilgan yopiq muzokaralar alohida o‘rin egallaydi. Bunday tadbirlar tufayli ko‘rgazma yangi hamkorlar topish va ishbilarmonlik aloqalarini kengaytirishning samarali vositasiga aylanadi. Yarmarka doirasida tadbir ishtirokchilariga jahon savdo-sotig’ining yangi voqeliklariga moslashish, logistika zanjirlaridagi o‘zgarishlarni tushunish va biznes yuritishga yordam beradigan zamonaviy raqamli vositalarni o‘zlashtirishga yordam beradigan seminar va davra suhbatlari tashkil etiladi.

Государственная поддержка

Выставка активно поддерживается китайским правительством, что делает её ещё более значимой на международной арене. Власти Китая упрощают визовые процедуры для иностранных участников, предоставляют субсидии китайским экспонентам, способствуя их выходу на глобальный рынок, и развивают программы международного сотрудничества. Также облегчены таможенные процедуры для образцов продукции, что позволяет ускорить демонстрацию товаров и заключение сделок. Такой уровень государственной поддержки превращает мероприятие в стратегический инструмент развития национальной экономики и международного партнёрства.

Davlat ko‘magi

Ko‘rgazma Xitoy hukumati tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanayotganligi sababli uning xalqaro maydondagi ahamiyati yanada ortib bormoqda. Xitoy hukumati xorijiy ishtirokchilar uchun viza tartiblarini soddalashtiryapti, mahalliy eksponentlarga subsidiyalar ajratib, ularning jahon bozoriga chiqishiga ko‘maklashyapti hamda xalqaro hamkorlik dasturlarini rivojlantiryapti. Shuningdek, mahsulotlarni namoyish etish va bitimlar tuzishni tezlashtirish maqsadida mahsulot namunalari uchun bojxona tartib-taomillari soddalashtirildi. Davlatning bu darajadagi qo‘llab-quvvatlashi tadbirni milliy iqtisodiyotni va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning strategik vositasiga aylantiradi.

География участников

Кантонская ярмарка ежегодно собирает участников со всего мира, демонстрируя свою глобальную значимость. Среди стран-участниц можно отметить Турцию, Германию, Корею, Тайвань, Пакистан, Панаму, Узбекистан, Израиль, Египет, Соединенные Штаты Америки, Японию, Сингапур, Индонезию, Великобританию, Малайзию, Таиланд, Италию, Испанию, Вьетнам, Иран, Шри-Ланку, Португалию и Россию. Такое разнообразие подтверждает статус Кантонской ярмарки как крупнейшей международной торговой площадки.

Ishtirokchilar geografiyasi

Kanton yarmarkasi har yili dunyoning turli burchaklaridan ishtirokchilarni jalb etib, o‘zining global ahamiyatini namoyon etadi. Ishtirokchi mamlakatlar qatorida Xitoy, Turkiya, Germaniya, Koreya, Tayvan, Pokiston, Panama, O‘zbekiston, Isroil, Misr, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Yaponiya, Singapur, Indoneziya, Buyuk Britaniya, Malayziya, Tailand, Italiya, Ispaniya, Vyetnam, Eron, Shri-Lanka, Portugaliya va Rossiyani ko‘rish mumkin. Bunday xilma-xillik Kanton yarmarkasining eng yirik xalqaro savdo maydoni sifatidagi maqomini yana bir bor tasdiqlaydi.

Гости

Ведущими гостями традиционно остаются компании из США и Европы, которые активно закупают электронику, оборудование, одежду и мебель. Юго-Восточная Азия фокусируется на текстильной и сельскохозяйственной продукции, а страны Ближнего Востока и Африки проявляют интерес к автомобильным запчастям и продовольственным товарам. Латинская Америка активно сотрудничает с китайскими производителями в сфере сельхозтехники и потребительских товаров. Широкий охват стран делает выставку одной из самых универсальных торговых платформ в мире.

Mehmonlar

Elektronika, uskunalar, kiyim-kechak va mebellarni faol ravishda xarid qiladigan AQSH va Yevropa kompaniyalari an’anaviy ravishda yetakchi mehmonlar bo‘lib qolmoqda. Janubi-Sharqiy Osiyo to‘qimachilik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga e’tibor qaratsa, Yaqin Sharq va Afrika mamlakatlari avtomobil ehtiyot qismlari va oziq-ovqat mahsulotlariga qiziqish bildiradi. Lotin Amerikasi davlatlari xitoylik ishlab chiqaruvchilar bilan qishloq xo‘jaligi texnikasi va iste’mol mahsulotlari sohasida faol hamkorlik qiladi. Mamlakatlarning bunday keng qamrovi bu ko‘rgazmani dunyodagi eng universal savdo maydonchalaridan biriga aylantirmoqda.

История успеха

За свою историю выставка стала средоточием множества крупных сделок и стратегических партнёрств. Один из самых известных случаев – покупка бразильским бизнесменом всего годового объёма продукции китайской фабрики за один день. Французская сеть магазинов сделала заказ на 500 000 эксклюзивных плюшевых игрушек, которые ранее не выпускались, а американский дистрибьютор электроники заключил контракт на поставку инновационных кухонных гаджетов. Эти примеры подтверждают, что участие в ярмарке открывает огромные возможности для роста и международного расширения бизнеса.

Кантонская ярмарка задаёт тренды, формирует новые деловые связи и создаёт условия для устойчивого экономического роста, а способность адаптироваться к глобальным вызовам, внедрять инновации и расширять международное сотрудничество делает её ключевым событием в сфере мировой торговли.

Muvaffaqiyat tarixi

Ko‘rgazma o‘z tarixi davomida ko‘plab yirik bitimlar va strategik hamkorliklar markaziga aylandi. Eng mashhur voqealardan biri — braziliyalik tadbirkorning bir kunda Xitoy fabrikasining butun yillik mahsulotini xarid qilishi bo‘lgandi. Fransiya do‘konlar tarmog‘i ilgari ishlab chiqarilmagan 500 000 ta eksklyuziv yumshoq o‘yinchoqqa buyurtma berdi, Amerikaning elektronika distribyutori esa innovatsion oshxona jihozlarini yetkazib berish bo‘yicha shartnoma imzoladi. Ushbu misollar yarmarkada ishtirok etish korxonalarning o‘sishi va xalqaro miqyosda kengayishi uchun ulkan imkoniyatlar yaratishini tasdiqlaydi.

Kanton yarmarkasi trendlarni belgilab beradi, yangi ishbilarmonlik aloqalarini shakllantiradi va barqaror iqtisodiy o‘sish uchun sharoit yaratadi, global muammolarga moslashish, innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish layoqati esa uni jahon savdo-sotig’idagi muhim tadbirga aylantiradi.

Многие известные бренды начинали свой путь именно на Кантонской ярмарке. Крупнейшие компании, среди которых Gree Electric Appliances, Huawei, TCL и Midea, участвуют в выставке уже многие годы, выстраивая долгосрочное партнёрство и укрепляя свои позиции на мировом рынке.

Ko‘plab mashhur brendlar dunyo miqyosidagi faoliyatini aynan Kanton yarmarkasidan boshlagan. Gree Electric Appliances, Huawei, TCL va Midea kabi yirik kompaniyalar bu ko‘rgazmada ko‘p yillardan beri ishtirok etadi va uzoq muddatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, jahon bozorida o‘z mavqeini mustahkamlamoqda.

Вызовы и перспективы

Несмотря на статус ведущей торговой площадки, ярмарка сталкивается с рядом вызовов. Экономическая нестабильность влияет на инвестиционную активность, а сбои в логистических цепочках могут замедлять выполнение контрактов. Конкуренция со стороны цифровых торговых платформ заставляет организаторов искать новые форматы взаимодействия, адаптировать деловую программу и расширять возможности онлайн-участия. Однако внедрение инноваций, развитие гибридных форматов и укрепление международного сотрудничества позволяют выставке не только сохранять лидерство, но и задавать новые тенденции в мировой торговле.

Этой весной Кантонская ярмарка пройдёт с 15 апреля по 5 мая, а мы, в свою очередь, позаботились о вашем комфортном путешествии: авиакомпания Centrum Air запустила прямые рейсы в Гуанчжоу, которые выполняются трижды в неделю. Планируйте поездку заранее, открывайте новые горизонты и будьте в центре мировых тенденций вместе с Centrum Air!

Muammo va istiqbollar

Yarmarka yetakchi savdo maydoni maqomiga ega bo‘lishiga qaramay, bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Iqtisodiy beqarorlik investitsiya faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, logistika zanjirlaridagi uzilishlar esa shartnomalarning bajarilishini sekinlashtirishi mumkin. Raqamlahtirilgan savdo platformalari bilan raqobat tashkilotchilarni hamkorlikning yangi shakllarini izlash, biznes dasturini takomillashtirish va onlayn ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishga majbur qilmoqda. Ammo innovatsiyalarni joriy etish, gibrid formatlarni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash ko‘rgazmaga nafaqat yetakchilikni saqlab qolish, balki jahon savdosidagi yangi tendensiyalarni belgilash imkonini ham beradi.

Bu yil bahorgi Kanton yarmarkasi 15-apreldan 5-maygacha bo‘lib o‘tadi, biz esa o‘z navbatida qulay sayohatingizni ta’minladik: Centrum Air aviakompaniyasi Guanchjouga haftasiga uch marta amalga oshiriladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri reyslarni yo‘lga qo‘ydi. Centrum Air bilan sayohatingizni oldindan rejalashtiring, yangi ufqlarni kashf eting va jahon tendensiyalari markazida bo‘ling!

CENTRUMAIR РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

Ташкент TAS — 6 часов 55 минут — **Гуанчжоу** CAN

O'ZBEKONA KOLORITGA EGA AN'ANAVIY JAZ

JAZZIRAMA

ТРАДИЦИОННЫЙ ДЖАЗ С УЗБЕКСКИМ КОЛОРИТОМ

В Узбекистане чтят и сохраняют традиции, что находит отражение во всех сферах искусства и культуры. Музыкальный коллектив Jazzirama с момента своего основания в 2007 году привносит новое дыхание в узбекский джаз, сочетая этнические мотивы с современным звучанием. Этот уникальный проект, объединяющий классных, «горящих» своим делом музыкантов, органично соединяет богатое культурное наследие страны и инновационный подход к джазу, что делает их музыку особенной. В интервью саксофонист, композитор, продюсер, педагог, руководитель бэнда Саидмурат Муратов рассказал о творческом пути коллектива, взглядах на развитие джаза в Узбекистане и о том, как они сочетают современные тенденции с богатым музыкальным наследием родного края.

— КАК ВОЗНИКЛА JAZZIRAMA?

— Jazzirama родилась в результате долгого творческого пути и случайных встреч. Во время учебы в Государственной консерватории Узбекистана я познакомился с пианистом и композитором Санжаром Нафиковым в рамках концертной подготовки. Совместное исполнение и общая страсть к джазу привели к решению работать вместе. В 2007 году появился первый проект, называвшийся Jam Five, состоящий из пяти студентов консерватории. Этим составом мы дали наш первый сольный концерт, который состоялся в театре имени Марка Вайля «Ильхом». Затем организовывали какие-то интересные концерты, небольшие проекты. Менялось название нашего коллектива, так же как и менялись люди, которые играли вместе с нами.

Сначала мы исполняли американский джаз, но уже ко второму концерту, поняв, что подражать западной музыке – не совсем наш путь, начали искать собственный стиль. Мы выросли в Узбекистане – стране с богатейшими традициями. Почему мы должны заниматься подражательством? Да, учиться надо у мастеров, и у зарубежных исполнителей есть что перенять: профессионализм, пунктуальность, тайм-менеджмент, нюансы саунд-чека... Музыкально тоже есть чему научиться, но однажды, слушая азербайджанского пианиста Вагифа Мустафазаде, который виртуозно сочетал джаз с мугамом, я подумал: почему бы нам не попробовать сделать то же самое с узбекской музыкой? Так мы начали экспериментировать. На втором концерте, когда мы ещё назывались «Квартет S.M.», мы сыграли арию Otmagay tong из узбекской оперы «Тахир и Зухра». Чтобы исполнить это произведение, я специально готовился с известным узбекским музыкантом Батыром Дусумбетовым, который обучал меня игре на нае. Резонанс был ошеломляющим, и мы поняли, что выбрали правильное направление.

После этого мы начали писать собственные композиции, основанные на узбекской музыке, и к 2013 году, уже под названием Jazzirama, стали активно развивать этот стиль. Название пришло из проекта под руководством Мансура Ганиевича Ташматова, в котором я участвовал ранее. Он считал, что Jazzirama идеально отражает дух джаза, а мы с Санжаром решили продолжить творчество под этим именем, получив его одобрение.

Youtube:
Jazzirama&Yogev Shetrit – Otmagay tong

O'zbekistonda an'analar e'zozlanadi va asrab-avaylanadi, bu san'at va madaniyatning barcha sohalarida o'z ifodasini topmoqda. 2007-yilda tashkil topgan Jazzirama musiqiy jamoasi milliy motivlarni zamonaviy ohanglar bilan uyg'unlashtirib, o'zbek jaziga yangi nafas olib kirmoqda. O'z ishiga fidoyi, jonkuyar sozandalarni birlashtirgan ushbu betakror loyiha mamlakatning boy madaniy merosi va jazga bo'lgan innovatsion yondashuvni o'zaro uyg'unlashtiradi, bu ularning musiqasini o'ziga xos qiladi. Saksofonchi, bastakor, prodyuser, pedagog va guruh rahbari Saidmurod Muratov suhbatda jamoaning ijodiy yo'li, O'zbekistonda jazning rivojlanishi borasidagi qarashlari va o'zlarining zamonaviy yo'nalishlarni ona yurtning boy musiqiy merosi bilan qanday tarzda uyg'unlashtirishlari haqida so'zlab berdi.

— JAZZIRAMA QANDAY PAYDO BO'LGAN?

— Jazzirama uzoq ijodiy yo'l va tasodifiy uchrashuvlar natijasida vujudga keldi. O'zbekiston davlat konservatoriyasida tahsil olayotgan kezlarimda konsertga tayyorgarlik chog'ida pianinochi va bastakor Sanjar Nafiqov bilan tanishib qoldim. Birgalikdagi ijro va jazga bo'lgan mushtarak ishtiyoqimiz bizni hamkorlikda ishlashga undadi. 2007-yilda konservatoriyaning besh nafar talabasidan iborat "Jam Five" nomli ilk loyihamiz yaratildi. Shu tarkib bilan Mark Vayl nomidagi "Ilhom" teatrida ilk yakkaxon konsertimizni berdik. Keyinchalik, turli qiziqarli konsert va kichik loyihalar uyushtirildi. Vaqt o'tgan sari jamoamizning tarkibi ham, uning nomi ham o'zgarib bordi.

Dastlab biz Amerika jazini ijro etardik. Biroq ikkinchi konsertimizga kelib – G'arb musiqasiga taqlid qilish mutlaqo bizning yo'limiz emasligini anglagach, o'z uslubimizni izlay boshladik. Biz boy an'analarga ega – O'zbekistonda ulg'ayganmiz. Nega endi taqlid bilan shug'ullanishimiz kerak? Albatta, ustozlardan o'rganish lozim va professionalizm, aniqlik va taym-menejment, saund-chekning nozik jihatlari kabi xorijlik ijrochilardan o'zlashtirishimiz kerak bo'lgan narsalar ham bor. Musiqiy jihatdan ham o'rganishga arzigulik narsalar bor. Ammo bir kuni jaz va muqomni mohirona uyg'unlashtirgan ozarbayjonlik pianist Vagif Mustafozodani tinglayotib, o'ylab qoldim: biz ham o'zbek musiqasi bilan shunday qilsak bo'lmaydimi? Shu tariqa tajribalar o'tkazishni boshladik. Hali "S.M. kvarteti" deb atalgan paytlarimizdagi ikkinchi konsertimizda "Tohir va Zuhra" o'zbek operasidan "Otmagay tong" ariyasini ijro etdik. Ushbu asarni ijro qilish uchun mashhur o'zbek musiqachisi Botir Do'simbetov bilan maxsus tayyorgarlik ko'rdim, u menga nay chalishni o'rgatdi. Tinglovchilar taassuroti hayratlanarli bo'lgan — shunda to'g'ri yo'nalishni tanlaganimizni angladik.

Shundan so'ng o'zbek musiqasiga asoslangan o'z kompozitsiyalarimizni yozishni boshladik. 2013-yilga kelib Jazzirama nomi bilan bu uslubni faol rivojlantirishga kirishdik. Bu nom ilgari Mansur G'aniyevich Toshmatov rahbarligida ishtirok etgan loyihamdan kelib chiqqan. U Jazzirama o'zida jaz ruhini mukammal tarzda aks ettiradi deb hisoblardi. Biz esa Sanjar bilan u kishining roziligini olib, shu nom ostida ijodimizni davom ettirishga qaror qildik.

— КАКУЮ МУЗЫКУ ИГРАЛИ УЧАСТНИКИ БЭНДА ДО ПРИХОДА В КОЛЛЕКТИВ?

— До того как собраться в единый коллектив, каждый из нас уже имел определенный опыт в музыке. Я всегда любил играть эстрадную музыку, джаз и, конечно, классические произведения, которые сильно помогают в музыкальном развитии. А Санжар всю свою жизнь был рок-музыкантом, но со временем его творческий путь привел к джазу, и именно в этот период мы с ним познакомились.

Помимо нас в коллективе есть ещё один уникальный музыкант – Шавкат Матъякубов, макомист и мультиинструменталист, который является доцентом Узбекского национального института музыкального искусства имени Юнуса Раджаби. Шавкат играет на танбуре, сато, дойре, сурнае и кошнае. Это настоящий человек-оркестр, и его уникальность заключается в том, что он не только макомист-певец, но и один из немногих музыкантов, который прославляет узбекское исполнительское искусство по всему миру. Шавкат побывал в более чем 40 странах, исполняя макомы, а еще участвовал в проекте всемирно известного голландского коллектива Atlas Orchestra, куда его пригласили без конкурса, чтобы он сыграл с ними на одной сцене. Это не просто исполнитель – он делится с нами знаниями о макоме будучи наставником и путеводителем в мир узбекских музыкальных традиций.

Что касается решения играть джаз с узбекским колоритом, то для каждого из нас это было естественно. Мы всегда понимали, что джаз – не просто стиль, а целая культура, несущая свободу и демократию. Джаз зародился в условиях рабства и расовой дискриминации, и этот дух свободы продолжает быть его неотъемлемой частью. Сегодня данный музыкальный стиль объединяет народы, помогает налаживать культурные мосты. В Ташкенте уже много лет проходит джазовый фестиваль, который привлекает мировых звезд и собирает полные залы, что подтверждает растущий интерес к джазу в Узбекистане.

— КАК ДОЛГО ДЛИЛСЯ ПОИСК МУЗЫКАНТОВ, ЧТОБЫ ДОБИТЬСЯ ЗАДУМАННОГО ЗВУЧАНИЯ?

— «Задуманное звучание» – это процесс, и по сути мы всегда находимся в поиске. Даже сейчас ищем интересные сочетания инструментов, какие-то новые идеи и формы. Мы не можем сказать, что уже нашли идеальный стиль, что он завершён и готов. Нам всегда есть куда расти, и это то, что вдохновляет на дальнейшие эксперименты. Например, азербайджанские музыканты, которые начали экспериментировать ещё в 60-х годах, по сей день продолжают искать новые пути, сочетая инструменты и стили разных эпох. Мы ориентируемся на их опыт и стремимся создавать что-то уникальное.

Однако в Узбекистане нет развитой джазовой культуры, что является для нас определенной проблемой. У нас нет джазового факультета в музыкальных вузах, а интерес со стороны слушателей начал проявляться только недавно. На джазовые фестивали и концерты в Ташкенте стало приходить гораздо больше людей, но всё ещё существует нехватка музыкантов с нужными навыками и опытом. Мансур Ганиевич Ташматов, например, проводит концерты с оркестром, чем постепенно формирует интерес к этноджазу, но культура только начинает развиваться.

Побывав в Мичиганском университете по программе культурного обмена, я показал музыкантам ноты и запись с нашего первого альбома. Они мгновенно поняли нашу музыку и были готовы сыграть с нами. Это впечатлило меня: они с легкостью интерпретировали наши произведения, даже не зная об особенностях узбекской традиционной музыки. Позже, выступая в Париже с пианистом и профессором Парижской консерватории Пьером де Батманом, я снова почувствовал, как быстро

— BEND A'ZOLARI JAMOAGA QO'SHILISHDAN OLDIN QANDAY MUSIQA IJRO ETISHGAN?

— Yagona jamoaga birlashishimizdan oldin har birimiz musiqa sohasida ma'lum tajribaga ega edik. Men doimo estrada musiqasi va jazni, shuningdek, musiqiy rivojlanishda katta yordam beradigan mumtoz asarlarni ijro etishni yoqtirardim. Sanjar esa butun umri davomida rok musiqachi bo'lib kelgan, biroq vaqt o'tishi bilan ijodiy yo'li uni jazga yetaklagan va biz u bilan aynan shu davrda tanishganmiz.

Jamoamizda bizdan tashqari yana bir ajoyib musiqachi – maqomchi va multi-cholg'uchi, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbekiston milliy musiqa san'ati instituti dotsenti Shavkat Matyoqubov ham bor. U tanbur, sato, doira, surnay va qo'shnayni mahorat bilan chaladi. Shavkat haqiqiy orkestr-inson bo'lib, uning o'ziga xos jihati — nafaqat maqomchi-qo'shiqchi, balki o'zbek ijrochilik san'atini dunyoga tanitayotgan sanoqli musiqachilardan biri hisoblanadi. Shavkat 40 dan ortiq mamlakatda bo'lib maqomlarni ijro etgan. Shuningdek, Gollandiyaning dunyoga mashhur "Atlas Orchestra" jamoasi loyihasida ishtirok etgan. Ularning e'tiborini qozongan Shavkat, hech qanday tanlovsiz orkestr bilan bir sahnada chiqish uchun taklif qilingan. U shunchaki ijrochi emas – maqom haqidagi bilimlarini bizga ulashib, ustozlik qiluvchi va o'zbek musiqa an'analari dunyosiga yo'l ko'rsatuvchi shaxsdir.

Jazni o'zbekona uslubda chalishni tanlaganimizga kelsak, bu har birimiz uchun tabiiy qaror edi. Biz doimo jaz – shunchaki uslub emas, balki erkinlik va demokratiyani o'zida mujassam etgan butun bir madaniyat ekanini anglab kelganmiz. Jaz qullik hamda irqiy diskriminatsiya sharoitida paydo bo'lgan, erkinlik ruhi esa uning ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda, musiqaning ushbu yo'nalishi xalqlarni birlashtirish, madaniyat ko'priklarni barpo etishga yordam qilmoqda. Toshkentda ko'p yillardan buyon o'tkazib kelinayotgan jaz festivali jahon yulduzlarini jalb etib, zallarni tomoshabinlar bilan to'ldirmoqda va bu O'zbekistonda jaz san'atiga qiziqish ortib borayotganidan dalolat bermoqda.

— KO'ZLANGAN OHANGGA ERISHISH UCHUN MUSIQACHILARNI QIDIRISH QANCHA VAQT OLDI?

— "Ko'zlangan ohang" – bu aslida bir jarayon va biz hamisha izlanishdamiz. Hatto hozir ham cholg'u asboblarining qiziqarli birikmalari, yangi g'oya va shakllarni izlayapmiz. Mukammal uslubni topdik, u tugallandi va tayyor deb ayta olmaymiz. Bizda doimo o'sish uchun imkoniyatlar bor va bu bizni keyingi tajribalarga ilhomlantiradi. Misol uchun, izlanishlarini 60-yillardayoq boshlagan ozarbayjon musiqachilari bugungi kungacha turli davrlarning cholg'u asboblari va uslublarini uyg'unlashtirib, yangi uslublarni qidirishni davom ettirmoqda. Biz ularning tajribasidan foydalanib, o'ziga xos narsalarni yaratishga intilyapmiz.

Biroq O'zbekistonda rivojlangan jaz madaniyatining yo'qligi biz uchun muayyan muammo hisoblanadi. Musiqa oliy o'quv yurtlarimizda jaz fakulteti mavjud emas, tinglovchilarning qiziqishi esa yaqindagina paydo bo'la boshladi. Toshkentdagi jaz festivallari va konsertlariga tashrif buyuruvchi odamlar soni tobora ko'paymoqda, ammo kerakli ko'nikma va tajribaga ega musiqachilar yetishmaydi. Masalan, Mansur G'aniyevich Toshmatov orkestr bilan konsertlar o'tkazadi va bu bilan etnojazga bo'lgan qiziqishni asta-sekin shakllantirmoqda, ammo bu madaniyat endigina rivojlanishni boshlayapti.

Madaniy almashinuv dasturi doirasida Michigan universitetida bo'lganimda, musiqachilarga birinchi albomimizdagi nota va yozuvlarni ko'rsatdim. Ular musiqamizni darhol tushunib, biz bilan birga ijro etishga tayyor edi. Bu meni hayratga solgandi: ular o'zbek an'anaviy musiqasining o'ziga xos xususiyatlaridan bexabar holda, bizning asarlarimizni osonlik bilan talqin qilishgandi. Keyinchalik, Parijda pianinochi va Parij konservatoriyasi professori Pyer de Batman bilan chiqish qilganimda, turli madaniyatga man-

музыканты, будучи представителями разных культур, понимают и осваивают этноджаз. Мы играли лазги и Otmagay tong, и я понял, что даже если музыканты не знакомы с узбекской культурой, они могут легко передать дух нашей музыки. У нас же, к сожалению, из-за нехватки джазовой культуры музыкантам сложно быстро освоить такие произведения. В основном они играют поп- и рок-музыку.

В 2024 году мы начали сотрудничать с Олимжоном Хакимовым – профессионалом в искусстве игры на ударных, который известен своими достижениями в области узбекской и латиноамериканской перкуссии. С ним мы выступали на нескольких джазовых фестивалях в Европе, и его приход в группу стал для нас настоящим событием. Олимжон – настоящая творческая личность с собственными проектами, поэтому иногда у него нет времени на нас, но когда оно появляется, он играет с нами, потому что интересуется этноджазом. Это добавило нашему звучанию мощи и динамики, а его энергия и талант всегда вдохновляют нас на новые эксперименты.

— ЧЕМ ПРИВЛЕКАТЕЛЕН УЗБЕКСКИЙ ЭТНОДЖАЗ?

— Прежде всего узбекская этника – это наша родная музыка. С детства мы слушали по радио звучание ная, дутара, исполнение макома. Многие, к сожалению, не понимают её глубины, но на самом деле она возвышенная и духовная, ведь маком построен на поэзии великих поэтов. Мы сотрудничаем с заслуженной артисткой Узбекистана, макомисткой Нодирой Пирматовой, и я неоднократно становился свидетелем её игры на дутаре. На глаза наворачивались слёзы – это музыка, которая проникает в душу. Jazzirama – не тот проект, где рамки определяют наши действия. Мы выбрали этот путь, потому что всё это искренне любим. Можно расценивать это как благодарность родному краю, где творили великие личности: аль-Хорезми, Авиценна и аль-Бухари. Это мировой культурный центр, и мы не должны забывать о его величии.

sub musiqachilar etnojazni qanchalik tez tushunishi va o'zlashtirishini yana bir bor his qildim. Biz lazgi va "Otmagay tong"ni ijro etayotgandik, shunda o'zbek madaniyatini yaxshi bilmagan musiqachilar ham musiqamiz ruhini bemalol yetkazib bera olishini angladim. Bizda esa, afsuski, jaz madaniyati yetarli darajada rivojlanmagani sababli musiqachilarimiz bunday asarlarni tezda o'zlashtirishi qiyin. Ular asosan pop va rok musiqasini ijro etadilar.

2024-yilda biz o'zbek va Lotin Amerika perkussiyasi sohasidagi yutuqlari bilan tanilgan, zarbli cholg'u asboblari ijrosi san'ati bo'yicha mutaxassis – Olimjon Hakimov bilan hamkorlikni boshladik. Olimjon bilan Yevropadagi bir necha jaz festivallarida ishtirok etdik, uning guruhimizga qo'shilishi biz uchun haqiqiy voqeaga aylandi. Olimjon – o'z loyihalariga ega haqiqiy ijodkor shaxs bo'lganligi bois ba'zida biz uchun vaqti yetishmaydi, lekin bo'sh vaqtlarida biz bilan ijro etadi, chunki u etnojazga juda qiziqadi. Uning ishtiroki bizning ohanglarimizga kuch va dinamika qo'shdi, g'ayrati va iste'dodi esa bizni doimo yangi izlanishlarga ilhomlantiradi.

— O'ZBEK ETNOJAZI NIMASI BILAN JOZIBADOR?

— Avvalambor, o'zbek etnikasi – bu bizning jonajon musiqamiz. Bolaligimizdan radio orqali nay, dutor kuylarini, maqomlarni eshitganmiz. Afsuski, ko'pchilik bu ijrolarning teranligini anglamaydi, aslida ular yuksak va ma'naviy ruhga ega, axir maqom buyuk shoirlar she'riyati asosiga yaralgan. Biz O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, maqomchi Nodira Pirmatova bilan hamkorlik qilamiz. Bir necha bor uning dutor chalayotganini ko'rganman. Ko'zlarimga yosh kelgan - bu qalbga kirib boradigan musiqa. Jazzirama – bizning harakatlarimizni chegaralaydigan loyiha emas. Biz bularning barchasini chin qalbdan sevganimiz uchun shu yo'lni tanlaganmiz. Buni al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino va Al-Buxoriy kabi buyuk allomalar ijod qilgan ona yurtimizga minnatdorchilik deb baholash mumkin. Bu jahon madaniyati markazi va biz uning ulug'vorligini unutmasligimiz lozim.

Узбекистан – место, где всегда кипели жизнь и творчество, но, к сожалению, многие сегодня недооценивают имеющиеся культурные сокровища. Например, то, что для некоторых «палка и две струны», на самом деле является уникальной особенностью. Танбур в руках таких мастеров, как Тургун Алиматов, становится инструментом, способным нести в мир глубокие эмоции и музыку, которая живёт веками. Замечательно, когда люди начинают интересоваться этой музыкой и понимать её ценность. Но главное, мы занимаемся этим, потому что это наше родное, оно течёт в наших венах.

Выбор произведения всегда связан с тем, что мы слушаем, что нас вдохновляет. Иногда это старые эстрадные или народные записи. Порой я нахожу что-то интересное на пластинках: вот, например, когда-то наткнулся на «Лазги» в исполнении Насибы Абдуллаевой. Мне очень понравилось, как она интерпретировала эту композицию, придав ей эстрадное звучание, но в национальном стиле. Это был настоящий фьюжн 80-х годов. Представьте: заиграла музыка, присоединяется вокал, а в какой-то момент вступает электрогитара, при этом её звучание напоминает хорезмский аккордеон. Это нас сильно впечатлило, и мы решили использовать данную идею как основу для собственной версии «Лазги».

Некоторые композиции мы впервые услышали именно в эстрадном исполнении. Например, песню «Сумбула» Райхон Ганиевой. Я тогда сразу подумал, что с этим произведением стоит поработать.

Иногда кто-то из нас сочиняет музыку дома, на компьютере, а уже на репетициях мы решаем, как эту композицию развить и что с ней делать дальше. Это всегда процесс поиска, и каждый новый эксперимент помогает открывать что-то уникальное для нашего коллектива.

Youtube:
Jazzirama&Yogev Shetrit – Lazgi

O'zbekiston – azaldan hayot va ijod qaynagan makon. Afsuski, bugungi kunda ko'pchilik mavjud madaniy boyliklarimizga yetarlicha baho bermaydi. Masalan, ba'zilar uchun "ikki torli tayoq" bo'lib ko'ringan narsa aslida noyob chol'gu asbobidir. Turg'un Alimatov singari ustalar qo'lidagi tanbur asrlar osha yashab kelayotgan teran his-tuyg'ular va musiqani dunyoga yetkazib bera oladigan cholg'u asbobiga aylanmoqda. Odamlar bu musiqaga qiziqib, uning qadr-qimmatini anglay boshlashi juda yaxshi. Ammo eng muhimi, biz bu bilan o'zimizniki, qon-qonimizga singib ketgani uchun shug'ullanamiz.

Asar tanlovi har doim biz tinglayotgan, bizni ilhomlantirgan narsa bilan bog'liq. Ba'zan bu eski estrada yoki xalq qo'shiqlarining yozuvlari bo'ladi. Gohida qiziqarli narsalarni plastinkalarda topaman: masalan, bir paytlar Nasiba Abdullayeva ijrosidagi "Lazgi"ga duch kelganman. Uning bu asarni ijro etish usuli menga juda manzur bo'lgan edi, kompozitsiyaga estrada ohangini bergan bo'lsa-da, lekin milliy uslubda ijro etilgan. Bu 80-yillardagi haqiqiy fyujn edi. Tasavvur qiling: qo'shiq boshlanadi, unga vokal jo'r bo'ladi, qaysidir lahzada elektrogitara yangraydi va uning sadosi Xorazm akkordeonini eslatadi. Bu bizga kuchli ta'sir qilgandi va bu g'oyani o'z "Lazgi" versiyamiz uchun asos sifatida ishlatishga qaror qilgandik.

Ba'zi qo'shiqlarni dastlab estrada yo'nalishida eshitganmiz. Misol uchun, Rayhon G'aniyeva ijrosidagi "Sunbula" qo'shig'i. O'shanda darhol bu asar bilan ishlashga urinib ko'rish kerak, degan fikrga keldim.

Gohida birortamiz uyda kompyuterda musiqa yozamiz, repetitsiyalarning o'zida esa bu kompozitsiyani qanday rivojlantirish va undan keyin nima qilishni belgilab olamiz. Bu izlanish jarayoni bo'lib, har bir yangi tajriba bizga jamoamiz uchun qanday-dir noyob narsani kashf etishga yordam beradi.

— С КЕМ ИЗ ИЗВЕСТНЫХ МУЗЫКАНТОВ ВЫ РАБОТАЛИ НА ОДНОЙ СЦЕНЕ?

— Одна из наших первых коллабораций произошла на весеннем джаз-фестивале 2014 года. В то время ЮНЕСКО активно привлекала посольства стран для финансирования, чтобы привезти артистов за их счет. Благодаря этому нам удалось сыграть с американскими музыкантами, и среди первых наших коллег был джазовый квартет Ари Роланда.

Однако если говорить о более серьезных коллаборациях касательно узбекского джаза, то наверное, самым ярким примером была наша работа с пианистом и профессором Парижской консерватории Пьером де Батманом. В 2016 году нам удалось сыграть с ним на сольном концерте. Также стоит отметить наше сотрудничество с Эрве Селленом – профессором департамента джаза и импровизационной музыки Парижской национальной консерватории музыки и танца, с которым мы играли на его концерте в Ташкенте. Это был действительно важный момент для нас, так как Эрве Селлен – одна из ведущих фигур французского джаза.

Мы также несколько раз выступали с канадским пианистом Дэвидом Брейдом: на концертах в «Ильхоме», на джазовом фестивале в Ташкенте, а в 2022 году у нас был потрясающий опыт – мы выступали на одной сцене с Камерным оркестром «Туркистон».

Если говорить о планах на будущее, то нам бы очень хотелось посотрудничать с Государственным симфоническим оркестром Узбекистана под управлением Камолиддина Уринбаева и с Национальным симфоническим оркестром Узбекистана под руководством Алибека Кабдурахманова. Считаем, что с этими выдающимися оркестрами можно было бы создать нечто по-настоящему интересное и уникальное. Также хотелось бы работать с танбуристом Тоиром Аскаром, исполнителями макомов Мохичехрой Шомуротовой и Мунаджат Юлчиевой. Для нас путеводной звездой является и Севара Назархан, которая пробилась на мировую сцену, исполняя узбекские произведения по всему миру. Конечно, с множеством других талантливых музыкантов мы бы тоже хотели создать что-то неповторимое.

— ПЕРЕЧИСЛИТЕ МЕЖДУНАРОДНЫЕ КОНКУРСЫ И ФЕСТИВАЛИ, В КОТОРЫХ JAZZIRAMA ПРИНИМАЛА УЧАСТИЕ.

— Мы участвовали в нескольких международных конкурсах и фестивалях. Одним из первых был Бишкекский джазовый фестиваль в 2009 году, где мы завоевали Гран-при за исполнение этноджазовой композиции «Сары-Ой». В 2024 году мы получили премию «Будущее джаза» на Санкт-Петербургском международном джазовом фестивале, что стало важной вехой для нашей группы.

Джазовых конкурсов не так много, и обычно они ориентированы на сольных исполнителей. Например, Montreux Jazz Piano Competition для пианистов и Michael Brecker Competition для саксофонистов. Иногда организаторы фестивалей добавляют соревновательную часть, вручая награды для вдохновения участников.

Youtube:
Jazzirama&Yogev Shetrit – O'zbekiston

— MASHHUR MUSIQACHILARNING QAYSI BIRI BILAN BIR SAHNADA ISHLAGANSIZ?

— Dastlabki hamkorliklarimizdan biri 2014-yilning bahorgi jaz festivalida bo'lgan. O'sha paytda YUNESKO mamlakatlar elchixonalarini san'atkorlarni o'z hisobidan olib kelishni moliyalashtirishga faol jalb etayotgan edi. Shu tufayli biz amerikalik musiqachilar bilan birga sahnada ijro etishga muvaffaq bo'ldik, Ari Rolandning jaz kvarteti birinchi hamkasblarimizdan biri edi.

O'zbek jazi sohasidagi jiddiyroq hamkorliklar haqida so'z yuritadigan bo'lsak, Parij konservatoriyasining professori va pianinochisi Pyer de Batman bilan olib borgan ishimiz bunga eng yorqin misol bo'la oladi. 2016-yilda u bilan solo konsertda birgalikda chiqish qilishga muvaffaq bo'ldik. Shuningdek, Parij milliy musiqa va raqs konservatoriyasining jaz va improvizatsiya musiqasi bo'limi professori – Erve Sellen bilan hamkorligimizni va uning Toshkentda bo'lib o'tgan solo konsertida birga chiqish qilganimizni alohida aytib o'tish lozim. Bu biz uchun chindan ham muhim voqea edi, chunki Erve Sellen – fransuz jazining yetakchi namoyandalaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, biz kanadalik pianinochi Devid Breyd bilan bir necha marta hamkorlik qildik: "Ilhom" teatrida konsertlar berdik, Toshkentdagi jaz festivalida qatnashdik, 2022-yilda esa ajoyib tajribaga ega bo'ldik — "Turkiston" kamer orkestri bilan bir sahnada chiqish qildik.

Kelajakdagi rejalarimizga to'xtaladigan bo'lsak, Kamoliddin O'rinboyev boshchiligidagi O'zbekiston davlat simfonik orkestri va Alibek Abdurahmonov rahbarligidagi O'zbekiston milliy simfonik orkestri bilan hamkorlik qilishni juda istardik. Bu atoqli orkestrlar bilan haqiqatan ham qiziqarli va betakror asarlar yaratish mumkin, deb o'ylaymiz. Shuningdek, tanburchi Toir Asqar, maqom ijrochilari Mohichehra Shomurotova va Munojot Yo'lchiyeva bilan ham ishlash istagimiz bor. Butun dunyo bo'ylab o'zbek asarlarini ijro etib, jahon sahnalarini zabt etgan Sevara Nazarxon ham biz uchun yo'lchi yulduz hisoblanadi. Albatta, boshqa ko'plab iste'dodli musiqachilar bilan ham betakror asarlarni yaratishni xohlaymiz.

— JAZZIRAMA QAYSI XALQARO TANLOV VA FESTIVALLARDA ISHTIROK ETGAN?

— Biz bir nechta xalqaro tanlov va festivallarda ishtirok etganmiz. Dastlabkilardan biri 2009-yildagi Bishkek jaz festivali bo'lib, unda "Sari-Oy" etnojaz kompozitsiyasining ijrosi uchun gran-pri bilan taqdirlandik. 2024-yilda esa Sankt-Peterburg xalqaro jaz festivalida "Jaz kelajagi" mukofotini qo'lga kiritdik, bu guruhimiz uchun muhim bosqich bo'ldi.

Jaz tanlovlari unchalik ham ko'p emas, ular odatda yakkaxon ijrochilarga mo'ljallangan. Masalan, pianinochilarga mo'ljallangan Montreux Jazz Piano Competition va saksofonchilarga yo'naltirilgan Michael Brecker Competition tanlovlari shular jumlasidan. Ba'zida festival tashkilotchilari mukofotlar topshirish orqali ishtirokchilarni ruhlantirish maqsadida bahslashuv qismini ham qo'shadilar.

— В КАКИХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ПРОЕКТАХ ВАМ ДОВЕЛОСЬ ПОРАБОТАТЬ?

— Один из первых проектов, в котором я участвовал, – Ilkhom Jazz Club. Это был мой личный проект, который существует до сих пор, хотя сейчас он в «заморозке». Он активно функционировал с 2014 по 2018 годы, проведя более 30 концертов с участием местных исполнителей и около 50 мастер-классов с приглашёнными зарубежными музыкантами. Наша идея заключалась в том, чтобы создать что-то вроде творческой «песочницы», и в какой-то степени это удалось – слава о клубе разлетелась, и музыканты из разных стран начали писать с предложением выступить. Правда, приходилось честно объяснять, что финансирования для их приглашения у нас нет. Мы получали поддержку от посольств и организаций вроде ЮНЕСКО, но у нас не было собственных средств.

Следующий проект – «Джаз умидлари». Он реализовывался в 2019–2021 годах совместно с творческой мастерской «Ария» под руководством Валентины Мартиросян. Это была творческая площадка для детей и подростков, увлечённых джазом. Например, одной из участниц была Мадинабону Одилова, которая стала полуфиналистом шоу Ovoz: Голос Узбекистана, и с которой мы продолжаем работать.

Также я участвовал в образовательных проектах при поддержке американского посольства. После поездки в США по государственной программе я стал «алюмни», выпускником программы, что открыло новые возможности. Посольство приглашает алюмни на различные мероприятия и предлагает подать заявки на гранты, что позволило нам дважды выиграть гранты на проекты Self Expression Through Jazz Improvisation и «Джаз как двигатель демократических реформ». Наряду с этим мы проводим мастер-классы в крупных музыкальных учреждениях Ташкента – школах имени Успенского и Глиэра, эстрадно-цирковом колледже, Государственной консерватории Узбекистана.

— SIZGA QAYSI MUSIQIY LOYIHALARDA ISHLASH NASIB ETDI?

— Men ishtirok etgan ilk loyihalardan biri –Ilkhom Jazz Club edi. Bu mening shaxsiy loyiham bo'lib, hozir "muzlatilgan" bo'lsa-da, u hali ham mavjud. U 2014-yildan 2018-yilgacha faol tarzda faoliyat yuritib, mahalliy ijrochilar ishtirokida 30 dan ortiq konsert va taklif etilgan xorijiy musiqachilar bilan 50 ga yaqin mahorat darslari o'tkazdi. Bizning g'oyamiz ijodiy "qumdon"ga o'xshash nimadir yaratish edi. Qaysidir ma'noda bunga erishdik ham — klubning shuhrati tarqalib, turli mamlakatlarning musiqachilaridan konsert berish takliflari tusha boshladi. Lekin ularni taklif qilish uchun bizda mablag' yo'qligini ochiq aytishga to'g'ri keldi. Biz elchixonalar va YUNESKO kabi tashkilotlardan yordam olib turgan bo'lsak-da, ammo o'z mablag'imiz yo'q edi.

Keyingi loyiha – "Jaz umidlari" edi. Loyiha 2019–2021-yillarda Valentina Martirosyan rahbarligidagi "Ariya" ijodiy ustaxonasi bilan hamkorlikda amalga oshirildi. Bu jaz san'atiga mehr qo'ygan bolalar va o'smirlar uchun ijodiy maydoncha edi. Ishtirokchilardan biri "Ovoz: O'zbekiston ovozi" shousining yarim finalchisi bo'lgan Madinabonu Odilova edi, biz u bilan hamon ishlashni davom ettiryapmiz.

Shuningdek, Amerika elchixonasi ko'magida ta'lim loyihalarida ishtirok etdim. Davlat dasturi bo'yicha AQShga qilgan safarimdan so'ng men "alyumni", ya'ni dastur bitiruvchisi bo'ldim va men uchun yangi imkoniyatlar ochildi. Elchixona alyumnilarni turli tadbirlarga chaqiradi, grant dasturlariga ariza topshirishni taklif qiladi, bu bizga "Self Expression Through Jazz Improvisation" hamda "Jaz demokratik islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi" loyihalari uchun ikki marta grant yutib olish imkonini berdi. Shu bilan birga, biz Toshkent shahridagi yirik musiqa ta'lim muassasalari — Uspenskiy va Glier nomidagi maktablar, Estrada-sirk kolleji hamda O'zbekiston davlat konservatoriyasida mahorat darslarini o'tkazyapmiz.

— КАКИЕ СПЕЦПРОЕКТЫ СТОИТ ОЖИДАТЬ?

— Мы планируем запуск новых образовательных программ для музыкантов, включая возрождение проекта «Джаз умидлари» и повторный запуск Ilkhom Jazz Club. Однако многое зависит от финансирования.

Государственная поддержка существует, но её недостаточно для крупных инициатив. Нам приходится быть энтузиастами: искать спонсоров, писать письма и звонить, чтобы привлечь необходимые средства. При планировании проектов мы исходим из собственных ресурсов, и нам нужно создать финансовую базу, которая позволит проводить мероприятия на собственные средства, чтобы не зависеть от сторонней помощи.

Несмотря на это, мы уже получили поддержку, например, от Фонда развития культуры и искусства, который оплатил наши поездки на Санкт-Петербургский международный джазовый фестиваль и Венецианский фестиваль искусств «Биеннале», где мы дважды представляли узбекский джаз. Такие моменты вдохновляют, но для решения ключевых проблем этого недостаточно. Например, в Узбекистане нет факультета джаза, а его создание значительно повысило бы уровень исполнительства. Мы обсуждали эту проблему с американским посольством, и они предложили программу, которая позволит пригласить профессора из США для создания основы джазового обучения. Это стало бы важным шагом в разрешении данного вопроса.

Сейчас финансирование часто направляется на привоз мировых звезд. Это важно для публики, но образовательной составляющей в таких проектах недостаточно. Мастер-классы вдохновляют, но не дают реальных знаний. Чтобы добиться устойчивого результата, нужно создавать регулярные программы, например, годичные курсы, где молодые музыканты смогут углубленно изучать джазовые дисциплины.

Мы уже получили одобрение от Фонда развития культуры и искусства на создание образовательной джазовой программы. Сейчас наша задача – грамотно оформить проект, проработать все детали: количество преподавателей, расписание занятий и ставки. Успех программы зависит от правильной структуры, и мы должны предусмотреть всё, чтобы избежать ошибок на старте.

Проблема, с которой мы сталкиваемся, очевидна: после крупных джазовых фестивалей молодые музыканты вдохновляются, но сталкиваются с тем, что в институтах и музыкальных школах нет специалистов для обучения джазу на высоком уровне. Эстрадное образование в Узбекистане хорошее, но джаз требует другого подхода, более специализированного. Надо признать, что даже преподаватели не всегда знают, где получить необходимые знания в этой области.

Если мы запустим программу, которая поможет молодым музыкантам углубиться в джаз, мы сможем закрыть этот разрыв. Регулярные занятия по импровизации, гармонии, теории джаза и ансамблевому исполнительству дадут шанс раскрыться талантам, готовым учиться.

Мы также планируем изучить опыт коллег из других стран, чтобы лучше понять, как такие программы организуются у них: какие курсы востребованы, какие подходы наиболее эффективны. Это поможет нам создать рабочую и эффективную модель.

На данном этапе мы работаем над проектом, чтобы сделать его максимально продуманным и профессиональным. Мы хотим не просто запустить образовательную программу, но и создать платформу для долгосрочного развития джаза в Узбекистане. С правильным подходом и поддержкой эта инициатива может кардинально изменить ситуацию, дать толчок новым талантам и вывести узбекский джаз на мировой уровень. Дайте нам немного времени, и мы обязательно воплотим эту идею в реальность. Ведь когда энтузиазм встречается с поддержкой, создаются действительно значимые вещи.

— QANDAY MAXSUS LOYIHALARNI KUTSAK BO'LADI?

— Musiqachilar uchun yangi ta'lim dasturlarini, jumladan, "Jaz umidlari" loyihasini tiklash va Ilkhom Jazz Clubni qayta ishga tushirishni rejalashtiryapmiz. Ammo bu rejalarning amalga oshishi ko'p jihatdan moliyalashtirishga bog'liq bo'ladi.

Davlat ko'magi bor, ammo yirik tashabbuslar uchun bu yetarli emas. O'zimiz tashabbuskor bo'lishimizga: homiylarni qidirish, xatlar yozish va kerakli mablag'larni jalb qilish uchun qo'ng'iroq qilishimizga to'g'ri kelyapti. Loyihalarni o'z resurslarimizdan kelib chiqqan holda rejalashtiramiz, o'zgalarning yordamiga bog'lanib qolmaslik uchun tadbirlarni o'z mablag'larimiz hisobidan amalga oshirish imkonini beradigan moliyaviy bazani yaratishimiz kerak.

Shunday bo'lsa-da, masalan, Sankt-Peterburg xalqaro jaz festivali va biz ikki marta o'zbek jaz san'atini namoyish etgan "Biennale" Venetsiya san'at festivaliga borish uchun Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi ko'magini oldik, safar xarajatlarimiz jamg'arma tomonidan qoplandi. Bunday voqealar ilhomlantiradi, ammo asosiy muammolarni hal qilish uchun bu yetarli emas. Misol uchun, O'zbekistonda jaz fakulteti yo'q, uni tashkil etilishi esa ijrochilik darajasini sezilarli darajada oshirgan bo'lardi. Biz bu masalani Amerika elchixonasi bilan muhokama qildik, ular jaz ta'limi asoslarini yaratish uchun AQShdan professor taklif qilish imkonini beradigan dasturni tavsiya etishdi. Masalani hal qilishda bu muhim qadam bo'lar edi.

Hozirgi kunda mablag'lar ko'pincha jahon yulduzlarini taklif qilishga yo'naltirilmoqda. Bu tomoshabinlar uchun muhim, biroq bunday loyihalarda ma'rifiy komponent yetarli emas. Mahorat darslari ilhomlantirsa-da, amaliy bilim bermaydi. Barqaror natijaga erishish uchun muntazam dasturlar, masalan, yosh musiqachilar jaz fanlarini chuqur o'rganishi mumkin bo'lgan bir yillik kurslarni yaratish kerak.

Jaz ta'limi dasturini yaratish g'oyamiz Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasiga ham ma'qul keldi. Hozirgi vazifamiz – loyihani to'g'ri shakllantirib, o'qituvchilar soni, mashg'ulotlar jadvali va stavkalar bo'yicha barcha tafsilotlarni ishlab chiqish. Dasturning muvaffaqiyati to'g'ri shakllantirilgan strukturaga bog'liq, ish boshida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun hamma narsaga e'tibor berishimiz kerak.

Biz duch kelayotgan muammo aniq: katta jaz festivallaridan so'ng yosh musiqachilar ilhomlanadi, ammo oliy o'quv yurtlari va musiqa maktablarida jazni yuqori darajada o'rgatadigan mutaxassislar yo'qligiga duch kelishadi. O'zbekistonda estrada ta'limi yaxshi yo'lga qo'yilgan, ammo jaz ko'proq ixtisoslashgan yondashuvni talab etadi. Tan olish kerakki, hatto o'qituvchilar ham bu sohada zarur bilimlarni qayerdan olishni doim ham bilmaydi.

Agar yosh musiqachilarga jaz bilan shug'ullanishga yordam beradigan dasturni ishga tushirsak, bu bo'shliqni to'ldirgan bo'lamiz. Improvizatsiya, uyg'unlik, jaz nazariyasi va ansambl ijrochiligi bo'yicha o'tkaziladigan muntazam mashg'ulotlar o'qishga ishtiyoqmand iste'dod egalariga o'zlarini namoyon qilish imkonini beradi.

Shuningdek, boshqa mamlakatlardagi hamkasblarimiz bunday dasturlarni qanday tashkil etgani — qaysi kurslarga talab bor, qanday yondashuvlar yanada samarali ekanini yaxshiroq tushunish uchun ular tajribasini o'rganishni rejalashtirganmiz. Bu ma'lumotlar asosida samarali va amaliy model yaratishimiz mumkin bo'ladi.

Hozirgi bosqichda loyihani iloji boricha puxta o'ylangan va professional darajada tayyorlash ustida ishlamoqdamiz. Biz nafaqat ta'lim dasturini yo'lga qo'yishni, balki O'zbekistonda jaz san'atining uzoq muddatli rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratishni maqsad qilganmiz. To'g'ri yondashuv va qo'llab-quvvatlash bilan bu tashabbus vaziyatni tubdan o'zgartirib, yangi iste'dodlarga keng yo'l ochishi va o'zbek jaz san'atini jahon miqyosiga olib chiqishi mumkin. Bizga biroz vaqt bering, biz bu g'oyani albatta amalga oshiramiz. Zero, ishtiyoq qo'llab-quvvatlash bilan uyg'unlashganda, haqiqatan ham muhim va ahamiyatli narsalar yaraladi.

— НА КАКИХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ПЛОЩАДКАХ ВАС МОЖНО НАЙТИ?

— Пока нас нет на музыкальных платформах, но мы планируем загрузить наши треки на Spotify, Яндекс.Музыку, YouTube и другие.

10 лет назад у нас вышел альбом, и мы обязательно загрузим его в сеть. За это время накопилось много нового материала, который пока исполняем только на концертах. Наша цель – записать альбомы и выпустить их. Кроме того, у нас есть уникальные композиции с симфоническим оркестром, которые мы тоже хотим записать и поделиться с аудиторией.

— ПОДЕЛИТЕСЬ БЛИЖАЙШИМИ ТВОРЧЕСКИМИ ПЛАНАМИ?

— Мы готовимся к участию в Бакинском джаз-фестивале этой осенью. Нас должны были пригласить в прошлом году, но произошел казус – организаторы перепутали формат и поставили нас выступать с этническим хип-хопом, хотя мы планировали исполнение джаза с узбекскими мотивами в Мугам-центре. Было принято решение перенести выступление на следующий год, и сейчас мы уверены, что всё пройдет как задумано. Признаюсь, этот инцидент лишь подогрел наше желание сделать выступление ярким и запоминающимся, чтобы показать уникальное сочетание джаза и узбекской музыки.

Также прошлым летом с нами связался видный музыкант и продюсер Анвар Каландаров. Он выразил желание выпустить наш первый альбом на виниле в Европе и США и поддержать его продвижение на международном рынке. Так что, думаю, наши первые пластинки можно будет приобрести уже в следующем году.

— SIZLARNI QAYSI MUSIQA MAYDONCHALARIDA TINGLASH MUMKIN?

— Hozircha musiqa platformalarida faoliyat yuritmayapmiz, lekin treklarimizni Spotify, Yandex.Music, YouTube va boshqalarga yuklashni rejalashtiryapmiz.

10 yil avval albom chiqargan edik, biz uni albatta internetga joylaymiz. Shu vaqt mobaynida ko'plab yangi materiallar to'plandi, hozircha ularni faqat konsertlarda ijro etyapmiz. Maqsadimiz — yangi albomlar yozib, ommaga taqdim etish. Bundan tashqari, simfonik orkestr bilan birgalikda yaratilgan noyob asarlarimiz ham bor, ularni ham yozib, tinglovchilarimiz bilan bo'lishishni istaymiz.

— YAQIN KELAJAKDAGI IJODIY REJALARINGIZ?

— Kuzda Bokuda o'tkaziladigan Jaz festivalida ishtirok etishga tayyorgarlik ko'ryapmiz. O'tgan yili bizni taklif qilishlari kerak edi, lekin chalkash holat yuz berdi – tashkilotchilar formatni adashtirib qo'yishdi va Mug'om markazida o'zbekcha ohanglardagi jaz ijro etishni rejalashtirgan bo'lsak-da, bizga etnik xip-xop bilan chiqishni taklif qilishdi. Shunda chiqishimizni keyingi yilga ko'chirishga qaror qildik, endi barcha narsa rejalashtirganimizdek bo'lishiga aminmiz. Tan olamanki, bu voqea bizning jaz va o'zbek musiqasining o'ziga xos uyg'unligini namoyish etishimiz uchun yorqin va esda qolarli ijro qilish istagimizni yanada kuchaytirdi.

Bundan tashqari, o'tgan yoz mashhur musiqachi va prodyuser Anvar Qalandarov biz bilan aloqaga chiqdi. U Yevropa va AQShda vinilda birinchi albomimizni chiqarish va uning xalqaro bozorda targ'ib qilinishini qo'llab-quvvatlash istagini bildirdi. Shu bois, o'ylaymanki, kelasi yili dastlabki plastinkalarimizni sotib olish imkoniyati paydo bo'ladi.

— ВОЗНИКАЛА ЛИ МЫСЛЬ ПОПРОБОВАТЬ СЕБЯ В ДРУГОМ МУЗЫКАЛЬНОМ НАПРАВЛЕНИИ?

— Мы давно перестали считать себя исключительно джазовыми музыкантами. Называем себя так, чтобы было проще понять, но на самом деле мы гораздо шире, ведь мы – просто музыканты. Джаз – потрясающий жанр, но это далеко не единственный способ выразить себя. Мы не стремимся играть классический американский джаз, потому что для этого нужно полностью погрузиться в жанр и посвятить себя только этому. Однако такой подход приведёт к созданию хорошей копии, а не поиску собственной идентичности.

Копирование на начальном этапе – это нормально, но главное не застрять в этом, а найти что-то своё, и для этого важно окружение, чтобы музыканты могли вдохновлять друг друга и создавать что-то уникальное.

Считаю, мы приобрели свою стилистику, интерпретируя народные мелодии через призму этноджаза, поэтому пока не рассматриваем возможность переключиться на другой стиль. Хотим углубляться в то, что уже создали, и развивать это.

— КАКАЯ ЗАВЕТНАЯ МЕЧТА У JAZZIRAMA?

— Продолжать развиваться и экспериментировать, не теряя при этом своей уникальности. Предпочитаем играть на привычных нам инструментах, потому что именно с ними чувствуем себя уверенно. Конечно, каждый из нас может немного поиграть на других инструментах, но основное внимание уделяется тем, которые стали нашей визитной карточкой.

В то же время мы задумываемся о внедрении новых технологий. Например, всё более популярными становятся электронные духовые контроллеры, которые могут воспроизводить любые звуки и дают простор для экспериментов. Также мы рассматриваем возможность создания электронных проектов, где использовались бы диджейские пульты, луперы, бит-машины и другие современные устройства. Это могло бы добавить нашим композициям свежести и современности.

Мы открыты к экспериментам и надеемся, что сможем объединить традиционное звучание с новыми технологиями, создавая нечто уникальное и захватывающее.

— ЕСЛИ БЫ В ПРИРОДЕ НЕ СУЩЕСТВОВАЛО ДЖАЗА И УЗБЕКСКИХ МУЗЫКАЛЬНЫХ МОТИВОВ, ЧТО БЫ ИСПОЛНЯЛА JAZZIRAMA?

Во время беседы к нам присоединился сооснователь бэнда Санжар Нафиков, и его реплика была невероятно яркой:

«Если бы джаза и узбекских музыкальных мотивов не существовало, мы бы их придумали!»

Саидмурат добавил: «Да, эти две культурные части настолько глубоко отражают нас, что отсутствие одной из них мы бы наверняка компенсировали чем-то своим. Возможно, создали новый стиль, основанный на других этнических мелодиях или ритмах, добавив в него те чувства и эмоции, которые вдохновляют нас в джазе и национальной музыке. Ведь главное для нас – это свобода самовыражения и передача истории через звук».

— O'ZINGIZNI BOSHQA MUSIQA YO'NALISHIDA SINAB KO'RISH FIKRI BO'LGANMI?

— Biz o'zimizni faqat jaz musiqachilari deb hisoblashni allaqachon to'xtatganmiz. Tushunish osonroq bo'lishi uchun o'zimizni shunday ataymiz, ammo aslida mohiyatning qamrovi ancha keng – biz shunchaki musiqachilarimiz. Jaz ajoyib janr, lekin bu o'zini namoyon qilishning yagona usuli emas. Biz klassik Amerika jazini ijro etishga intilmaymiz, chunki buning uchun janrga butunlay sho'ng'ish va kishi o'zini faqat shunga bag'ishlashi kerak. Ammo bunday yondashuv o'zligingizni izlashga emas, balki yaxshi nusxani yaratishga olib keladi.

Boshlang'ich bosqichda nusxa ko'chirish – bu tabiiy holat, lekin bunda qolib ketmaslik kerak. O'ziga xos narsani topish muhim, buning uchun musiqachilar bir-birini ilhomlantiradigan hamda betakror narsalarni yarata oladigan muhit juda zarur.

Biz xalq qo'shiqlarini etnojaz prizmasi orqali talqin qilib o'z uslubimizni topdik, deb hisoblayman. Shu bois, hozirda boshqa uslubga o'tishni ko'zlamayapmiz. Aksincha, yaratgan narsalarimizni chuqurroq o'rganib, uni yanada rivojlantirishni istaymiz.

— JAZZIRAMANING ENG ARDOQLI ORZUSI NIMA?

— O'zining betakrorligini yo'qotmagan holda rivojlanish va tajribalar o'tkazishda davom etish. Biz odatiy cholg'u asboblarimizda ijro etishni ma'qul ko'ramiz, chunki aynan ular bilan o'zimizni dadil his qilamiz. Albatta, har birimiz boshqa asboblarda ham biroz chalishimiz mumkin, biroq asosiy e'tiborimizni "tashrif qog'ozimiz"ga aylangan cholg'u asboblariga qaratamiz.

Shu bilan birga, yangi texnologiyalarni joriy etish haqida ham o'ylayapmiz. Misol uchun, har qanday tovushni chiqara oladigan va tajribalar uchun keng imkoniyatlar yaratadigan elektron puflama kontrollerlar tobora ommalashib bormoqda. Shuningdek, didjey pultlari, luper, bit-mashina va boshqa zamonaviy qurilmalardan foydalanish mumkin bo'lgan elektron loyihalarni yaratish imkoniyatini ham ko'rib chiqyapmiz. Bu kompozitsiyalarimizga yangilik va zamonaviylik baxsh etib, ularga yangicha ohang baxsh etishi mumkin. Biz tajribalarga ochiq bo'lib, an'anaviy ohanglarni yangi texnologiyalar bilan birlashtirib, o'ziga xos va qiziqarli narsalarni yarata olamiz, deb umid qilamiz.

— AGAR TABIATDA JAZ VA O'ZBEK MUSIQIY OHANGLARI BO'LMAGANIDA JAZZIRAMA NIMANI IJRO ETGAN BO'LAR EDI?

Suhbat davomida bizga bendning hammuassisi Sanjar Nafiqov qo'shildi va uning so'zlari juda yorqin bo'ldi:

"Agar jaz va o'zbek musiqiy ohanglari bo'lmaganida, biz ularni o'ylab topgan bo'lardik!"

Saidmurat qo'shib qo'ydi: "Ha, bu ikki madaniy bo'lak bizni shu qadar chuqur aks ettiradiki, ulardan birining yo'qligini balki o'zimizniki bilan qoplagan bo'lardik. Ehtimol, jazz va milliy musiqada bizni ilhomlantiradigan tuyg'u va hissiyotlarni qo'shib, boshqa etnik ohanglar yoki ritmlarga asoslangan yangi uslub yaratardik. Chunki biz uchun eng muhimi – o'zligimizni erkin ifodalash va ohang orqali tarixni yetkazish hisoblanadi".

CENTRUMAIR РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

Ташкент TAS — 3 часа 05 минут — **Баку** GYD

ЛЮБАЯ ИСТОРИЯ НАЧИНАЕТСЯ С ЧАШКИ ЧАЯ

HAR QANDAY HIKOYA BIR PIYOLA CHOY BILAN BOSHLANADI

Этот материал причудливо соединил четыре страны: Китай – родину чая, Нижний Новгород, откуда в XIX веке через крупнейшую в России Нижегородскую ярмарку чай попадал в Москву, Санкт-Петербург и далее в Европу, Узбекистан, который невозможно представить без традиционной чайханы, и Грузию с одними из самых северных чайных плантаций в мире. Мы постарались сделать повествование по-домашнему уютным и тёплым и посвятили его не столько истории появления напитка, сколько традициям и воспоминаниям героев.

Bu material g'alati tarzda to'rtta mamlakatni: choyning vatani Xitoy, XIX asrda Rossiyadagi eng yirik Nijniy Novgorod yarmarkasi orqali choyni Moskva, Sankt-Peterburg va undan keyin Yevropaga yetkazib bergan Nijniy Novgorod, an'anaviy choyxonasiz tasavvur qilib bo'lmaydigan O'zbekiston va dunyodagi eng shimoliy choy plantatsiyalariga ega Gruziyani birlashtira oldi. Biz faqat ichimlikning paydo bo'lish tarixi emas, balki an'analar va qahramonlarimizning xotiralari haqida so'zlab beruvchi dilkash va samimiy hikoyani yaratishga harakat qildik.

«Первая чашка чая увлажняет мне губы и горло,
Вторая чашка разбивает моё одиночество,
Третья чашка ощупывает мой бесплодный ум,
Но чтобы найти тома блуждающих мыслей.
Четвёртая чашка – и вот выступила испарина.
Всё, что неправильно в жизни, уходит сквозь поры кожи.
За пятой чашкой я очищен.
Шестая возносит меня в царство бессмертия;
Седьмая... Жаль, я не могу больше пить!»

Древний китайский поэт

"Ilk piyola choy lablarim va tomog'im namlar,
Ikkinchisi esa yolg'izligim tarqatar,
Uchinchisi besamar ongimni paypaslab ko'rar,
Sarson-sargardon fikrlarim jildlarin topmoq uchun.
To'rtinchi piyoladan so'ng – mana, ter ham chiqdi.
Hayotdagi bor nojo'yalar tanamni shu ter birla tark etdi.
Beshinchi piyola bilan, mana, men yana pokman.
Oltinchisi meni boqiylik saltanatiga eltar;
Yettinchisi... Afsus, ortiq icholmayman!"

Qadimgi xitoy shoiri

ЧАШКА ПЕРВАЯ. ЧАЙ И ПЛОВ – КАК ПОЖЕНИВШИЕСЯ ВЛЮБЛЁННЫЕ

BIRINCHI PIYOLA. CHOY VA PALOV — BIR-BIRIGA KO'NGIL QO'YGAN KELIN-KUYOVDAY GAP

Несмотря на то, что Узбекистан занимает первое место в списке стран, предпочитающих чай другому популярному напитку – кофе (данные Euromonitor International, 2016 год), своих чайных плантаций в стране нет, из-за климата культивация невозможна. Основными поставщиками продукции являются Шри-Ланка, Китай, Англия, Грузия, Иран, а крупные чаеразвесочные фабрики расположены в Ташкенте и Самарканде. Об узбекских традициях чаепития мы беседуем с Ташкент Хуршидом, узбекским тревел-блогером, радио- и тележурналистом канала Dunyo Boylab («Вокруг света») с более чем 22-летним опытом. Хуршид – большой специалист и знаток чая: может по первому глотку и цвету определить, насколько качественный перед ним напиток.

Ташкент Хуршид
Тревел-блогер, тележурналист

Toshkent Xurshid
Trevel bloger, telejurnalist

O'zbekiston qahvaga nisbatan choyni afzal ko'radigan mamlakatlar ro'yxatida birinchi o'rinda tursa-da (Euromonitor International, 2016-yil ma'lumotlari), mamlakat hududida o'z choy plantatsiyalari mavjud emas. Iqlim sharoitlari tufayli bu o'simlikni yetishtirish imkoniyati yo'q. Asosiy yetkazib beruvchilar Shri-Lanka, Xitoy, Angliya, Gruziya va Eron hisoblanadi, yirik choy qadoqlash korxonalari esa Toshkent va Samarqandda joylashgan. O'zbek choyxo'rlik an'analari haqida 22 yildan ortiq tajribaga ega o'zbek trevel blogeri, Dunyo Bo'ylab kanali radio va telejurnalisti Toshkent Xurshid bilan suhbatlashamiz. Xurshid — choy bo'yicha katta mutaxassis va uning shinavandasi: birinchi qultum va rangiga qarab ichimlikning naqadar sifatli ekanini aniqlay oladi.

— В силу климатических особенностей в Узбекистане предпочитают зелёный чай: он тонизирует и одновременно придаёт свежести и бодрости, что актуально в летнюю жару. Чёрный тоже пьют, но чаще в столице, здесь попрохладнее: если вы закажете в заведении чай, то скорее всего вам принесут чайник чёрного чая с лимоном и сахаром, которые делают вкус более насыщенным. В последние годы я наблюдаю, как растёт спрос на китайский улун, чай порох и крупнолистовой, который по мере насыщения украшает чайник большим раскрывающимся цветком.

Чай у нас пьют с самого утра – это непременный атрибут завтрака, обеда, ужина жителя страны – и еще несколько раз в течение дня, особенно летом. Посуда для чаепития имеет огромное значение – лучше, если это керамический чайник, иногда глиняный, округлой формы. Чайник ополаскивают кипятком, засыпают заварку – обычно две порции, чтобы напиток получился янтарным и ароматным. Пока идёт процесс заваривания, особо нетерпеливые проделывают следующую процедуру: несколько раз наливают напиток в пиалу и сливают обратно. Так и проходят 5–10 минут, необходимых для настаивания. А что касается традиции подливать кипятка в чайник, мы никогда так не делаем: допиваем чай, выбрасываем заварку и снова завариваем свежий. При разбавлении чая кипятком повторно теряются «правильный» вкус и полезные свойства.

Теперь про добавки в чай: приветствуются лимон, особенно зимой в чайханах, молоко – редко, это скорее не наша традиция. В горах Узбекистана растёт много трав, их собирают, сушат и делают травяные сборы. Чаще всего используется «олень-трава» (зизифора), по вкусу напоминающая мяту. Чаепитие сопровождают подачей сладостей, орешков, сухофруктов или выпечки, но я сам всё это не люблю. Предпочитаю горький шоколад с апельсиновой цедрой и горячий зелёный чай – идеальное сочетание, обязательно попробуйте!

— Mamlakatimiz iqlimining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, O'zbekistonda ko'k choy afzal ko'riladi: u yozgi jaziramada kishini tetiklashtiradi. Qora choy ham ichiladi, lekin u ko'proq havosi salqinroq bo'lgan poytaxtda iste'mol qilinadi: agar biror muassasada choy buyurtma qilsangiz, sizga ta'mni yanada to'yintiradigan limon va shakar solingan bir choynak qora choy keltirishlari ehtimoldan holi emas. So'nggi yillarda Xitoy uluni, porox choyi va dam yegani sari choynak ichini katta bo'lib ochiladigan gul bilan bezaydigan yirik bargli choylarga bo'lgan talab ortib borayotganini kuzatayapman. Choy bizda tong sahardan ichiladi — bu mamlakat aholisining nonushtasi, tushligi, kechki ovqatining ajralmas qismi bo'lib, u kun davomida, ayniqsa yozda, yana bir necha marta ichiladi. Choyxo'rlik uchun idish juda muhim ahamiyatga ega — buning uchun yumaloq shakldagi sopol yoki loydan yasalgan choynak bo'lgani ma'qul. Dastlab choynak qaynoq suv bilan chayiladi, so'ngra odatda ichimlik qahrabo rangli va xushbo'y bo'lishi uchun ikki hissa choy solinadi. Damlanish jarayonida juda sabrsiz kishilar quyidagi amalni bajaradi: bir necha bor ichimlikni piyolaga quyib, yana qaytarib choynakka quyadi. Shu tariqa choyning damlanishi uchun zarur bo'lgan 5-10 daqiqa o'tadi. Choynakka qaynoq suv qo'shish odatiga keladigan bo'lsak, biz hech qachon bunday qilmaymiz: choyni oxirigacha ichib, qolgan choyni to'kib tashlaymiz va yangisini damlaymiz. Choy qaynoq suv bilan suyultirilganda uning "to'g'ri" ta'mi va foydali xususiyatlari yo'qoladi.

Endi choy qo'shimchalari haqida: limon qo'shish ma'qul ko'riladi, ayniqsa qishda choyxonalarda, sut esa kamdan-kam hollarda qo'shiladi, bu bizning an'analarimizga uncha xos emas. O'zbekiston tog'larida ko'plab o'tlar o'sadi, ularni terib, quritib, o'tli aralashmalar tayyorlashadi. Ko'pincha ta'mi yalpizga o'xshash "kiyik o't" ishlatiladi. Choyxo'rlik uchun dasturxonga shirinlik, yong'oq, quritilgan meva yoki pishiriqlar tortiladi, lekin shaxsan men bularning barchasini yoqtirmayman va qora, iloji bo'lsa achchiq shokoladni ma'qul ko'raman. Eng yaxshi uyg'unlik — apelsin po'stlog'i qo'shilgan qora shokolad va issiq ko'k choy — buni albatta tatib ko'ring!

— Хуршид, расскажите, пожалуйста, про культуру традиционной узбекской чайханы.

— Словом «чайхана» у нас обозначают место, где чай второстепенен. На самом деле там раз в неделю или месяц обязательно собираются близкие друзья или родственники, несмотря на свою занятость и дела. Заказывается плов, и пока его несут, собравшиеся пьют чай. Завершает трапезу тоже чай, вообще, чай и плов – это как поженившиеся влюблённые – лучше сочетания нет! Чай помогает жирам раствориться, а пище – быстрее усвоиться.

Есть одна традиция, которая уходит своими корнями в прошлое. Наши старики выкладывали плов в большие ляганы – керамические, почти плоские блюда, а когда пища съедалась и оставалось небольшое количество масла, туда наливали горячий зелёный чай, и эту смесь выпивал самый уважаемый человек за столом. С медицинской точки зрения вряд ли это можно назвать чем-то полезным, но такова была традиция, в некоторых регионах она существует до сих пор, так же как и поедание плова руками.

— Очень интересно. А какие ещё чайные традиции Узбекистана вам известны?

— Есть традиции, связанные со свадьбой. Перед торжеством у нас всегда делают утренний плов, который традиционно сопровождается чаепитием как в начале трапезы, так и в завершении. А когда невеста, точнее уже законная жена, попадает в дом мужа, домочадцы около месяца пьют чай из её рук. Она подаёт его в пиале особым способом, держа двумя пальцами за донышко.

Вторая традиция заключается в том, что чай у нас подаётся гостям всегда. То есть, если в некоторых регионах – это кофе, то у нас только зелёный чай в больших количествах. Сначала приносят пиалу чая, а потом – всё остальное: сладости, еду и так далее. Понятия «гостеприимство» и «чаепитие» для нас просто неразделимы.

— Xurshid, an'anaviy o'zbek choyxonasi madaniyati haqida gapirib bersangiz.

– Bizda "choyxona" so'zi aslida choy ikkinchi darajali bo'lgan joyni anglatadi. Aslida, u yerda yaqin do'stlar yoki qarindoshlar qanchalik band bo'lishiga qaramay, haftasiga yoki oyiga bir marta albatta to'planishadi. Palov buyurtma qilinadi va u keltirilgunicha choy ichiladi. Taom ham choy bilan yakunlanadi. Umuman olganda, choy va palov – bu xuddi turmush qurgan sevishganlar kabi – bundan yaxshiroq uyg'unlik yo'q! Choy yog'larning erishi, ovqatning tezroq hazm bo'lishiga yordam beradi.

O'tmishga borib taqaladigan yana bir odat bor. Bobokalonlarimiz deyarli yassi bo'lgan katta sopol laganlarda palov yegan va lagan bo'shab, tagida ozgina yog' qolganida, unga issiq ko'k choy quyilgan va bu aralashmani dasturxon atrofidagi eng hurmatli odam ichgan. Tibbiyot nuqtai nazaridan, buni foydali deb bo'lmasa-da, an'ana shunday bo'lgan va ba'zi hududlarda bu xuddi palovni qo'l bilan yeyish odati kabi hozir ham saqlanib qolgan.

— O'zbekistondagi choy bilan bog'liq an'analar haqida eshitish juda qiziqarli ekan! Yana qanday odatlar bor?

– To'y bilan bog'liq urf-odatlar mavjud. Bizda doim to'ydan oldin ertalabki palov tayyorlanadi va odatda ziyofat boshida ham, oxirida ham dasturxonga ko'k choy tortiladi. Kelin, aniqrog'i endi rasmiy rafiqaga aylangan qiz turmush o'rtog'ining uyiga kelgach, uy ahli taxminan bir oy davomida uning qo'lidan choy ichadi. U piyoladagi choyni o'ziga xos tarzda, ikki barmog'i bilan piyola tubidan ushlab uzatadi.

Ikkinchi an'anamiz: bizda doimo mehmonga choy uzatiladi. Ya'ni, ba'zi hududlarda qahva berilsa, bizda faqat ko'p miqdorda ko'k choy tortiladi. Avval kichik piyolalarda choy, keyin dasturxonga qolgan hamma narsa – shirinliklar, taomlar tortiladi va h.k. "Mehmondo'stlik" va "choy ichish" tushunchalari biz uchun chambarchas bog'liq.

— Я слышала за узбекским столом выражение «Вам с уважением чай налить?». Что это означает?

— У нас не принято наливать полную пиалу, потому что таким образом наливающий как бы даёт понять, чтобы больше к нему не обращались с просьбой. Когда напиток плещется только на донышке, вы успеваете сделать несколько глотков, пока он не остыл, и потом снова протягиваете пиалу хозяину, чтобы вам налили очередную маленькую порцию, которая также не успеет охладиться: так вы пьете чай в его максимальной концентрации.

— Вы так вкусно рассказываете! Уже пора поделиться, где гостям солнечного Узбекистана покупать чай и попробовать самую вкусную подачу в Ташкенте?

— За вкусным чаем идите в специализированные магазины или на рынок, где его продают как на развес, так и упакованный. Скорее всего, при покупке продавец поинтересуется, какое у вас давление – высокое или низкое, потому что зелёный чай на это влияет. Самый распространённый по употреблению сорт в Узбекистане – это «Зелёный чай № 95» – нумерация сложилась ещё во времена СССР и происходила от сырья низшего качества, обозначаемого 10-й, к высшему, 125-му.

Если вы прилетели в Ташкент, обязательно загляните в арт-галерею Human House к её руководителю Лоле Сайфи, там невероятно вкусный чай! Во-первых, радует сама подача, при которой используется глиняная или керамическая посуда с национальными узорами, поскольку Human House – это точка ремесленничества. Во-вторых, чай там будет с ароматным набором горных трав или «олень-травой», про которую я уже говорил.

— Насколько я знаю, вы пробуете чай во всех странах, где бываете. Какое чаепитие стало самым запоминающимся?

— Наверное, самое сильное воспоминание оставило чаепитие в монастыре Шаолинь высоко в горах, в двух часах езды от Сеула (Республика Корея), где нас угостили просто невероятным напитком с травами.

А самым большим разочарованием стала первая поездка в Лондон, где я прожил четыре года. Наивно полагая, что еду в страну, где свято чтут традицию «five o'clock tea», я ошибся, потому что при всем разнообразии в супермаркетах англичане почти не пьют свежезаваренный чай, а употребляют газированные напитки со льдом или кофе. Но для себя я находил вкусные чаи и обязательно пробовал. Теперь предвкушаю поездку в китайский Гуанчжоу в начале февраля, где планирую познакомиться с местными традициями, ведь чем больше ритуалов, тем больше удовольствия от употребления чая.

— O'zbeklarda dasturxon atrofida "Sizga hurmat bilan choy quyaymi?" degan iborani eshitganman. Buning ma'nosi nima?

– Bizda piyolaga choy to'ldirib quyilmaydi, chunki bunday harakati bilan choy quyayotgan kishi go'yo "boshqa murojaat qilmang" ma'nosida ishora qilgandek bo'ladi. Ichimlik faqat piyola tubidagina bo'lganida, uni sovib qolmasidan bir necha qultumda ichishga ulgurasiz va piyolani yana mezbonga uzatasiz. Shunda sizga yana bir kichik porsiya quyiladi va u ham sovishga ulgurmaydi: shu tariqa choyning asl ta'mini his qilib ichasiz.

— Juda yaxshi hikoya qilayapsiz-da! Serquyosh O'zbekiston mehmonlari choyni qayerdan sotib olishlari va eng mazali damlanadigan choyni Toshkentning qayerida tatib ko'rish mumkinligini aytish vaqti keldi.

– Mazali choy sotib olish uchun maxsus do'konlarga yoki choy ham qadoqlanmagan, ham qadoqlangan holda sotiladigan bozorga boring. Ehtimol, xarid paytida sotuvchi qon bosimingiz yuqori yoki pastligini so'rashi mumkin, chunki ko'k choy bunga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda ko'proq "95 ko'k choy" navi iste'mol qilinadi. Bu raqamlash tizimi SSSR davrida shakllanib, 10-raqamli eng past sifatli xom ashyodan boshlanib, 125-raqamli eng yuqori sifatli xom ashyogacha bo'lgan navni bildiradi.

Agar siz Toshkentga uchib kelgan bo'lsangiz, albatta Human House san'at galereyasiga tashrif buyuring va uning rahbari Lola Sayfi bilan uchrashing. U yerda ajoyib lazzatli choy bor! Birinchidan, xizmat ko'rsatish usuli kishini quvontiradi: milliy naqshlar bilan bezatilgan sopol yoki keramik idishlardan foydalaniladi, chunki Human House hunarmandchilik markazidir. Ikkinchidan, u yerda choy xushbo'y tog' giyohlari aralashmasi yoki men yuqorida tilga olgan "kiyik o'ti" bilan bo'ladi.

— Bilishimcha, tashrif buyurgan barcha mamlakatlaringizda choyni tatib ko'rasiz. Qaysi choyxo'rlik eng esda qolarlisi bo'lgan?

– Seuldan (Janubiy Koreya) 2 soatlik yo'l uzoqligidagi baland tog'da joylashgan Shao Lin monastiridagi choyxo'rlik, ehtimol, eng kuchli xotira bo'lib qoldi, u yerda bizni o'tlar qo'shilgan ajoyib ichimlik bilan mehmon qilishgandi.

Eng hafsalam pir bo'lgani Londonga birinchi safar borib, u yerda to'rt yil yashaganimda bo'lgandi. Soddalik qilib, barcha inglizlar uchun muqaddas bo'lgan "five o'clock tea" an'anasi hukm suradigan mamlakatga borayotganimni o'ylagandim. Afsuski, yanglishgan ekanman, chunki supermarketlardagi xilma-xillikka qaramay, inglizlarning o'zlari deyarli yangi damlangan choy ichishmaydi, aksincha muzli gazlangan ichimlik yoki qahva iste'mol qilishadi. Ammo, o'zim uchun lazzatli choylarni topib, albatta tatib ko'rardim. Endi fevral oyi boshida Xitoyning Guanchjou shahriga sayohat qilib, mahalliy an'analar bilan tanishishni intizorlik bilan kutayapman. Chunki choyxo'rlikdagi marosimlar qanchalik ko'p bo'lsa, choy ichish shunchalik zavqli bo'ladi.

В Ташкенте в мае 2025 года уже в четвёртый раз пройдёт международный фестиваль Coffee&Tea Fest Uzbekistan. Фестиваль посвящен развитию кофейной и чайной индустрии, а также возрождению и развитию национальных традиций узбекского чаепития.

2025-yilning may oyida Toshkentda to'rtinchi bor Coffee&Tea Fest Uzbekistan 2025 xalqaro festivali o'tkaziladi. Mazkur festival qahva va choy sanoatini rivojlantirish hamda choyga oid o'zbek milliy an'analarini qayta tiklash va yanada rivojlantirishga bag'ishlangan.

ЧАШКА ВТОРАЯ. ЧАЙНАЯ ЦЕРЕМОНИЯ – ЭТО КУЛЬТУРНАЯ ТРАДИЦИЯ КИТАЯ, ИМЕЮЩАЯ МНОГОВЕКОВУЮ ИСТОРИЮ

IKKINCHI PIYOLA. CHOY MAROSIMI – XITOYNING KO'P ASRLIK TARIXGA EGA BO'LGAN MADANIY AN'ANASI

— Мой родной город Сишуанбаньна в провинции Юньнань (Китай) расположен недалеко от всемирно известных плантаций чайного дерева пуэр. И, естественно, это мой любимый зелёный чай – с уникальным ароматом, насыщенным и освежающим вкусом, лёгкой сладостью, которая бодрит. Я с детства была окружена чайной культурой, в Сишуанбаньна часто проводят обучение мастеров, и я тоже училась, поэтому владею искусством чайных церемоний. Когда приехала в Ташкент, захотелось поделиться с узбекистанцами хорошим пуэром из моего родного города, и я решила открыть здесь магазин.

Джоу Джоу

Владелица ташкентского магазина Dragon Tea

Jou Jou

Toshkentdagi "Dragon tea" do'koni sohibasi

В Китае проводится множество чайных мероприятий – фестивалей, дегустаций и музыкальных чаепитий. В моём родном городе популярен праздник Чайной битвы. Фермеры демонстрируют свои умения, мы пробуем чайные пироги, наслаждаемся разными сортами напитка, смотрим выступления представителей этнических групп и просто отдыхаем. Поясню: чайные пироги – это спрессованные в лепёшку чайные листья.. Во время чаепития от них можно отламывать кусочки, измельчать и заваривать, также по желанию добавлять лук, имбирь, апельсин и другое.

— Джоу Джоу, а как сейчас пьют чай в Китае? Хватает ли на это время, ведь темп жизни так ускорился во всем мире?

— Чайная церемония – это культурная традиция Китая, имеющая многовековую историю, она берёт своё начало в эпоху династии Тан (VII–IX века). В среднем мои соотечественники участвуют в церемониях два раза в неделю и проводят свободное время после обеда, наслаждаясь этим напитком, ароматами благовоний и спокойной медитативной музыкой в специальных комнатах или домах. Ритуал может видоизменяться в зависимости от региона и участников церемонии, например, для родственников или друзей будут различия.

Церемонию проводит чайный мастер, часто он облачён в традиционную одежду ханьфу. На подготовительном этапе выбирают чай, готовят воду (предпочтительнее родниковая) и посуду. Самый популярный чай в моей стране – с Западного озера Лунцзин (Longjing), но для церемоний используют торжественные сорта. На этапе подачи чай заваривают так, чтобы он раскрыл весь свой вкус и аромат. Во время дегустации чайный мастер демонстрирует искусство чаепития и предлагает гостям попробовать приготовленный напиток. В этот момент гости и мастер наслаждаются напитком вместе.

– Xitoyning Yunnan muzofotidagi ona shahrim Sishuanbanna dunyoga mashhur puer choy daraxti plantatsiyalari yaqinida joylashgan. Tabiiyki, bu andak shirin va juda yoqimli, o'ziga xos xushbo'y, to'yingan, tetiklantiruvchi ta'mli choy mening sevimli ko'k choyim! Bolaligimdan choy madaniyati ichida ulg'ayganman, Sishuanbannada tez-tez choy ustalari o'qitiladi, men ham ta'lim olganman va shu sababli choy marosimlari san'atini egallaganman. Toshkentga kelgach, o'zbekistonliklarga ona shahrimdan keltirilgan sifatli puerni taqdim etishni istadim va shu yerda do'kon ochishga qaror qildim.

Xitoyda ko'plab choy tadbirlari – festival, degustatsiya va musiqiy choy marosimlari o'tkaziladi. Ona shahrimda Choy jangi bayrami mashhur. Unda fermerlar o'z mahoratlarini namoyish etadi, biz choy piroglarini tatib ko'ramiz, ichimlikning turli navlaridan zavq olamiz, etnik guruhlar vakillarining chiqishlarini tomosha qilamiz va shunchaki hordiq chiqaramiz. Tushuntirish berib o'taman, choy pirogi bu – yassi shaklga keltirib presslangan choy barglari. Choyxo'rlik paytida ulardan bo'lakcha sindirib olib, maydalab, damlab ichsa bo'ladi. Xohishga ko'ra piyoz, zanjabil, apelsin va boshqa qo'shimchalarni ham qo'shish mumkin.

— Jou Jou, hozirgi kunda Xitoyda choy qanday ichiladi? Butun dunyoda hayot sur'ati juda tezlashib ketdi, bunga vaqt topilayaptimi?

– Choy marosimi – Xitoyning ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan madaniy an'anasi, u Tan sulolasi davridan (VII–IX asrlar) boshlanadi. Odatda vatandoshlarim haftada ikki marta bunday marosimlarda qatnashib, tushlikdan keyingi bo'sh vaqtlarini maxsus xonalarda yoki uylarida choy, xushbo'y iforlar va sokin, meditativ musiqadan zavq olib o'tkazishadi. Marosim o'tkazilayotgan hudud va ishtirokchilarga qarab o'zgarishi mumkin. Masalan, qarindoshlar yoki do'stlar uchun o'tkaziladigan marosimlar bir-biridan farq qiladi.

Marosimni ko'pincha an'anaviy libos – xanfu kiygan choy ustasi o'tkazadi. Tayyorgarlik bosqichida choy tanlanadi, suv (imkon bo'lsa buloq suvi ma'qul ko'riladi) va idishlar hozirlanadi. Vatanimdagi eng mashhur choy – G'arbiy Longjing ko'lidan olingan choy, biroq tantanali marosimlar uchun maxsus navlar tanlanadi. Choy damlanayotganda uning barcha ta'mi va xushbo'yligi to'liq namoyon bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Degustatsiya paytida choy ustasi choy ichish san'atini namoyish etadi va mehmonlarga tayyorlangan ichimlikni tatib ko'rishni taklif qiladi. Shu lahzada mehmonlar va usta birgalikda ichimlikdan bahramand bo'lishadi.

В повседневной жизни в доме может быть чайная комната, где пьют напиток два раза в день, используя специальные чайники. В Северном Китае чаепитию уделяют меньше внимания, и его пьют в основном для утоления жажды. Например, в провинции Шаньдун чай заваривают в большом чайнике и пьют охлажденным, делая несколько больших глотков. В Южном Китае культура чайной церемонии развита сильнее, и для чаепития используют специальные чайные наборы, включая фарфоровые чашки и чайники.

— А как пьют чай в Гуанчжоу? Именно с этим городом Ташкент связывают рейсы нашей авиакомпании.

— В Гуанчжоу особенно развита культура утреннего чая, которая стала неотъемлемой частью жизни. Утренний чай – это не просто завтрак, но и способ общения. Как и узбекистанцы, жители Гуанчжоу любят проводить время в чайханах, где едят разные вкусности, общаются и наслаждаются обществом друг друга.

Добро пожаловать в мой магазин, где вы найдёте различные сорта пуэра, улуна, ароматических чаёв и прикоснётесь к культуре китайского чаепития!

Kundalik hayotda uyda maxsus choynaklardan kuniga ikki marta choy ichiladigan choy xonasi bo'lishi mumkin. Shimoliy Xitoyda choy marosimlariga kamroq e'tibor beriladi va u asosan chanqoqni qondirish uchun iste'mol qilinadi. Masalan, Shandun muzofotida choy katta choynakda damlanadi va sovitilgan holda bir necha bor katta-katta ho'plab ichiladi. Janubiy Xitoyda choy marosimi madaniyati kuchliroq rivojlangan bo'lib, choy ichish uchun chinni finjon va choynaklar kabi maxsus choy anjomlari ishlatiladi.

— Guanchjouda choy qanday ichiladi – aviakompaniyamiz reyslari Toshkentni aynan shu shahar bilan bog'laydi?

– Guanchjouda ayniqsa ertalabki choy madaniyati rivojlangan bo'lib, bu hayotning ajralmas qismiga aylangan. Ertalabki choy nafaqat nonushta, balki muloqot usuli hamdir. Guanchjouliklar ham o'zbekistonliklar singari choyni choyxonalarda ichishni yoqtirishadi, u yerda gazaklardan tanovvul qilib, bir-birlari bilan muloqot qilishadi va muloqotdan bahramand bo'lishadi.

Turli navdagi puer, ulun, xushbo'y choylarni topishingiz va xitoy choy madaniyatini his qilishingiz mumkin bo'lgan do'konimga marhamat!

ЧАШКА ТРЕТЬЯ. КИТАЙСКАЯ ИСТОРИЯ ГРУЗИНСКОГО ЧАЯ

UCHINCHI PIYOLA. GRUZIN CHOYINING XITOYCHA TARIXI

Эка (Екатерина) Апциаури, жительница Тбилиси в нескольких поколениях, медик, супруга грузинского дипломата. И даже к авиации Эка имеет отношение – её старший сын Игорь работал в Государственном департаменте гражданской авиации Грузии и ведущих международных авиакомпаниях.

— Одна из важных вех в истории грузинского чая – 1847 год, когда граф Михаил Воронцов стал инициатором ввоза его из Китая как альтернативы вина для солдат – напиток бодрил, но не опьянял, и это называлось тогда «солдатским чаем». Впоследствии выпускался чай с этой датой на упаковке, что отражает важность события.

Эка Апциаури

Жительница Тбилиси в нескольких поколениях

Eka Aptsiauri

Bir necha avlodlar dan beri Tbilisida yashovchi aholi vakili

Eka (Yekaterina) Apsiauri – bir necha avlodi Tbilisida istiqomat qilgan, tibbiyot xodimi, gruzin diplomati va elchisining rafiqasi. Ekaning hatto aviatsiyaga ham aloqasi bor – uning to'ng'ich o'g'li Igor Gruziya fuqaro aviatsiyasi davlat departamenti va yetakchi xalqaro aviakompaniyalarda faoliyat yuritgan.

— Gruzin choyi tarixidagi muhim sanalardan biri 1847-yil bo'lib, o'sha yili graf Mixail Voronsov askarlar uchun vino o'rniga Xitoydan choy olib kelish tashabbusi bilan chiqqan. Bu ichimlik askarlarni tetiklashtirar va mast qilmasdi, shu bois u "askar choyi" deb nom olgan. Keyinchalik qadog'ida ushbu sana aks ettirilgan choy ishlab chiqarilgan, bu esa voqeaning naqadar muhimligini ko'rsatadi.

Gruziyada choy plantatsiyalari savdogar Konstantin Popov tufayli paydo bo'lgan. U boshqalar kabi choyni import qilish bilan cheklanib qolmagan va 1893-yilda xitoylik usta Lyu Junchjouni (Gruziyada u Lau Jon Dau nomi bilan tanilgan) taklif etgan. Usta dastlabki tajribalarini o'tkazib, Ozurget (Guriya), Suxumi botanika bog'i (hozirgi Abxaziya) va Zugdidi botanika bog'ida (Megreliya) choy butalarini ekkan. Ma'lum bo'lishicha, Gruziya iqlimi choy yetishtirish uchun juda mos bo'lib, yuqori sifatli, "toza", qo'shimcha kimyoviy ishlovlarsiz yetishtirilgan choy olish

Появлением чайных плантаций Грузия обязана купцу Константину Попову, который стал не просто завозить чай, что делали и до него, а в 1893 году пригласил китайского мастера Лю Цзюньчжоу (в Грузии он известен как Лау Джон Дау). Тот провёл первые эксперименты и высадил чайные кусты в Озургети (Гурия), Ботаническом саду Сухуми (нынешняя Абхазия) и в Ботаническом саду Зугдиди (Мегрелии). Оказалось, что климат Грузии очень подходит для выращивания культуры, чай получали высокого качества, «чистый», без дополнительных обработок химикатами, была возможность собирать три верхних листочка, что считается самым ценным. Впоследствии Попов с помощью Лау Джон Дау развивает чайные плантации в местечке Чакви, это Аджария, да так успешно, что уже в 1900 году на Всемирной промышленной выставке в Париже их чай получает «золото»! Кстати, в Чакви плантации потом зачахли в силу разных обстоятельств, а в Гурии посадки по сей день приносят урожай высокого качества, который пользуется спросом не только внутри страны.

Позднее наш китайский герой выстраивает в Чакви дом и продолжает деятельность даже после Октябрьской революции 1917 года. По некоторым сведениям, его праправнук живет в Грузии и по сей день. Дом Лау Джон Дау, долгое время заброшенный, насколько я знаю, не так давно восстановили и планируют открыть музей, куда также перевезут экспонаты из батумского дома-музея Нобеля.

В центре Тбилиси сейчас работает Дом-музей грузинского чая, открытый по инициативе Шота Битадзе, президента Ассоциации производителей органического чая Грузии. Там можно познакомиться с историей чаеводства, взглянуть на исторические артефакты и купить высококачественные сорта.

— Какой чай принято пить в Грузии сейчас?

— Традиционно жители Грузии, конечно, тяготеют к чёрному чаю, любят пить его с разными добавками – фруктами, шалфеем, шафраном. Хотя молодежь стала пить и зелёный чай – к нам поступает продукт высокого качества благодаря возобновившемуся сотрудничеству с Китаем. Вообще, замечаю, что сейчас все больше людей предпочитают вести здоровый образ жизни, придерживаются сбалансированного питания, уже нет таких пиршеств, как раньше, с перееданием и чрезмерным употреблением алкоголя.

— А как проходят тбилисские чаепития?

— Может быть несколько вариантов чаепития и по разным поводам – нечаянно нагрянувшие гости, приглашение на чай к определённому времени, чаепитие, больше напоминающее салонный приём под аккомпанемент гитары или пианино, или как сопровождение игр, например, в карты или лото. Расскажу подробнее о каждом.

va eng qimmatli hisoblangan uchta yuqori bargini terib olishga imkon bergan. Keyinchalik Popov Lau Jon Dau yordamida Chakvi, ya'ni Ajariyada choy plantatsiyalarini rivojlantirib, shu qadar muvaffaqiyatga erishganki, 1900-yilda ularning choyi Parijdagi Butunjahon sanoat ko'rgazmasida "oltin" ni qo'lga kiritgan! Aytgancha, keyinchalik Chakvidagi plantatsiyalar turli sabablarga ko'ra qurib qolgan bo'lsa-da, Guriyadagi ekinlar bugungi kungacha nafaqat mamlakat ichida, balki tashqarisida ham talab katta bo'lgan yuqori sifatli hosil bermoqda.

Keyinchalik xitoylik qahramonimiz Chakvida uy qurib, hatto 1917-yildagi Oktyabr inqilobidan keyin ham faoliyatini davom ettirgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, uning evarasi hozir ham Gruziyada yashaydi! Bilishimcha, Lou Jon Dauning uzoq vaqtdan beri qarovsiz qolgan uyi yaqinda qayta tiklangan va muzey ochish rejalashtirilgan hamda u yerga ham Batumidagi Nobel uy-muzeyidan eksponatlar olib kelinadi.

Hozir Tbilisi markazida Gruziya organik choy ishlab chiqaruvchilar uyushmasi prezidenti Shota Bitadze tashabbusi bilan ochilgan Gruzin choyi uy-muzeyi faoliyat yuritmoqda. U yerda choy yetishtirish tarixi bilan tanishish, tarixiy buyumlarni tomosha qilish va yuqori sifatli choy navlarini xarid qilish mumkin.

В Грузии двери дома всегда открыты, гость считается посланцем от Бога и отказывать ему – нонсенс и моветон. Минимум, когда приходит гость, – это накрыть чай в главной комнате. Чай подаётся в посуде из тонкого-тонкого фарфора, лимон – на хрустальном блюдце с позолоченной вилочкой, обязательно – сахар, сейчас он может быть тростниковым, а тогда – рафинад или «шакаркинули» («ледовый сахар»), который заранее ломался щипчиками. Обязательно у каждой грузинской хозяйки должно быть домашнее варенье, традиционными считаются арбузное, ореховое, мандариновое, из райских яблочек, и конечно, абрикосовое с орехом внутри. Варенья подаются в варенницах – миниатюрных вазах на высокой ножке.

Добрались и до моей любимой части – чаепития наших бабушек, как это было принято в Тбилиси. Это самые тёплые воспоминания из детства и юности, когда приходили наряженные бабушки-подружки в туфлях на маленьких каблучках, с ридикюлями, в шляпках и вели светские разговоры. Чаепитие могло быть отдельным мероприятием, а не продолжением застолья, и сопровождаться вокалом или музыкой. На всё Тбилиси были знамениты сестры Ишхнели, которые потрясающе пели и устраивали популярные салонные вечера. Сейчас происходит примерно так же.

Если собирается дамское общество, то на столе будет сервиз из тонкого фарфора, а наши мужчины обычно пьют чай из стаканов с подстаканниками, причём они могут быть весьма ценными. Также из напитков популярны компоты, любимый всеми – из персиков, и ликёры, особенно славится «вишнёвка». Столы накрывают «чем Бог послал»: лимончик, мёд, орехи, сухофрукты, фрукты – например, инжир в сезон, хачапури (как же без него?).

— Ayni kunda Gruziyada qanday choy ichiladi?

— An'anaga ko'ra, Gruziya aholisi, albatta, qora choyni, uni turli qo'shimchalar – mevalar, mavrak, za'faron bilan ichishni xush ko'rishadi. Hozir yoshlar ko'k choy ichishni boshlagan – xitoy bilan qayta tiklangan hamkorlik tufayli bizga yuqori sifatli mahsulot yetkazib berilyapti. Umuman olganda, hozir sog'lom turmush tarzi, muvozanatli ovqatlanishga ko'proq e'tibor qaratilayotganini kuzatyapman, ortiqcha ovqatlanish va spirtli ichimliklarni haddan tashqari ko'p iste'mol qilish bilan bog'liq avvalgidek ziyofatlar barham topdi.

— Tbilisidagi choyxo'rlik qanday kechadi?

— Choyxo'rlikning bir nechta variantlari – tasodifan tashrif buyurgan mehmonlar, ma'lum bir vaqtga choyga taklif qilish, ko'proq gitara yoki pianino jo'rligidagi ziyofatga o'xshash, yohud karta yoki loto kabi o'yinlar sabab choyga taklif qilish singari turli sabablari bo'lishi mumkin. Har biri haqida batafsil so'zlab beraman.

Gruziyada uy eshiklari doimo ochiq, mehmon Xudoning elchisi hisoblanadi va uni qabul qilmaslik – g'ayritabiiy va noto'g'ri ish. Mehmon kelganda kamida mehmonxonada unga choy taklif qilish lozim. Choy juda yupqa chinnidan yasalgan idishda, limon – tilla suvi yugurtirilgan sanchqi qo'yilgan billur likopchada va albatta shakar bilan tortiladi. Hozir bu shakarqamish qand bo'lishi mumkin, lekin avvallari oldindan qisqichlar bilan maydalangan rafinad yoki "shakarkinuli" ("muzqand") bo'lgan. Har bir gruzin uy bekasining qo'lbola murabbosi bo'lishi shart – odatda, bu tarvuzli, yong'oqli, mandarinli, jannat olmasili va, albatta, ichiga danak ham qo'shilgan o'rik murabbo. Murabbolar baland oyoqchali mayda vazalarda beriladi.

Mana, men uchun sevimli va Tbilisida udum bo'lgan buvilarimiz choyxo'rligiga ham yetib keldik. Bu bolalik va yoshligimdagi kichkina poshnali tuflichalarda, ridikyullar bilan, shlyapalarda yasangan dugona buvilar kelib, oqsuyaklarcha suhbatlashadigan eng iliq xotiralar. Choyxo'rlik ziyofatning davomi emas, balki alohida tadbir sifatida va vokal yoki musiqa jo'rligida bo'lishi mumkin edi. Ajoyib tarzda qo'shiq kuylaydigan va mashhur salon kechalarini uyushtiradigan opa-singil Ishxnelilar butun Tbilisiga dong taratgan edi. Hozir ham deyarli shunday bo'lyapti.

Agar ayollar davrasi to'plansa, stolda yupqa chinni serviz bo'ladi, erkaklarimiz esa odatda choyni stakandondagi stakanlardan ichadi, boz ustiga ular juda qimmat bo'lishi mumkin. Ichimliklardan yana hamma yaxshi ko'radigan shaftoli kompoti va likyorlar – ayniqsa, "vishnyovka" mashhur. Dasturxonga "Xudo bergan narsalar": limon, asal, yong'oq, quritilgan mevalar, mevalar – masalan, mavsum paytida anjir, xachapuri (usiz tadbir o'tarmidi), ko'pincha pishirilgan qovoq yoki asal va mayiz qo'shib tayyorlangan shirin non – nazuki, balki unchalik biznikiga o'xshamasa-da, lekin maqbul bo'lgan paxlava, ba'zida xohishga ko'ra pishloq tortiladi.

Часто готовят запечённую тыкву или назуки – это такой сладкий хлеб с мёдом и изюмом, пахлаву – может быть, она не совсем наша, но тоже приемлема, иногда подают сыры – это уж кто что предпочитает. Вы можете видеть также плов, но он у нас не мясной, а с добавлением сухофруктов, тыквы, иногда даже запекается в тыкве – это на усмотрение хозяйки.

Расскажу ещё про сервировку: стол обязательно накрывается скатертью, если мероприятие вечернее, то тёмной бархатной, с бахромой. Раскладываются салфетки, ставятся свечи... Обязательный атрибут чаепития – это абажур над столом вместо люстры, создающий уют.

— Будучи супругой посла и находясь за границей, вы устраивали такие грузинские чаепития?

— Отдельно чаепития не устраивала, но участвовала в организации дипломатических приёмов. Принимали гостей в Нью-Йорке (США), Пекине (Китай), странах Балтии. В основном, конечно, накрывали стол с традиционными грузинскими блюдами, обязательно подавали хачапури – это важная составляющая всего и всегда, даже если стол ломится от яств. Специально из Грузии привозили специи и кукурузную муку, а так – обходились местными продуктами. Мы всегда стремились придать изюминку – немного вина, чурчхелы, варенья.

– Можете порекомендовать гостям страны, где покупать чай и где его попробовать?

— Грузинский чай лучше приобретать на развес, есть много чайных домов. Будучи в Тбилиси, рекомендую посетить сад с сезонными растениями Gardenia Shevarnadze, там проводятся салонные встречи, а в уютном кафе среди цветов выпить чай и насладиться отменной выпечкой. Основатель сада, Зураб Шеварднадзе, родом из Гурии и сам производит чай. Так что смело там покупайте!

Palovni ham ko'rishingiz mumkin, lekin u biznikidek go'shtli emas, quritilgan mevalar, qovoq qo'shiladi, ba'zan u uy bekasining didiga ko'ra hatto qovoqda ham pishiriladi.

Dasturxon tuzash haqida ham aytib beray: albatta dasturxon yoziladi, agar kechki ziyofat bo'lsa, u qora baxmaldan, popukli bo'ladi, salfetka va shamlar qo'yiladi. Choyxo'rlikning muhim atributi – qandil o'rniga stol ustidagi shinamlik yaratuvchi abajur.

— Xorijdagi diplomatik faoliyatingiz davomida gruzincha choyxo'rlik uyushtirganmisiz?

— Alohida choyxo'rlik bo'lmagan, lekin elchining rafiqasi sifatida diplomatik qabullarni tashkil etishda qatnashganman. Nyu-York (AQSH), Pekin (Xitoy), Boltiqbo'yi mamlakatlarida mehmonlarni qabul qilganmiz. Asosan, dasturxonga an'anaviy gruzin taomlari va albatta, har doim hamma narsaning muhim tarkibiy qismi bo'lgan, dasturxon noz-ne'matlardan to'lib-toshsa ham taklif etiladigan – xachapurini tortganmiz. Gruziyadan maxsus ziravorlar va makkajo'xori uni keltirilardi, qolganiga mahalliy mahsulotlardan foydalanardik. Har doim ozroq sharob, ozgina churchxela, murabbo bilan ziyofatga qiziqarli xislat qo'shishga harakat qilardik.

— Mamlakatingiz mehmonlariga choyni qayerdan sotib olish va qayerda tatib ko'rishni tavsiya qila olasizmi?

— Qadoqlanmagan gruzin choyini olgan ma'qul, buning uchun ko'plab choy uylari bor. Tbilisiga borsangiz, Gardenia Shevardnadze mavsumiy o'simliklar bog'iga tashrif buyurishni tavsiya qilaman, u yerda salon uchrashuvlari o'tkaziladi, gullar qurshovidagi shinam qahvaxonada choy ichib, pishiriqlardan bahramand bo'lishingiz mumkin. Bog' asoschisi Zurab Shevardnadze asli guriyalik bo'lib, o'zi ham choy ishlab chiqaradi. Shuning uchun bemalol o'sha joyda xarid qilishingiz mumkin!

Грузия умеет удивлять – здесь можно купить не только чёрные сорта чая, но и весьма необычные: грузинский улун, чай лунцзин из Самегрело или пурпурный чай.

Gruziya hayron qoldirishni biladi – bu yerda nafaqat qora choy navlarini, balki juda g'ayrioddiy choylarni ham sotib olish mumkin: gruzin uluni, Samegrelo Longjing choyi yoki qirmizi choy.

ЧАШКА ЧЕТВЁРТАЯ. РЫНОК ЧАЯ В ГУАНЧЖОУ – ОДИН ИЗ САМЫХ КРУПНЫХ В МИРЕ

TO'RTINCHI PIYOLA. GUANCHJOUDAGI CHOY BOZORI DUNYODAGI ENG YIRIKLARIDAN BIRI HISOBLANADI

— Я начинаю свой день с чашки чая. Дома у меня, конечно же, собрана маленькая коллекция чайников: нефритовый полупрозрачный, медный и традиционный старинный чайник с «хитринкой», это когда в дно чайника наливается вода, а выливается, как обычно, из горлышка. Я пью зелёный чай двух сортов: один из самых известных «Колодец дракона Long Jing» и «Кончик волоса Mao Jian».

— Катя, иногда пишут, что рынок Гуанчжоу чуть ли не самый крупный в мире, это правда?

— Чайный рынок Гуанчжоу – Фанцунь – действительно один из самых крупных в мире. Причём он не единственный, есть ещё один в районе Панью. Этот рынок существует со времён начала торговли, когда Гуанчжоу был Кантоном – единственным портом, открытым для торговли с иностранцами. И, естественно, оттуда вывозили чай.

Екатерина Дорофеева

Искусствовед-востоковед, переводчик китайского языка

Yekaterina Dorofeyeva

San'atshunos-sharqshunos, xitoy tili tarjimoni

– Kunimni bir finjon choy bilan boshlayman. Uyimda albatta choynaklarning kichik to'plami bor: bular yarim shaffof nefritdan yasalgan, misdan ishlangan va suv tubiga quyiladi-yu, odatdagidek, jo'mragidan oqib chiqadigan an'anaviy qadimiy hiylali choynaklar. Men ikki xil navdagi ko'k choy ichaman: bular eng mashhurlaridan biri bo'lgan "Ajdarho Long Jing qudug'i" va "Mao Jian sochi uchi" nomli choylar.

— Katya, ba'zan Guanchjou bozorini deyarli dunyodagi eng yirik bozor deb yozishadi, shu to'g'rimi?

– Guanchjoudagi Fansun choy bozori dunyodagi eng yirik bozorlardan biri sanaladi. Bundan tashqari, u yagona emas – Panyu tumanida yana bittasi joylashgan. Bu bozor savdo-sotiq boshlanganidan beri mavjud bo'lib, Guanchjou Kanton deb atalgan va chet elliklar bilan savdo qilish uchun ochiq yagona port bo'lgan paytlardan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Tabiiyki, xorijga choy aynan shu portdan olib chiqib ketilgan.

Fansun bozoridagi har bir do'konchada sizni iliq kutib olib, choy bilan mehmon qilishadi va albatta xitoycha choy marosimini o'tkazishadi. Har bir choy ustasining o'z xos sevimli choy navlari va qiziqarli fenshuy atributikasi bor. Masalan, deyarli har bir ustaning stolida ustidan birinchi damlama to'kiladigan pul baqasi turadi. Hech bir usta choyning birinchi damlamasini sizga quyib bermaydi, u albatta to'kib tashlanadi. Men bir go'zal marosimni umrbod eslab qoldim. Menga choy damlashning qadimiy usulini ko'rsatishdi: usta imperatorga ikki metrdan yaqin kelishi mumkin bo'lmagani uchun u choyni hukmdorning yelkasi uzra uzun jo'mrakli maxsus choynakdan quygan ekan.

В любом магазинчике на рынке Фанцунь вас радужно встретят, напоят чаем и обязательно проведут китайскую чайную церемонию. У каждого чайного мастера свои любимые сорта чая и интересная фэншуй-атрибутика. Например, у большинства на столе стоит денежная лягушка, которую поливают первой заваркой. Ни один мастер не предложит вам первую заварку чая, её обязательно сливают. Я навсегда запомнила одну красивую церемонию. Мне показали древний способ заваривания чая, когда мастеру нельзя было приближаться к императору ближе чем на два метра, и он наливал чай из специального чайника с длинным носиком через плечо правителя.

На чайном рынке можно найти как самые известные чаи, такие как «Железная богиня Гуанинь», улун, «Колодец дракона», пуэр, Би Ло Чунь, Да Хун Пао, так и местечковые, не самые популярные сорта. В конце апреля – начале мая появляется только собранный, самый свежий чай. Он считается ценным и дорогим, и, конечно же, ароматным. Продают красивые сорта в цветке или маленькой мандаринке – при раскрытии это выглядит эффектно.

Хороший чай не будет стоить дёшево: я бы рассчитывала на сумму не менее 100¥ (около $14) за 500 граммов. Зелёный чай «Колодец дракона» – один из самых дорогих сортов в Китае: однажды я купила себе 100 граммов за 500¥ (примерно $70), это была моя самая дорогая покупка.

Несколько лет назад китайцев часто уличали в обмане иностранцев, благо сделать это легко: цены на рынках не указаны, они озвучиваются по запросу. Поэтому там стоило появляться в компании опытного гида, иначе цены мгновенно взлетали до небес, а чай доставался не самого лучшего качества. Сейчас я такой тенденции не наблюдаю, Китай изменился, но при посещении чайного рынка стоит запомнить некоторые правила: обязательно принюхивайтесь к чаю, который вам заваривают, пейте, громко причмокивая, и торгуйтесь с продавцом!

Choy bozorida "Guanin Temir ma'budasi", ulun, "Ajdaho qudug'i", puer, Bi Lo Chun, Da Xun Pao singari eng mashhur choylar bilan bir qatorda, mahalliy va uncha taniqli bo'lmagan navlarni ham topish mumkin. Aprel oyining oxiri – may oyi boshlarida yangi terilgan, eng yangi choy paydo bo'ladi. Bu choy qimmatli va qadrli hisoblanadi, albatta, xushbo'y ham bo'ladi. Chiroyli navlar gul yoki kichik mandarin ichida sotiladi — ochilganda bu juda manzarali ko'rinadi.

Yaxshi choy arzon bo'lmaydi: 500 gramm uchun kamida 100¥ (≈14$) atrofida to'lashni mo'ljallagan bo'lardim. "Ajdaho qudug'i" ko'k choyi Xitoydagi eng qimmat navlardan biri hisoblanadi: bir safar o'zim uchun 100 gramm choyni 500¥ (taxminan 70$) ga xarid qilgandim, bu mening eng qimmat xaridim bo'lgandi.

Bir necha yil avval xitoyliklar chet elliklarni aldashi tez-tez fosh bo'lardi, Xitoyda buni qilish oson: bozorlarda narxlar ko'rsatilmaydi, ular so'ralgandagina aytiladi. Shu sababli u yerga tajribali gid bilan birga borgan ma'qul edi, aks holda narxlar bir zumda oshib ketardi, choyning ham eng sifatlisi bo'lmasdi. Hozir bunday holatni kuzatmayapman, Xitoy o'zgargan. Ammo choy bozoriga tashrif buyurganingizda ba'zi qoidalarni esda tuting: sizga damlab berilayotgan choyni albatta hidlab ko'ring, choyni baland ovozda chapillatib iching va sotuvchi bilan albatta savdolashing!

ЧАШКА ПЯТАЯ. «ЧАЙ, МЫ – НИЖЕГОРОДЦЫ»

BESHINCHI PIYOLA. “CHOY, BIZ NIJEGORODLIKLARMIZ”

В Нижнем Новгороде живёт автор этого материала Марина Гулящева и когда-то находилась крупнейшая в России ярмарка, «посредница между народами Востока и Запада». Китайский чай, привозимый из пограничного городка Кяхта, был настолько важным продуктом, что его прибытие служило стартом для заключения крупных торговых сделок. Именно на Нижегородской ярмарке зарождались русские традиции чаепития, а самих горожан часто называли «водохлёбами».

Прошло более полутора веков, но до сих пор в разговорной речи жителей Нижегородской области слышится эмоциональное слово-связка «чай»: «Чай, мы – нижегородцы» или «Чай, не опоздаю на работу». Это уникальное лингвистическое явление даже увековечил в своём стихотворении «Чай» наш земляк Борис Пильник.

А остальные чашки чая мы приглашаем вас выпить в городах, куда летают самолёты Centrum Air, и в местах, рекомендованных героями нашего материала.

«Я чувствую прохладное дыхание ветра,
который колышет мои рукава.
Где он, Рай?
Разрешите мне оседлать бриз и унестись туда».

Древний китайский поэт

Nijniy Novgorodda ushbu material muallifi Marina Gulyasheva istiqomat qiladi, bu yerda bir vaqtlar “Sharq va G‘arb xalqlari o‘rtasidagi vositachi” bo’lib xizmat qilgan Rossiyadagi eng yirik yarmarka bo‘lgan. Kyaxta chegara shaharchasidan keltirilgan xitoy choyi shunchalik muhim mahsulot bo’lganki, uning kelishi yirik savdo bitimlari tuzilishining boshlanishi hisoblangan. Ruslarning choy an’analari aynan Nijniy Novgorod yarmarkasida shakllangan, shaharliklarning o‘zlarini esa ko‘pincha “suv ho’plovchilar” deb atashgan. Oradan bir yarim asrdan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, Nijniy Novgorod viloyatida aholi hamon kundalik nutqida “choy” hissiy bog‘lovchi so‘zini ishlatadi: "Choy, biz nijniynovgorodliklarmiz” yoki “Choy, ishga kechikmayman”. Bu noyob lingvistik hodisani hamyurtimiz Boris Pilnik hatto o‘zining “Choy” nomli she’rida abadiylashtirgan.

Qolgan piyolalardagi choylarni esa Centrum Air samolyotlari uchadigan shaharlarda va materialimiz qahramonlari tavsiya etgan joylarda ichishga taklif etamiz.

“Yenglarimni hilpiratayotgan shamolning
salqin nafasini sezayapman,
Jannat qayerda ekan?
Shabadani egarlab, u tomon parvozimga ijozat bering”

Qadimgi xitoy shoiri

VERTU

Hashamat va texnologiya san’ati

Искусство роскоши и технологий

Бренд VERTU, легенда в мире премиальных телефонов, представил свою эксклюзивную коллекцию в Ташкенте. О том, что делает эти устройства воплощением роскоши, какие технологии и материалы используются при их создании, а также о будущих планах и сотрудничествах бренда мы поговорили с Пулатом Салиховым — генеральным директором Bizcon Group, официального дистрибьютора VERTU и швейцарских часов класса люкс.

Premium telefonlar olamining afsonasi bo‘lgan VERTU brendi Toshkentda o‘zining eksklyuziv kolleksiyasini taqdim etdi. Ushbu qurilmalar nima uchun hashamat timsoli ekanligi, ularni yaratishda qanday texnologiyalar va materiallardan foydalanilishi, shuningdek, brendning kelajakdagi rejalari va hamkorliklari haqida biz VERTU va Shveytsariya hashamatli soatlarining rasmiy distribyutori bo‘lgan Bizcon Group bosh direktori Po‘lat Solihov bilan suhbatlashdik.

— РАССКАЖИТЕ О ЛИНЕЙКАХ VERTU, ПРЕДСТАВЛЕННЫХ В ТАШКЕНТЕ.

— В нашем бутике представлены несколько эксклюзивных линеек телефонов VERTU, каждая из которых сочетает инновационные технологии, изысканный дизайн и уникальные материалы. К основным линейкам относятся:

- **VERTU Signature V:** классическая линейка, известная уникальным дизайном и использованием драгоценных металлов и камней. Эти телефоны изготавливаются вручную и обладают исключительным качеством сборки.
- **VERTU Aster P:** это сочетание традиционного мастерства с современными технологиями. Телефоны выполнены из титана, кожи и сапфирового стекла, что обеспечивает им долговечность и премиальный вид.
- **Metavertu:** линейка, ориентированная на бизнес-клиентов, предлагающая высокую производительность и защиту данных. Телефоны изготавливаются из алюминия, кожи и имеют уникальные функции безопасности, а также поддержку технологии WEB3.
- **Metavertu 2:** продолжение линейки Metavertu, модель дополнена более мощным процессором и ассистентом на базе искусственного интеллекта. Ну и конечно же, дизайн стал ещё более уникальным и узнаваемым.
- **VERTU Iron Flip:** последняя новинка в ассортименте VERTU. Этот телефон с раскладным корпусом сочетает традиционные элементы дизайна и современные технические решения, что делает его неповторимым.

— TOSHKENTDA TAQDIM ETILGAN VERTU LINEYKALARI HAQIDA GAPIRIB BERING.

— Bizning butikimizda innovatsion texnologiyalar, nafis dizayn va noyob materiallarni o‘zida mujassam etgan bir nechta VERTU telefon liniyalari taqdim etilgan. Asosiy liniyalarga quyidagilar kiradi:

- **VERTU Signature V:** o‘ziga xos dizayni, qimmatbaho metallar va toshlardan foydalanishi bilan mashhur klassik lineyka. Ushbu telefonlar qo‘lda ishlab chiqariladi va yig‘ish sifati bilan ajralib turadi.
- **VERTU Aster P:** bu an’anaviy mahorat va zamonaviy texnologiyalarning uyg‘unligidir. Telefonlar titan, charm va yoqut shishadan tayyorlangan bo‘lib, bu ularga chidamlilik va premium ko‘rinishni beradi.
- **Metavertu:** yuqori unumdorlik va ma’lumotlarni himoya qilishni taklif etuvchi, biznes-mijozlarga yo‘naltirilgan liniya. Telefonlar alyuminiy, charmdan tayyorlanadi va noyob xavfsizlik funksiyalariga, ega bo‘lib, WEB3 texnologiyasini qo‘llab-quvvatlaydi.
- **Metavertu 2:** Metavertu liniyasining davomi, model yanada kuchli protsessor va sun’iy intellektga asoslangan yordamchi bilan to‘ldirilgan. Va, albatta, dizayn yanada o‘ziga xos va taniqli bo‘ldi.
- **VERTU Iron Flip:** VERTU assortimentidagi so‘nggi yangilik. Ushbu yig‘ma korpusli telefon an’anaviy dizayn elementlari va zamonaviy texnik yechimlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, uni betakror qiladi.

— КАКИЕ МАТЕРИАЛЫ, ЦВЕТА И ТЕКСТУРЫ ИСПОЛЬЗУЮТСЯ В СОВРЕМЕННОМ ДИЗАЙНЕ VERTU?

— Современные телефоны VERTU продолжают традицию использования премиальных материалов:

- **Титан:** лёгкий и прочный металл, часто используемый для корпусов телефонов.
- **Сапфировое стекло:** используется для экранов, благодаря чему они устойчивы к царапинам, и уменьшает вероятность сколов.
- **Кожа высокого качества:** для задних панелей доступна кожа в различных цветах и текстурах — телячья, крокодиловая и кожа ящерицы.
- **Драгоценные камни и металлы:** Золото, платина, алмазы и другие драгоценности, используемые для декорирования эксклюзивных моделей.

Цветовые решения варьируются от классических черного и коричневого до более смелых и ярких оттенков, таких как красный, синий или оранжевый. Текстуры кожи могут быть гладкими или иметь выраженный рисунок.

— ZAMONAVIY VERTU DIZAYNIDA QANDAY MATERIALLAR, RANGLAR VA TEKSTURALAR QO‘LLANILADI?

— Zamonaviy VERTU telefonlari premium materiallardan foydalanish an’anasini davom ettirmoqda:

- **Titan:** Ko‘pincha telefon korpuslari uchun ishlatiladigan yengil va mustahkam metall.
- **Sapfir shisha:** Ekranlar uchun ishlatiladi, shuning uchun ular tirnalishga chidamli va sinish ehtimolini kamaytiradi.
- **Yuqori sifatli charm:** Orqa panellar uchun turli rang va tuzilishdagi charmlar mavjud - bu buzoq terisi, timsoh va kaltakesak terisi.
- **Qimmatbaho toshlar va metallar:** Eksklyuziv modellarni bezash uchun ishlatiladigan oltin, platina, olmos va boshqa qimmatbaho buyumlar.

Rang yechimlari klassik qora va jigarrangdan qizil, ko‘k yoki to‘q sariq kabi dadilroq va yorqinroq ranglargacha o‘zgarib turadi. Teri to‘qimalari silliq yoki aniq naqshli bo‘lishi mumkin.

— ДЛЯ КОГО СОЗДАН VERTU?

— Телефоны VERTU рассчитаны на различных пользователей:

- **Молодые пользователи:** модели Metavertu — с ярким дизайном и современными функциями, ориентированные на успешных молодых людей.
- **Бизнесмены и деловые люди:** линейка Aster P и Iron Flip — предлагающая высокую безопасность и функциональность, что делает её идеальной для предпринимателей.
- **Состоятельные клиенты:** модели Signature V — самые роскошные и эксклюзивные, предназначены для ценителей уникальных и изысканных вещей.

— РАССКАЖИТЕ ПОДРОБНЕЕ ПРО СПЕЦИАЛЬНУЮ МОДЕЛЬ VERTU С НАДПИСЬЮ UZBEKISTAN.

— Она представляет собой уникальное сочетание традиционного мастерства и уважения к культуре Узбекистана. Модель украшена элементами из золота 18K (содержание чистого золота — 75 процентов) и национальным гербом Узбекистана. Желающие могут заказать индивидуальную гравировку на кожаных и металлических элементах всех моделей телефонов VERTU.

— КАКАЯ ЦЕЛЕВАЯ АУДИТОРИЯ VERTU, ПЕРЕСЕКАЕТСЯ ЛИ ОНА С ПОКУПАТЕЛЯМИ IPHONE?

— VERTU и iPhone действительно могут служить индикаторами статуса, однако они ориентированы на разные категории потребителей. VERTU — это не просто телефон, а произведение искусства, созданное вручную с использованием редких и дорогих материалов. Он предназначен для тех, кто ценит уникальность, индивидуальность и исключительное качество. Для молодых пользователей, стремящихся к инновациям и современным технологиям, iPhone может быть хорошим выбором. Но для тех, кто ищет нечто большее, чем просто современный телефон, VERTU остается выбором № 1.

— ПЛАНИРУЕТ ЛИ VERTU КОЛЛАБОРАЦИИ С ХУДОЖНИКАМИ ДЛЯ СОЗДАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ КОЛЛЕКЦИЙ?

— VERTU всегда славился громкими коллаборациями. Тому пример модели, разработанные совместно с Ferrari и Bentley. Сегодня VERTU сотрудничает не только с брендами, но также с артистами и выдающимися личностями. Мы, свою очередь, планируем сотрудничать с лучшими художниками Узбекистана, специализирующимися на миниатюрных рисунках, ведь у нас богатейшая история, удивительная коллекция уникальных узоров, так что мы просто обязаны сделать эту коллаборацию!

— КАКИЕ ЕЩЁ ПРЕМИАЛЬНЫЕ УСЛУГИ ПРЕДЛАГАЕТ ВАШ БУТИК?

— Кроме самих телефонов, VERTU предлагает услугу консьерж. Консьерж-сервис доступен круглосуточно и помогает пользователям решать различные задачи, такие как бронирование ресторанов, организация поездок, поиск билетов на мероприятия, советы по шопингу и даже заказ частного самолёта! Доступ к этому сервису является частью эксклюзивного опыта владения телефоном VERTU, подчеркивая его премиальный статус.

— VERTU KIM UCHUN YARATILGAN?

— VERTU telefonlari turli foydalanuvchilarga mo'ljallangan:

- **Yosh foydalanuvchilar:** Metavertu modellari – yorqin dizayn va zamonaviy funksiyalarga ega bo'lib, muvaffaqiyatli yoshlarga mo'ljallangan.
- **Biznesmenlar va ishbilarmonlar:** Aster P va Iron Flip liniyasi yuqori xavfsizlik va funksionallikni taklif etadi, bu esa uni tadbirkorlar uchun ideal qiladi.
- **Badavlat mijozlar:** Signature V modellari – eng hashamatli va eksklyuziv bo'lib, noyob va nafis buyumlarni qadrlovchilar uchun mo'ljallangan.

— UZBEKISTAN YOZUVLI MAXSUS VERTU MODELI HAQIDA BATAFSIL MA'LUMOT BERSANGIZ.

— Milliy ramzlarga ega maxsus VERTU modeli an'anaviy mahorat va O'zbekiston madaniyatiga hurmatning noyob uyg'unligini ifodalaydi. Model 18K oltin elementlari (sof oltin miqdori 75%) va O'zbekiston milliy gerbi bilan bezatilgan. Xohlovchilar VERTU telefonlar barcha modellarining charm va metall elementlariga individual o'yma naqshlarni buyurtma qilishlari mumkin.

— VERTU'NING MAQSADLI AUDITORIYASI QANDAY, U IPHONE XARIDORLARI BILAN KESISHADIMI?

— VERTU va iPhone haqiqatan ham holat ko'rsatkichlari bo'lib xizmat qilishi mumkin, ammo ular turli toifadagi iste'molchilarga mo'ljallangan. VERTU shunchaki telefon emas, balki noyob va qimmatbaho materiallardan foydalangan holda qo'lda yaratilgan san'at asaridir. U o'ziga xoslik, individuallik va noyob fazilatni qadrlaydigan insonlar uchun mo'ljallangan. Innovatsiya va zamonaviy texnologiyalarga intilayotgan yosh foydalanuvchilar uchun iPhone yaxshi tanlov bo'lishi mumkin. Ammo zamonaviy telefondan ko'ra ko'proq narsani izlayotganlar uchun VERTU 1-raqamli tanlov bo'lib qolmoqda.

— VERTU MAXSUS KOLLEKSIYALAR YARATISH UCHUN RASSOMLAR BILAN HAMKORLIK QILISHNI REJALASHTIRYAPTIMI?

— VERTU har doim shov-shuvli hamkorliklar bilan mashhur bo'lgan. Bunga Ferrari va Bentley bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan modellar misol bo'la oladi. Bugungi kunda VERTU nafaqat brendlar, balki san'atkorlar va taniqli shaxslar bilan ham hamkorlik qiladi. Biz, o'z navbatida, miniatyura san'atiga ixtisoslashgan O'zbekistonning eng yaxshi rassomlari bilan hamkorlik qilishni rejalashtirmoqdamiz. Axir bizning boy tariximiz, noyob naqshlardan iborat ajoyib kolleksiyamiz bor, shuning uchun biz bu hamkorlikni amalga oshirishimiz shart!

— BUTIK YANA QANDAY IMTIYOZLI XIZMATLARNI TAKLIF ETADI?

Telefonlarning o'zidan tashqari, VERTU konserj xizmatini taklif qiladi. Konsyerj xizmati 24 soat ishlaydi va foydalanuvchilarga restoranlarni bron qilish, sayohatlarni tashkil etish, tadbirlarga chiptalar topish, xarid qilish bo'yicha maslahatlar va hatto shaxsiy samolyotga buyurtma berish kabi turli masalalarni hal qilishda yordam beradi! Bu xizmatga kirish VERTU telefoniga egalik qilishning eksklyuziv tajribasining bir qismi bo'lib, uning premium sifatini ta'kidlaydi.

Для тех, кто ищет нечто большее, чем просто современный телефон, VERTU остаётся выбором № 1

Zamonaviy telefondan ko'ra ko'proq narsani izlayotganlar uchun VERTU 1-raqamli tanlov bo'lib qolmoqda

Чем отличается VERTU *от популярных флагманов?*

БЕЗОПАСНОСТЬ
Телефон использует технологию Web3 на базе блокчейна, работает как холодный криптокошелек и поддерживает хранение и создание NFT. Встроена нода для добычи Ethereum и Bitcoin. В подарок – 10 ТБ IPFS-хранилища.

ДОЛГОВЕЧНОСТЬ
В отличие от iPhone, где обновления ОС прекращают поддержку устройств, VERTU сохраняет работоспособность приложений даже после обновления системы.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ
Персональный ассистент, который анализирует ваш день, заказывает кофе и такси в нужное время.

КОНСЬЕРЖ-СЕРВИС
Эксклюзивная услуга доступна нажатием одной кнопки.

ПРЕМИАЛЬНЫЕ МАТЕРИАЛЫ
Высококачественная сталь, керамика, а в некоторых моделях даже авиационный титан.

НАДЁЖНОСТЬ
Влагостойкий механизм флипа отличается прочностью и долговечностью, обеспечивая стабильную работу в различных условиях.

ЦЕНА = ЭКСКЛЮЗИВНОСТЬ
VERTU собирается вручную из премиальных материалов и входит в люкс-сегмент.

VERTU *mashhur flagmanlardan nimasi bilan farq qiladi?*

XAVFSIZLIK
Telefon blokcheynga asoslangan Web3 texnologiyasidan foydalanadi, sovuq kripto hamyon kabi ishlaydi va NFT saqlash va yaratishni qo'llab-quvvatlaydi. Ethereum va Bitcoin qazib olish uchun tugun o'rnatilgan. Sovg'a sifatida – 10 TB IPFS-xotira.

CHIDAMLILIK
OS yangilanishlari qurilmalarni qo'llab-quvvatlashni to'xtatadigan iPhone'dan farqli o'laroq, VERTU tizim yangilanganidan keyin ham ilovalarning ishlashini saqlab qoladi.

SUN'IY INTELLEKT
Kuningizni tahlil qiladigan shaxsiy yordamchi kerakli vaqtda qahva va taksiga buyurtma beradi.

KONSERJ-SERVIS
Eksklyuziv xizmatga bitta tugmani bosish orqali kirish mumkin.

PREMIUM MATERIALLAR
Yuqori sifatli po'lat, keramika va ba'zi modellarda hatto aviatsiya titani.

ISHONCHLILIK
Namlikka chidamli ag'dargich mexanizmi mustahkamligi va chidamliligi bilan ajralib turadi, turli sharoitlarda barqaror ishlashni ta'minlaydi.

NARX = EKSKLYUZIVLIK
VERTU premium materiallardan qo'lda yig'iladi va hashamatli segmentga kiradi.

— КАКИЕ У БРЕНДА ПЛАНЫ НА БУДУЩЕЕ?

— VERTU всегда был и остается символом роскоши и эксклюзивности в мире мобильных телефонов. Возрождение бренда обусловлено его уникальной способностью сочетать передовые технологии с мастерством ручной работы и высококачественными материалами. В современном мире, где массовое производство часто преобладает над индивидуальностью, VERTU предлагает нечто особенное: устройство, которое не только выполняет свои функции, но и является произведением искусства, отражающим стиль и статус своего владельца. Будущее VERTU выглядит очень перспективным. Бренд продолжает развивать и совершенствовать технологии, чтобы предоставлять клиентам лучшие решения в области связи и сервиса.

— КАКИЕ ОЖИДАНИЯ VERTU ОТ УЗБЕКИСТАНА?

— Что касается Узбекистана, это страна с богатыми культурными традициями и быстро развивающейся экономикой. Мы видим в этом рынке огромный потенциал и растущий интерес к премиальным и эксклюзивным товарам. Представляя VERTU в Узбекистане, мы стремимся удовлетворить спрос на вещи премиум- и люкс-сегмента, которые могут подчеркнуть индивидуальность и статус их владельцев. Наши предположения подтвердились, как только мы открыли магазин, а именно, телефоны Vertu стали покупать не только жители столицы, но и граждане из соседних стран.

— BRENDNING KELAJAKDAGI REJALARI QANDAY?

VERTU har doim mobil telefonlar olamida hashamat va eksklyuzivlik ramzi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Brendning qayta tiklanishi uning ilg'or texnologiyalarni qo'l mehnati mahorati va yuqori sifatli materiallar bilan uyg'unlashtirishdagi noyob qobiliyati bilan bog'liq. Ommaviy ishlab chiqarish ko'pincha individuallikdan ustun bo'lgan zamonaviy dunyoda VERTU o'ziga xos narsani taklif etadi: nafaqat o'z vazifalarini bajaradigan, balki o'z egasining uslubi va mavqeini aks ettiruvchi san'at asari bo'lgan qurilma. VERTUning kelajagi juda istiqbolli ko'rinadi. Brend mijozlarga eng yaxshi aloqa va xizmat ko'rsatish yechimlarini taqdim etish uchun texnologiyalarni rivojlantirish va takomillashtirishda davom etmoqda.

— VERTU O'ZBEKISTONDAN NIMALARNI KUTMOQDA?

O'zbekistonga kelsak, u boy madaniy an'analarga va jadal rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega mamlakat. Biz ushbu bozorda ulkan salohiyatni, premium va eksklyuziv tovarlarga qiziqish ortib borayotganini ko'rmoqdamiz. O'zbekistonda VERTU kompaniyasini taqdim etish orqali biz o'z egalarining o'ziga xosligi va mavqeini ta'kidlay oladigan premium va hashamatli segmentdagi buyumlarga bo'lgan talabni qondirishga intilamiz. Bizning taxminlarimiz butikni ochishimiz bilanoq tasdiqlandi, ya'ni Vertu telefonlarini nafaqat poytaxt aholisi, balki qo'shni davlatlar fuqarolari ham sotib ola boshladi.

Редакция благодарит за предоставление фотоматериалов HILL UZBEKISTAN и Алсу Башар.

Tahririyat HILL UZBEKISTAN va Alsu Basharga taqdim etgan fotomateriallari uchun minnatdorchilik bildiradi.

Официальный бутик Vertu в Узбекистане:
Проезд Пахлавона Махмуда, 28
+998 90 183-88-88
@vertu.uz.official
vertu.uz

Vertu'ning O'zbekistondagi rasmiy butigi:
Pahlavon Mahmud tor ko'chasi, 28
+998 90 183-88-88
@vertu.uz.official
vertu.uz



UZBEK SPIRIT
National Identity

Корнер Black Quail в аэропорту имени Ислама Каримова

"Black Quail: 12 лет нонконформизма в мире кожи"
Интервью с основателем бренда Пахлавоном Турдиевым

— Пахлавон, 12 лет назад в Узбекистане почти не было локальных брендов премиальных кожаных изделий. Что вдохновило вас начать этот путь?

— Это было осознанное стремление создать нечто уникальное, которое зародилось из моего личного запроса. Меня вдохновил стиль Джонни Деппа и его умение сочетать браслеты с каждым образом — он выглядел как бунтарь, человек вне рамок. Я пытался найти что-то подобное в местных магазинах и интернете, но безуспешно. В итоге я решил взяться за дело сам.

— Почему Black Quail?

— Перепёлка — это отсылка к узбекской культуре. Наши деды сидели в чайханах, пили горячий чай, ели плов, а рядом слышалось пение перепёлок. Это символ уюта, часть нашей идентичности и корней. А чёрный цвет — это вызов, стиль, дерзость и актуальность. Так как я увлекался альтернативной музыкой, альтернативным и артхаусным кино и до сих пор это люблю я хотел передать эту энергию через собственные изделия. Так появилось название Black Quail — сочетание национальной идентичности с ноткой нонконформизма, ведь существует и чёрная перепёлка, выведенная в Англии.

— Что изменилось за эти 12 лет?

— Если кратко — мы выросли из импровизированной мастерской за кухонным столом в полноценный бренд. Мы экспериментировали с дизайном, создавали уникальные изделия с собственной историей, обновляли айдентику, пробовали необычные партнёрства. Были моменты, когда опускались руки и хотелось всё оставить, но каждый раз мы находили силы двигаться дальше. Прошли через пандемию, кризисы, но остались верны себе. Теперь у нас не только узнаваемый стиль, но и сообщество лояльных людей, которые выбирают Black Quail за индивидуальность, характер и принцип «не как у всех».

— У бренда есть корнер в Международном аэропорту Ташкента имени Ислама Каримова. Как вы к этому пришли?

— Я хотел, чтобы частичка нашей национальной культуры и узбекского духа провожала туристов и соотечественников. Признаюсь, открытие собственного корнера в международном аэропорту оказалось непростой задачей, но решительный настрой команды, настойчивость и вера в то, что изделия локального бренда смогут полюбиться гостям нашей страны, помогли убедить в этом руководство Uzbekistan Airports. Нам дали шанс, и мы его не упустили.

— В чём особенность этого корнера?

— Мы создали не просто торговую точку, а настоящий дизайнерский уголок, отражающий нашу культуру. Вместе с одним из ведущих архитекторов узбекского модернизма, Бобиром Кличевым, и его командой ARC Architects мы разработали пространство, вдохновлённое узбекской этникой. В оформлении использованы панжара — резные деревянные решётки, токча — ниши в стенах, в которых традиционно хранили посуду и курпачи. В центре расположен большой стол-топчан — символ тени деревьев, под которыми наши предки проводили жаркие дни. Кроме того, в корнере первыми появляются новые изделия бренда, а цены здесь выгоднее, так как не включают НДС.



— Как создаются изделия Black Quail?

— Процесс создания наших изделий начинается с поиска вдохновения в окружающем мире: архитектуре, фильмах, природе, живописи. Каждая коллекция начинается с mood board, где я собираю идеи и образы, связанные с определённой темой. Затем разрабатываю эскизы, которые передаются технологам для создания прототипов. После доработки и утверждения модель запускается в производство.
В 2021 году мы провели ребрендинг, чтобы подчеркнуть наше стремление к инновациям и современному дизайну.

— Какие у вас планы на 2025 год?

— Мы продолжаем расти, оставаясь верными себе. В этом году работаем над новыми коллекциями, сочетая мировые тренды с богатым культурным наследием Узбекистана. Планируем выход на зарубежные рынки, расширение линейки товаров и смелые эксперименты с дизайном. Black Quail остаётся брендом для тех, кто ценит стиль, бунтарство и аутентичность. У нас нет цели просто делать кожаные изделия — мы создаём историю, которая соединяет современность и культурную идентичность.
В этом году мы возвращаемся в офлайн — наш новый магазин откроется в самом центре города, по адресу Истикбол, 18. Это будет совершенно новый формат взаимодействия с клиентами, и мы готовы удивлять. Поэтому хочется сказать: stay tuned — впереди новый этап.

www.theblackquail.com

TA'MLAR SAN'ATI: KANTON TAOMLARINING SIRI

Искусство вкуса: тайны кантонской кухни

Кантонская кухня, олицетворяющая утонченность и гармонию, завоевала сердца гурманов по всему миру. Акцент на свежих ингредиентах, тонком мастерстве баланса вкусов и глубокой связи с традициями делают её объектом настоящего кулинарного искусства. Мы поговорили с уроженцем Гуанчжоу Винсентом Лином – вице-президентом по продажам компании Oriental Sky Aviation, и узнали, что делает кантонскую кухню столь уникальной и неповторимой.

O'zida nafislik va uyg'unlikni mujassamlashtirgan kanton taomlari butun dunyo taom shinavandalarining qalbini zabt etgan. Yangi mahsulotlarga urg'u berish, mohirlik bilan tanlangan ta'mlar muvozanati va an'analarga bo'lgan chuqur bog'liqlik kanton taomlarini haqiqiy pazandalik san'ati obyektiga aylantiradi. Biz Oriental Sky Aviation kompaniyasining sotuvlar bo'yicha vitse-prezidenti guanchjoulik Vinsent Lin bilan suhbatlashib, aynan nima kanton taomlariga bunday o'ziga xoslik va betakrorlik berishini bilib oldik.

Кантонская кухня отдаёт приоритет раскрытию вкуса ингредиентов, часто с минимальным использованием тяжёлых специй или соусов, а также отражает прибрежное расположение Гуандуна, изобилуя морепродуктами. В отличие от сычуаньской кухни, известной своей жгучей остротой благодаря обилию чили и сычуаньского перца, и шанхайской, которую отличают сладкие акценты и пристрастие к тушёным блюдам с использованием соевого соуса, кантонские повара делают упор на лёгкость и естественность.

«Кантонская кухня показывает, как естественная свежесть продуктов создаёт богатство вкусов».

Kanton oshxonasi mahsulotlarning asl ta'mini ochilishiga ustuvorlik beradi, o'tkir ziravorlar yoki souslardan juda kam foydalaniladi. Shuningdek, u Guandunning qirg'oq bo'yi joylashuvini aks ettirib, dengiz mahsulotlariga boy taomlari bilan ajralib turadi. Chili va sichuan qalampirining ko'pligi va o'tkir ta'mi bilan mashhur bo'lgan Sichuan taomlari hamda shirin ta'mi bilan ajralib turadigan va soya sousi bilan dimlab pishiriladigan Shanxay taomlaridan farqli o'laroq, kanton oshpazlari taomlarning yengilligi va tabiiyligiga alohida e'tibor qaratadilar.

"Kanton oshxonasi tabiiy yangi mahsulotlar ta'mlar boyligini yarata olishini ko'rsatib beradi".

ВКУСОВЫЕ ГРАНИ ГУАНДУНА

В разных городах провинции Гуандун кантонская кухня имеет свои особенности, что делает её ещё более интересной и разнообразной. Например, Гуанчжоу знаменит своими традиционными димсамами – небольшими гастрономическими шедеврами, и блюдами из жареного мяса, приготовленными по классическим региональным рецептам.

Шэньчжэнь, будучи молодым и динамичным городом, впитал в себя влияние многочисленных мигрантов, что отразилось на местной кухне. Здесь традиционные блюда часто интерпретируются по-новому: появляются фьюжн-элементы, сочетающие традиции с современными трендами. А Шуньдэ, который называют кулинарной столицей региона, известен своими инновационными техниками приготовления. В этом городе особенно ценят креативный подход и мастерство работы с морепродуктами, создавая блюда, которые поражают воображение и вкус. Эти различия между городами лишь подчеркивают богатство и многообразие кантонской кухни, а её универсальность и гармония вкусов продолжают вдохновлять гурманов по всему миру.

GUANDUNNING TA'M QIRRALARI

Guandun muzofotining turli shaharlaridagi Kanton taomlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu ularni yanada qiziqarli va xilma-xil qiladi. Masalan, Guanchjou o'zining an'anaviy dimsamlari — kichik gastronomik durdonalari va klassik mintaqaviy retseptlar bo'yicha qovurilgan go'shtli taomlari bilan mashhur.

Yosh va jo'shqin shahar bo'lgan Shenchjen ko'plab muhojirlar ta'sirini o'zlashtirgan, bu mahalliy taomlarda ham aks etgan. Bu yerda an'anaviy taomlar ko'pincha yangicha talqin qilinadi: an'analarni zamonaviy trendlar bilan uyg'unlashtirgan fyujn-elementlar paydo bo'ladi. Mintaqaning pazandachilik poytaxti sifatida tanilgan Shunde esa o'zining taomlarni innovatsion usulda tayyorlash texnikasi bilan mashhur. Bu shaharda dengiz mahsulotlari bilan ishlashda kreativ yondashuv va mahorat, tasavvur hamda didni hayratga soladigan taomlarni yaratish alohida qadrlanadi. Shaharlar o'rtasidagi bu farqlar Kanton taomlarining xilma-xilligini ta'kidlab, uning universalligi va ta'mlar uyg'unligi esa butun dunyo taom shinavandalarini ilhomlantirishda davom etmoqda.

ЗНАКОВЫЕ БЛЮДА

В кантонской кухне можно выделить 5 блюд, каждое из которых отвечает традициям, сочетая натуральный вкус, высококачественные ингредиенты и мастерство приготовления:

- Димсам (Dim Sum, разновидность пельменей): символ кантонской культуры еды, демонстрирующий разнообразие и мастерство в маленьких порциях;
- Чар Сиу (Char Siu, жареная свинина): сладко-соленая глазурь воплощает стиль кантонского барбекю;
- Суп с вонтоном и лапшой (Wonton Noodle Soup): простое, но изысканное блюдо, отражающее баланс и чистоту кухни;
- Рыба на пару (Steamed Fish): подчеркивает свежесть ингредиентов, что является основным принципом кантонской кухни;
- Курица «Белый отвар» (White Cut Chicken): подчеркивает натуральный вкус высококачественной птицы.

MASHHUR TAOMLAR

Kanton taomlarining orasida har biri an'analarga rioya qilingan holda o'zida tabiiy ta'mni, yuqori sifatli masalliqlarni va tayyorlash mahoratini jamlagan 5 ta taomni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Dimsam (Dim Sum, chuchvara turi): Kanton taomlari madaniyati ramzi bo'lib, kichik porsiyalarda xilma-xillikni va oshpaz mahoratini namoyish etadi;
- Char Siu (Char Siu, qovurilgan cho'chqa go'shti): shirin-sho'r glazur o'zida kanton barbekyu uslubini mujassam etadi;
- Vontonli ugra sho'rva (Wonton Noodle Soup): oddiy, ammo muvozanat va tozalikni aks ettiruvchi nafis taom;
- Bug'da pishirilgan baliq (Steamed Fish): Kanton taomlarining asosiy tamoyili bo'lgan masalliqlar yangiligini ta'kidlaydi;
- "Oq qaynatma" tovug'i (White Cut Chicken): yuqori sifatli tovuq go'shtining tabiiy ta'mini ta'kidlaydi.

А ЧТО МОЖНО СКАЗАТЬ ОБ ИСТОКАХ?

На развитие кантонской кухни существенно повлияли как исторические события, так и культурные особенности региона. Гуанчжоу, будучи важным торговым центром, с древних времен служил воротами Китая в мир, что привело к знакомству с иностранными специями, продуктами и кулинарными техниками. Миграционные волны также сыграли свою роль: иностранные сообщества, оседая в регионе, обогащали местную кухню своими традициями, создавая уникальные фьюжн-элементы. Нельзя забывать и об изобилии природных ресурсов: прибрежное расположение обеспечило доступ к разнообразным морепродуктам, а плодородные земли способствовали выращиванию свежих овощей и фруктов, что стало основой для знаменитого акцента кантонской кухни на свежесть и натуральный вкус.

«Каждое блюдо кантонской кухни рассказывает свою историю, отражая богатую культуру и традиции региона. Каждая порция становится не просто угощением, а настоящим путешествием в мир многовекового гастрономического наследия».

КАКОВЫ СЕКРЕТЫ ПРИГОТОВЛЕНИЯ?

Принципы и технологии приготовления кантонских блюд строго соблюдаются на протяжении веков. Это и свежесть, которая достигается благодаря использованию высококачественных ингредиентов, и сбалансированное добавление приправ для усиления натурального вкуса, и эстетика подачи, и выверенная точность приготовления. Чтобы сохранить текстуру и вкус ингредиентов, кантонские повара готовят блюда на пару, обжаривают или тушат. А ещё всё это непременно сопровождает красивой подачей.

«Наша кухня – это не только про вкус, здесь также важна визуальная привлекательность».

KELIB CHIQISHI HAQIDA NIMANI AYTISH MUMKIN?

Kanton oshxonasining rivojlanishiga ham tarixiy voqealar, ham mintaqaning madaniy jihatdan o'ziga xosligi sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Guanchjou muhim savdo markazi bo'lib, qadimdan Xitoyning dunyo uchun ochilgan darvozasi sifatida xizmat qilgan, bu esa xorij ziravorlari, mahsulotlari, pazandachilik texnikalari bilan tanishishga olib kelgan. Migratsiya oqimlari ham o'z rolini o'ynagan: xorijlik hamjamiyatlar mintaqada o'rnashib, mahalliy taomlar qatorini o'z an'analari bilan boyitgan va noyob fyujn-elementlarni yaratgan. Tabiiy resurslarning serobligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim: qirg'oq bo'yida joylashganligi turli xil dengiz mahsulotlaridan foydalanishni ta'minladi, unumdor yerlar esa yangi sabzavotlarni va mevalarni yetishtirish imkonini berdi, bu kanton oshxonasining yangi va tabiiy ta'mga alohida e'tibor qaratishi uchun asos bo'ldi.

"Kanton oshxonasining har bir taomi o'z tarixi bilan mintaqaning boy madaniyati va an'analarini aks ettiradi. Har bir taom nafaqat shunchaki ziyofat, balki ko'p asrlik gastronomik meros olamiga qilingan haqiqiy sayohatga aylanadi".

TAYYORLASH SIRLARI NIMALARDAN IBORAT?

Kanton taomlarini tayyorlash qoidalari va texnologiyalari asrlar davomida qat'iy saqlanib kelmoqda. Bu ham yuqori sifatli masalliqlardan foydalanish natijasida erishiladigan yangilik, ham tabiiy ta'mni kuchaytirish uchun qo'shiladigan ziravorlarning muvozanati, ham dasturxonga tortish estetikasi va belgilangan tartibda tayyorlash hisoblanadi. Masalliqlar teksturasi va ta'mini saqlab qolish uchun kanton oshpazlari taomlarni bug'da pishirishadi, qovurishadi yoki dimlashadi. Bularning barchasi, albatta, dasturxonga ajoyib tarzda tortiladi.

"Taomlarimizda nafaqat ta'm, balki vizual jozibadorlik ham muhim".

БОЛЬШЕ, ЧЕМ ПРОСТО ЕДА

Без преувеличения можно сказать, что еда в Гуандуне – это ключевая часть повседневной жизни. Каждый житель начинает свой день с глотка вкусного чая «юм ча», а после принимается есть димсам. К ужину стол преображается в обитель свежих морепродуктов. Но главное во всём этом – узы между людьми, которые собираются за одним столом, ведь трапеза – отличный повод укрепить семейные или деловые отношения.

«Для нас, жителей Гуандуна, кухня – способ быть ближе друг к другу».

ПРАЗДНИЧНЫЕ БЛЮДА

Традиционные праздничные блюда Гуандуна – это не только вкусно, но и познавательно, ведь они знакомят нас с культурой и обычаями региона.

«Форма и вкус праздничных блюд связаны с многовековой традицией почитания истории и культурного наследия».

Лунные пряники (mooncakes) – символ единства и гармонии – неизменно украшают столы во время праздника середины осени, когда семья собирается любоваться полной луной. Таньюань (Tangyuan) – сладкие рисовые шарики, символизирующие семейное тепло, подают на Праздник фонарей. Жареный молочный поросёнок с хрустящей корочкой и нежным мясом является обязательным угощением на свадьбах и крупных торжествах как символ изобилия и благополучия. А цзунцзы – рисовые пирожки, завернутые в бамбуковые листья, – готовятся на Праздник драконьих лодок в память о поэте Цюй Юане, погрузившемся в реку в знак протеста против беззакония со стороны императора. Согласно легенде, после его смерти люди скорбели по нему, садились в лодки и долго искали тело поэта в воде. Рыбаки бросали в воду рис, яйца и рисовое вино, чтобы Водяной дракон и другие обитатели реки не ели останки Цюй Юаня.

BU SHUNCHAKI OVQAT EMAS

Guandunda taom kundalik hayotning muhim qismi hisoblanadi, deb mubolag'asiz aytish mumkin. Har bir kishi kunni mazali "yum cha" choyini ho'plab, keyin dimsam iste'mol qilish bilan boshlaydi. Kechki ovqat paytiga kelib dasturxon yangi dengiz mahsulotlarining makoniga aylanadi. Biroq, bundagi eng muhim jihat — bir dasturxon atrofida to'plangan odamlar o'rtasidagi aloqalar, axir birgalikda ovqatlanish oilaviy yoki ishbilarmonlik munosabatlarini mustahkamlash uchun ajoyib imkoniyat yaratadi.

"Bizlar, Guandun aholisi uchun taom — bir-birimizga yaqinroq bo'lish yo'li"

BAYRAM TAOMLARI

Guandunning an'anaviy bayram taomlari – bu nafaqat mazali, balki qiziqarli, chunki ular bizni mintaqa madaniyati va urf-odatlari bilan tanishtiradi.

"Bayram taomlarining shakli va ta'mi ko'p asrlik tarix hamda madaniy merosni ardoqlash an'anasi bilan bog'liq".

Oy pryaniklari (mooncakes) — birlik va uyg'unlik ramzi bo'lib, oila kuz o'rtasidagi bayramda to'lin oyni tomosha qilish uchun to'planishi sharafiga yoziladigan dasturxonni doimo bezab turadi. Tanyuan (Tangyuan) — oiladagi mehr-oqibat ramzi bo'lgan shirin guruch sharlari dasturxonga Fonuslar bayramida tortiladi. Qarsildoq qobiq va nafis go'shtli qovurilgan sutli cho'chqa bolasi to'y va katta tantanalar dasturxonida to'kinlik va farovonlik ramzini ifodalovchi muhim taom hisoblanadi. Bambuk barglariga o'ralgan guruchli taom – zongzilar esa Ajdaho qayiqlari bayramida imperatorning g'ayriqonuniy ishlariga qarshi norozilik belgisi sifatida daryoga g'arq bo'lgan shoir Qu Yuan xotirasiga tayyorlanadi. Afsonaga ko'ra, uning o'limidan so'ng odamlar unga aza tutib, qayiqlarga o'tirib, uzoq vaqt davomida suvda shoirning jasadini qidirishgan. Suv ajdari va daryoning boshqa jonivorlari Qu Yuanning jasadini yemasligi uchun baliqchilar suvga guruch, tuxum va guruch sharobini tashlashgan.

ВКУС, ПОКОРИВШИЙ МИР

Кантонская кухня завоевала всемирную популярность благодаря своей удивительной способности адаптироваться к любым вкусам, оставаясь верной своим истокам. Искусство подчёркивать свежесть ингредиентов, сочетать деликатность и гармоничность делает её настоящим гастрономическим сокровищем. Иммигранты из Гуандуна сыграли ключевую роль в распространении этих кулинарных традиций: благодаря их труду кантонские рестораны появились в крупнейших мегаполисах мира – от Нью-Йорка до Лондона, от Сиднея до Токио. Сегодня хрустящие димсамы, ароматные супы и утонченные соусы стали синонимом изысканности и гастрономического удовольствия, объединяя любителей еды по всему миру.

НОВАЯ ЖИЗНЬ КАНТОНСКОЙ КУХНИ

В настоящее время мы наблюдаем интересные тенденции в адаптации кантонской кухни для международной аудитории. Во-первых, рецепты упрощают, чтобы они стали ближе к западным вкусам и привычкам. Это позволяет людям, незнакомым с аутентичными блюдами, насладиться ими без ощущения чего-то чуждого. Во-вторых, активно используются местные ингредиенты. Например, вместо традиционной целой курицы в блюдах всё чаще появляется привычная многим куриная грудка. И конечно, нельзя не упомянуть фьюжн-направление. Современные интерпретации кантонских блюд удивляют необычными сочетаниями: димсамы с трюфельным пюре или копченым лососем становятся настоящим хитом. Все эти изменения не только сохраняют дух кантонской кухни, но и делают её ещё ближе и понятнее для людей по всему миру.

DUNYONI ZABT ETGAN TA'M

O'z an`analariga sodiq qolgan kanton taomlari istalgan ta'mga moslasha olish qobiliyati bilan butun dunyoda mashhurlikka erishdi. Yangi masalliqlarga urg'u berish, nafislik va uyg'unlikni mujassamlashtirish san'ati uni haqiqiy gastronomik xazinaga aylantirdi. Bu oshpazlik an'analarining tarqalishiga guandunlik muhojirlar katta hissa qo'shdi: ularning sa'y-harakatlari tufayli kanton restoranlari Nyu-Yorkdan Londongacha, Sidneydan Tokiogacha bo'lgan dunyoning eng yirik megapolislarida paydo bo'ldi. Bugungi kunda qarsildoq dimsamlar, xushbo'y sho'rvalar va souslar nafislik va gastronomik lazzatning sinonimiga aylanib, butun butun dunyodagi taom shinavandalarini ushbu noyob oshxonaga bo'lgan muhabbat orqali birlashtiradi.

KANTON TAOMLARINING YANGI HAYOTI

Hozirgi kunda kanton taomlarining xalqaro auditoriyaga moslashuvi borasidagi qiziqarli tendensiya kuzatilmoqda. Birinchidan, taomlar G'arb didi va odatlariga yaqinroq bo'lishi uchun retseptlar soddalashtirilmoqda. Bu autentik taomlar bilan tanish bo'lmagan odamlarga qandaydir begona narsani his qilmasdan ulardan bahramand bo'lish imkonini beradi. Ikkinchidan, mahalliy masalliqlardan faol foydalanilmoqda. Masalan, taomlarda an'anaviy butun tovuq o'rniga ko'pchilikka tanish bo'lgan tovuq to'shi ishlatilmoqda. Albatta, fyujn yo'nalishni ham ta'kidlashimiz lozim. Kanton taomlarining zamonaviy talqinlari g'ayrioddiy uyg'unliklar bilan hayratda qoldirmoqda: trufel pyuresi yoki dudlangan losos bilan tayyorlangan dimsamlar chinakam xitga aylanyapti. Bu o'zgarishlarning barchasi faqat kanton oshxonasi ruhini saqlab qolmay, balki uni butun dunyo bo'ylab odamlarga yanada yaqin va tushunarli qilmoqda.

РЕКЛАМА

КУХНЯ
ТУРЕЦКАЯ / ПАНАЗИАТСКАЯ / АВТОРСКАЯ

ЛЕТНЯЯ
ТЕРРАСА

ДЕТСКАЯ
ПЛОЩАДКА

УДОБНАЯ
ПАРКОВКА

Resto
RESTAURANT

(55) 514 11 11

ул. Матбуотчилар 1

CENTRIS
FIT ladies

Для женщин. И только.

(99) 888 88 84
г. Ташкент, ул. Матбуотчилар
(ТЦ РОУТАХТ-3 этаж)

С ЧЕГО НАЧАТЬ ЗНАКОМСТВО?

Знакомство с кантонской кухней мы бы предложили начать с наиболее узнаваемых блюд. Наверняка вы уже поняли, что мы начнем с димсама – символа гастрономического искусства всего региона. Эти крошечные пирожки с разными начинками, будь то креветки, свинина или овощи, просто созданы для того, чтобы покорять сердца. И это действительно вкусно! А свинина в кисло-сладком соусе? Это идеальное сочетание вкусов, которое никого не оставляет равнодушным. Или возьмём Чар Сиу – запеченную свинину с карамельной глазурью, аромат которой мгновенно вызывает аппетит. Те, кто предпочитает халяльную еду, оценят рыбу на пару с соевым соусом – блюдо, которое подчеркивает главные принципы кантонской кухни: свежесть ингредиентов и минимализм в приготовлении. А завершить знакомство стоит жареным гусём, хрустящая корочка и сочное мясо которого слывут настоящим шедевром кантонской гастрономии. Ну и как же без яичных тарталеток? Этот нежный десерт с хрустящей основой – финальный аккорд, который заставляет влюбиться в кантонскую кухню с первого кусочка.

МЫ УЖЕ ПОПРОБОВАЛИ! А ВЫ?

Редакция Centrum Travel Magazine совершила гастрономическую экспедицию в Гуанчжоу, и мы с полной уверенностью можем сказать: кантонская кухня – это не просто еда, а настоящее искусство. Экипаж авиакомпании Centrum Air, разделивший с нами эту сказку, не мог налюбоваться тем, как сочно и ярко звучат эти вкусы, как каждый ингредиент идеально дополняет другой. Даже самые искушённые гурманы не могли удержаться от восторга. От полюбившихся димсамов до ароматных супов и изысканных закусок – каждая трапеза здесь превращается в маленькое открытие.

Так что если вы ещё не были в Гуанчжоу, скорее собирайте чемоданы и отправляйтесь в этот город, где еда – не просто необходимость, а настоящий ритуал наслаждения. Тут вкусно, тут атмосферно, и, поверьте, ваше гастрономическое путешествие останется в памяти надолго!

TANISHUVNI NIMADAN BOSHLAGAN MA'QUL?

Kanton oshxonasi bilan tanishuvni yaxshi tanish taomlardan boshlashni taklif qilamiz. Albatta, biz butun mintaqa gastronomik san'atining ramzi bo'lgan – dimsamdan boshlashimizni anglagan bo'lsangiz kerak. Krevetka, cho'chqa go'shti yoki sabzavotlar bilan to'ldirilgan bu "chuchvaralar" qalblarni zabt etish uchun yaratilgandek. Ha, ular haqiqatan ham juda mazali! Nordon-shirin sousdagi cho'chqa go'shti-chi? Bu lazzatning hech kimni befarq qoldirmaydigan ajoyib uyg'unligi. Yoki hidi darhol ishtahani qo'zg'aydigan, toblab pishirilgan karamel glazurli cho'chqa go'shti — Char Siuni olaylik. Halol taomlarni ma'qul ko'radiganlarga esa, o'zida kanton oshxonasining asosiy tamoyillari — yangi masalliqlar va tayyorlashdagi minimalizm jamlangan soya sousli bug'da pishirilgan baliq mos keladi. Tanishuvni esa qarsildoq qobig'i va mazali go'shti tufayli kanton gastronomiyasining haqiqiy durdonasi sanaladigan qovurilgan g'oz bilan yakunlash tavsiya etiladi. Tuxumli tartaletkalar-chi? Bu qarsildoq asosli nafis desert birinchi luqmadan kanton pazandachiligiga oshiq qiladigan yakunlovchi akkord bo'ladi.

BIZ TATIB KO'RISHGA ULGURDIK! SIZ-CHI?

Centrum Travel Magazine tahririyati Guanchjouga gastronomik sayohat uyushtirdi. Endi biz to'la ishonch bilan kanton taomlari shunchaki taom emas, balki haqiqiy san'at ekanini ayta olamiz. Bu ajoyib ertakni biz bilan baham ko'rgan Centrum Air aviakompaniyasi ekipaji, bir-birini mukammal tarzda to'ldirgan har bir masalliq tufayli hosil bo'lgan bunday totli va yorqin ta'mlar xilma-xilligidan hayratda qoldi. Hatto eng talabchan taom shinavandalarning ham o'z hayratini yashirishi qiyin bo'ldi. Bu yerdagi bizga yoqib qolgan dimsamlardan tortib xushbo'y sho'rva va tansiq gazaklargacha bo'lgan

har bir taom kichik kashfiyotga aylanadi.

Shunday ekan, agar hali Guanchjouga bormagan bo'lsangiz, tezda jomadonlaringizni to'plang-da, bu shaharga yo'l oling. Bu yerda taom shunchaki zarurat emas, balki haqiqiy lazzat marosimi. Bu yerning taomlari mazali, muhiti esa — ajoyib. Ishoning, bu gastronomik sayohatingiz uzoq vaqt xotirangizda qoladi!

CENTRUMAIR

ШАЛВА АМОНАШВИЛИ: «ШКОЛА БУДУЩЕГО — ЭТО УЧИТЕЛЬ, НЕСУЩИЙ СВЕТ»

SHALVA AMONASHVILI: “KELAJAK MAKTABI – BU ZIYO TARARUVCHI MUALLIM”

В эпоху стремительного развития технологий и постоянных реформ в образовании традиции педагогики остаются ключевыми, особенно в странах с богатым культурным наследием, таких как Узбекистан и Грузия. Нас объединяет не только история, но и общий взгляд на образование как процесс взращивания личности. Обсудить эту тему мы решили с педагогом-гуманистом Шалвой Амонашвили, посетившим Ташкент с лекцией о воспитании. Он рассказал, почему образование без духовности теряет смысл, как воспитать ребёнка в любви и что значит быть настоящим учителем.

Texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan va ta’lim sohasida doimiy islohotlar o‘tkazilayotgan bugungi davrda, ayniqsa O‘zbekiston va Gruziya kabi boy madaniy merosga ega mamlakatlarda pedagogik an’analar hamon muhim ahamiyatini saqlab qolyapti. Bizni faqat tarix emas, balki ta’limga shaxsni shakllantirish jarayoni sifatida umumiy qarash ham birlashtiradi. Bu mavzuni Toshkentga tarbiya haqida ma’ruza o‘qish uchun tashrif buyurgan gumanist-pedagog Shalva Amonashvili bilan muhokama qilishga qaror qildik. U nima uchun ta’lim ma’naviyatsiz o‘z ma’nosini yo‘qotishi, bolani mehr bilan tarbiyalash va haqiqiy o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerakligi haqida so‘zlab berdi.

— ШАЛВА АЛЕКСАНДРОВИЧ, ЧТО ПОВЛИЯЛО НА ВАШЕ ПОНИМАНИЕ ВОСПИТАНИЯ И ЛЮБВИ?

— Трудно сказать однозначно. Наверное, вся моя жизнь, которую я прожил, начиная с младенчества... Мои родители были очень добрыми людьми. Отец работал в типографии, откуда часто приносил интересные книги. Мама была домохозяйкой, она полностью посвятила себя нашему с сестрой воспитанию. К сожалению, отец погиб на войне в 1942 году, и заботы о нас легли на плечи бабушки — мудрой и доброй женщины. Она читала мне молитвы, и хотя я не верил в Бога, её слова наполняли душу теплом. Каждый раз, когда она начинала молиться, я говорил ей, что Бога нет, а она отвечала: «Есть истинный Бог, а ты – просто слушай меня». И я с упоением слушал её голос. Эти воспоминания остались со мной навсегда.

Ещё одно очень важное обстоятельство. В школе я встретил настоящего наставника — мою учительницу Варвару Вардиашвили. Она и есть тот педагог, который помог мне стать тем, кем сейчас я являюсь. Фамилия Вардиашвили с грузинского переводится как «розовая», и это прекрасно отражает её характер. Она преподавала родной язык и литературу, и, в отличие от многих учителей, просто любила своих учеников. В школе не хватало любви — учителя были озабочены своими проблемами, и это отражалось на нас. В большинстве они были просто строгими и требовательными, а Варвара Вардиашвили была той, кто от природы любил детей, и именно в любви искала решение всех проблем. У неё я перенял многие принципы, впоследствии ставшие основой моей педагогической деятельности.

На моём пути встречались разные люди. Были те, кто дельно советовал, как стоит поступать в разных обстоятельствах, те, кто меня поддерживал и вёл по жизни. Но встречались и те, кто выражал своё несогласие с моими методами работы. Особенно это проявилось, когда я начал со своими коллегами проводить педагогические эксперименты — многие традиционалисты восстали против нас. Они не могли или просто не хотели принимать новые принципы воспитания, видели в нас угрозу для их канонов и методов преподавания. Мне приходилось сталкиваться с противодействием, доносами и клеветой. Иногда я чувствовал себя беспомощным, потому что у меня не было возможности защититься от их нападок. Но рядом всегда были люди, которые поддерживали, и это помогало двигаться вперёд.

ПРИ ГУМАННОМ ПОДХОДЕ К ВОСПИТАНИЮ У ДЕТЕЙ РАСКРЫВАЮТСЯ СПОСОБНОСТИ И ТАЛАНТЫ, О СУЩЕСТВОВАНИИ КОТОРЫХ МЫ ДАЖЕ НЕ ПОДОЗРЕВАЛИ.

TARBIYAGA INSONPARVARLIK BILAN YONDASHILSA, BOLALARDA BIZ XAYOLIMIZGA HAM KELTIRMAGAN QOBILIYAT VA ISTE’DODLAR NAMOYON BO‘LADI.

— SHALVA ALEKSANDROVICH, TA’LIM-TARBIYA VA MEHR HAQIDAGI TUSHUNCHANGIZGA NIMA TA’SIR QILDI?

– Buni bir so‘z bilan aytish qiyin. Menimcha, go‘dakligimdan boshlab kechirgan butun hayotim ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa kerak... Ota-onam juda mehribon insonlar edi. Otam bosmaxonada ishlar va tez-tez u yerdan qiziqarli kitoblar olib kelardi. Onam uy bekasi bo‘lib, o‘zini butunlay singlim bilan mening tarbiyamga bag‘ishlagan. Afsuski, otam 1942-yilda urushda halok bo‘ldi, tarbiyamiz oqila va mehribon buvimizning zimmasiga tushdi. U menga duolar o‘qir va garchi men Xudoga ishonmasam-da, uning so‘zlari qalbimni iliqlik bilan to‘ldirardi. U har safar ibodat qilishni boshlaganida, men unga Xudo yo‘qligini aytardim, u esa: “Haqiqiy Xudo bor, sen esa shunchaki menga quloq sol” der edi. Men uning ovozini zavq bilan tinglardim. Bu xotiralar men bilan abadiy qoldi.

Yana bir g‘oyat muhim jihat bor. Maktabda men haqiqiy ustoz – o‘qituvchim Varvara Vardiashvilini uchratdim. Hozirgi kunda shunday shaxs bo‘lib etishishimga sababchi pedagog – aynan shu inson. Vardiashvili familiyasi gruzinchadan “pushti” deb tarjima qilinadi, bu uning fe’l-atvorini juda yaxshi aks ettiradi. U ona tili va adabiyotdan dars berar, ko‘pchilik o‘qituvchilardan farqli o‘laroq, shunchaki o‘quvchilarini jon-dilidan yaxshi ko’rardi. Maktabda mehr-muhabbat yetishmasdi –o‘qituvchilar o‘z tashvishlari bilan band bo‘lar, bu esa bizga ta’sir qilardi. Ularning aksariyati shunchaki qattiqqo‘l va talabchan edi, Varvara Vardiashvili esa tabiatan bolajon bo’lib, barcha muammolarning yechimini aynan mehrda izlardi. Keyinchalik pedagogik faoliyatimning asosiga aylangan ko‘plab tamoyillarni aynan u kishidan o‘zlashtirganman. Hayotim davomida turli xil odamlarga duch keldim. Ular orasida turli vaziyatlarda qanday yo‘l tutishim kerakligi haqida o‘rinli maslahat bergan, meni qo‘llab-quvvatlagan va hayotda yo‘l ko‘rsatganlar bor edi. Ammo mening ish uslubimga e’tiroz bildirganlar ham uchrab turardi. Ayniqsa, hamkasblarim bilan pedagogik tajribalar o‘tkazishni boshlaganimda, bu yaqqol namoyon bo‘ldi – ko‘plab an’anaparast o‘qituvchilar bizga qarshi chiqishdi. Ular tarbiyaning yangi tamoyillarini qabul qila olishmasdi yoki shunchaki qabul qilishni istashmasdi, bizning timsolimizda o‘zlarining qonun va o‘qitish usullariga nisbatan xatarni ko‘rishdi. Qarshiliklar, chaquvlar va tuhmatlar bilan to‘qnashishga to‘g‘ri keldi. Ba’zida ularning hujumlaridan himoyalanish imkoniyatim yo‘qligi tufayli o‘zimni ojiz his qilardim. Ammo doimo atrofimda meni qo‘llab-quvvatlaydigan insonlar bor edi va bu olg‘a intilishimga yordam berardi.

— ВЫ БЫВАЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ РАНЕЕ? КАКИЕ ВПЕЧАТЛЕНИЯ У ВАС ОСТАЛИСЬ ОТ ПРОШЛЫХ ВИЗИТОВ?

— Впервые я приехал в Узбекистан в 1989 году. Тогда моя поездка была связана с выполнением особой миссии: я должен был отправиться в Афганистан в качестве представителя Верховного Совета СССР, чтобы освободить пленного грузина. После я ненадолго оказался в Ташкенте, но у меня почти не было времени познакомиться со страной.

Мой нынешний визит совсем другой. Я встречаюсь с учителями, наблюдаю за их работой и поражаюсь культуре уважения — чувствую её в общении с каждым, хоть ничем и не заслуживаю такого тепла от незнакомых мне людей. Не считаю, что сделал что-то особенное, за что меня облагораживают такими почестями, и всё же исключительное внимание, интеллигентность, стремление к знаниям меня искренне радуют. Особенно запомнилась встреча с учителями в нескольких школах: они слушали, задавали вопросы, стремились глубже понять гуманную педагогику. Их искренний интерес меня впечатлил, и я безмерно благодарен своим коллегам.

— ЧТО ДЛЯ ВАС ЗНАЧИТ ГУМАННАЯ ПЕДАГОГИКА, И КАК ЭТОТ ПОДХОД ДЕЛАЕТ ВОСПИТАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС БОЛЕЕ ЧЕЛОВЕЧНЫМ?

— Будет не совсем неправильным говорить, что гуманная педагогика делает более человечным воспитательный процесс, она его в целом очеловечивает. Это не просто методика, а целая философия. Её корни уходят в труды Коменского, Песталоцци, Ушинского, Сухомлинского, Монтессори. Я попытался создать систему взглядов и идеологии, смесь психологии с философией, которые помогли бы современным учителям осознать и принять новые принципы. Время идёт, и всё за собой меняет. Даже точные науки подвержены изменениям, что уж говорить об искусстве? А педагогика — искусство.

Главенствующее понятие в гуманной педагогике — духовность. Если родители воспитывают ребёнка в любви и уважении, они сами приходят к гуманному подходу. Но если они подменяют гуманность авторитарностью (а многие любят это делать), то настоящая педагогика превращается в инструмент давления. А после жалуются, что наши принципы не действенны, хотя по сути применяют авторитарное воспитание. Также многие учителя говорят, что любят детей. Но разве любовь может проявляться только через контрольные работы, оценки, вызовы родителей в школу? Такие методы не способствуют любви. Как ученик может полюбить учителя, который проводит контрольную работу, затем красными чернилами подчеркивает ошибки, а потом ещё и ругает: «Почему у тебя такие ошибки? Я же много раз объяснял!». В такой атмосфере нет места для любви. Раздражённый учитель передаёт свое раздражение ребенку, и ни к чему благому это не ведет.

Получается, что в школе нет ни полноценного образования, ни воспитания в классическом смысле. Образованием называют обычный процесс обучения, подменяя понятия. Но образование — это нечто большее. Даже не большее, а главное. Оно охватывает не только обучение, но и развитие, взращивание личности и многое другое. Однако полноценного образовательного процесса у нас нет, хотя мы выдаём аттестаты о среднем образовании.

КАЖДЫЙ РОДИТЕЛЬ ЖЕЛАЕТ СВОЕМУ РЕБЁНКУ СЧАСТЬЯ. НО ЧТО ЭТО ТАКОЕ? ДУХОВНОЕ? ТОГДА ПОЧЕМУ МЫ НЕ ПРИВИВАЕМ ЕГО С РАННЕГО ДЕТСТВА? МАТЕРИАЛЬНОЕ? НО ЯВЛЯЕТСЯ ЛИ ЭТО ИСТИННЫМ СЧАСТЬЕМ? Я УБЕЖДЁН: НАСТОЯЩЕЕ СЧАСТЬЕ – В ЛЮБВИ!

HAR BIR OTA-ONA FARZANDIGA BAXT TILAYDI. LEKIN BU NIMA O‘ZI? MA’NAVIY BOYLIKMI? UNDAY BO‘LSA, NEGA UNI BOLALIKDAN BOSHLAB SINGDIRMAYMIZ? MODDIYMI? AMMO BU CHINAKAM BAXTMI? ISHONCHIM KOMIL: HAQIQIY BAXT – MUHABBATDA!

— SIZ ILGARI HAM O‘ZBEKISTONDA BO‘LGANMISIZ? AVVALGI TASHRIFLARINGIZDAN QANDAY TAASSUROTLAR QOLGAN?

— O‘zbekistonga ilk bor 1989-yilda kelganman. O‘sha paytda safarim alohida vazifani bajarish bilan bog‘liq edi: asirga olingan gruzinni ozod qilish uchun SSSR Oliy Kengashi vakili sifatida Afg‘onistonga borishim kerak edi. Shundan so‘ng qisqa muddat Toshkentda bo‘ldim, biroq mamlakat bilan yaqindan tanishishga deyarli vaqtim bo‘lmadi. Bu galgi tashrifim umuman boshqacha. O‘qituvchilar bilan uchrashib, ularning faoliyatini kuzatar ekanman, hurmat madaniyatiga qoyil qoldim – garchi notanish insonlardan buni kutmasam-da, ularning har biri bilan muloqotda samimiylikni his qilaman. O‘zimni bunday hurmat-ehtiromga sazovor bo‘ladigan biror ish qildim, deb hisoblamayman. Shunga qaramay, menga ko‘rsatilayotgan alohida e’tibor, ziyolilik va bilimga chanqoqlik – bularning barchasi meni chin dildan quvontiradi. Ayniqsa, bir nechta maktablardagi o‘qituvchilar bilan uchrashuv yodimda qoldi: ular meni diqqat bilan tinglab, savollar berib, insonparvar pedagogikani chuqurroq anglab olishga intilishdi. Ularning samimiy qiziqishi meni hayratga soldi va men hamkasblarimdan cheksiz minnatdorman.

— SIZ UCHUN INSONPARVAR PEDAGOGIKA NIMANI ANGLATADI VA BU YONDASHUV QANDAY QILIB TARBIYA JARAYONINI YANADA INSONIYLASHTIRADI?

— Insonparvar pedagogika tarbiya jarayonini yanada insoniyroq qiladi deyish noto‘g‘ri bo‘lmaydi. U bu jarayonni butunlay insoniylashtiradi. Bu shunchaki metodika emas, balki butun bir falsafa. Uning negizi Komenskiy, Pestalotssi, Ushinskiy, Suxomlinskiy, Montessori asarlariga borib taqaladi. Men zamonaviy o‘qituvchilarga yangi tamoyillarni anglash va qabul qilishda yordam beradigan qarashlar va g‘oyalar tizimini, psixologiya va falsafa uyg‘unligini yaratishga harakat qildim. Vaqt o‘tishi bilan hamma narsa o‘zgaradi. Hatto aniq fanlar ham o‘zgarishga uchrar ekan, san’at borasida gapirishga hojat ham yo‘q. Pedagogika esa – san’at.

Insonparvar pedagogikaning asosiy tushunchasi – ma’naviyat. Farzandini mehr-muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalayotgan ota-onaning o‘zi ham insoniy yondashuvga keladi. Biroq, insonparvarlik avtoritarlikka almashtirilsa (ko‘pchilik buni yaxshi ko‘radi), haqiqiy pedagogika bosim o‘tkazish vositasiga aylanadi. So‘ngra avtoritar tarbiyani qo‘llayotgan holda tamoyillarimiz samarasiz ekanidan nolishadi. Shuningdek, ko‘plab o‘qituvchilar bolalarni sevishini ta’kidlaydi. Ammo mehr-muhabbat faqat nazorat ishlari, baholar, ota-onalarni maktabga chaqirish orqali namoyon bo‘lishi mumkinmi? Bu usullar bilan mehr-muhabbat qozonilmaydi. Nazorat ishi o‘tkazgandan keyin qizil siyoh bilan xatolar tagiga chizib, “Nima uchun bunday xatolar bor? Axir necha marta tushuntirganman!”, deb dakki beradigan o‘qituvchini o‘quvchi qanday qilib yaxshi ko’rsin? Bunday muhitda mehrga o‘rin yo‘q. Achchiqlangan o‘qituvchi o‘z jahlini bolaga sochadi va bu yaxshilikka olib kelmaydi. Bundan kelib chiqadiki, maktabda klassik ma’nodagi to‘laqonli ta’lim ham, tarbiya ham yo‘q. Tushunchalarni almashtirish orqali odatdagi o‘qitish jarayoni ta’lim deb ataladi. Aslida, ta’lim – kengroq tushuncha. Hatto kengroq emas, balki asosiy tushuncha. U nafaqat o‘qitishni, balki tarbiya, rivojlanish, shaxsni shakllantirish va boshqa ko‘p jihatlarni qamrab oladi. Garchi o‘rta ma’lumot haqidagi shahodatnomalarni berayotgan bo‘lsak-da, bizda to‘laqonli ta’lim jarayoni mavjud emas.

Но есть ли у ребёнка среднее образование? У него имеется лишь определённый набор знаний, который мы условно называем средним уровнем. Однако образованность — это не просто знания. Это умение мыслить, смотреть на мир философски. Это вера во что-то святое. Школа должна дать ребенку основу, на которую он сможет опираться в жизни. Дайте ему что-то святое — нравственные ориентиры, понимание того, что важно любить и уважать других, или хотя бы покажите, что в мире существуют разные взгляды, ведь ребенок должен знать об этом и иметь возможность сделать свой выбор.

А что дает школа? Только знания без понимания об их применении. Так гуманная педагогика подменяется авторитарными ценностями. Вот простой пример: в некоторых религиях считается, что земная жизнь — это подготовка к вечности. Почему же нельзя сказать ребенку: «Есть разные точки зрения. Одни говорят, что души нет, а значит, нет и вечности. Другие — что душа существует». У него должен быть выбор. В этом и есть суть гуманной педагогики. Она даёт свободу выбора, взращивает не только интеллект, но и дух человека.

Любить ребёнка можно по-разному. Можно эгоистично: «Это моя радость, моё будущее, моё золото», а можно осознанно, понимая, что это не просто твой ребенок, а душа, доверенная тебе для воспитания. Истинное воспитание — это подготовка человека к тому, чтобы он приносил счастье другим.

Гуманная педагогика напоминает: любите детей, следуйте этим заповедям. Учитель — тот, кто несёт свет, и если этот свет горит внутри, то даже предмет, который он преподаёт, обретает новый смысл. Школа должна не просто учить, а взращивать личность. Тогда мы получим не просто учеников, а мыслящих, духовно богатых людей. Настоящее образование — это воспитание духа, а не одна лишь передача знаний.

Xo'sh, bolaning o'rta ma'lumoti bormi? Unda shunchaki biz shartli ravishda o'rta daraja deb ataydigan ma'lum bir bilimlar to'plami mavjud, xolos. Biroq, o'qimishlilik faqat bilimdan iborat emas. Bu fikrlash, dunyoga falsafiy nazar solish qobiliyati. Bu muqaddas narsaga ishonchdir. Maktab bolaga hayotda tayanch bo'la oladigan asos berishi lozim. Unga biror muqaddas narsa – axloqiy ko'rsatmalar, boshqalarni yaxshi ko'rish va hurmat qilish muhimligi tushunchasini bering. Yoki hech bo'lmaganda, dunyoda turli xil qarashlar borligini ko'rsating, chunki bola bu haqda bilishi va o'z tanlovini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Maktab nima beradi? Bilimlarni, ularni qo'llash haqidagi tushunchasiz beradi, xolos. Shu tariqa insonparvar pedagogika avtoritar qadriyatlarga almashtiriladi. Mana oddiy misol: ayrim dinlarda yerdagi hayot abadiylikka tayyorgarlik deb qaraladi. Bolaga: "Turli xil qarashlar bor. Ba'zilar ruh yo'q, demak, mangulik ham yo'q, deydi. Boshqalar esa ruh bor deb ta'kidlaydi" deyish mumkin-ku. Bola tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Insonparvar pedagogikaning mohiyati ham ana shunda. U tanlash erkinligini beradi, nafaqat aqlni, balki insonning ruhini ham shakllantirib boradi. Bolani turlicha sevish mumkin. Xudbinlarcha: "Bu mening quvonchim, mening kelajagim, mening oltinim" deyish mumkin. Yoki ongli ravishda, u shunchaki farzandingiz emas, balki sizga tarbiyalash uchun ishonib topshirilgan qalb ekanini anglash ham mumkin. Haqiqiy tarbiya – insonni boshqalarga baxt keltiradigan qilib tayyorlash. Insonparvar pedagogika quyidagilarni ta'kidlaydi: bolalarni seving va ushbu ko'rsatmalarga amal qiling. O'qituvchi – ziyo taratuvchi zot. Agar bu nur uning qalbida yonib tursa, u o'qitayotgan fan ham yangicha mazmun kasb etadi. Maktab shunchaki bilim berish bilan cheklanmay, shaxsni shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Shunda biz oddiy o'quvchilar emas, balki fikrlovchi, ma'naviy boy insonlarni tarbiyalaymiz. Haqiqiy ta'lim shunchaki bilim berish emas, balki ruhni tarbiyalash hisoblanadi.

— КАКИЕ ЦЕННОСТИ ВЫ СЧИТАЕТЕ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫМИ ДЛЯ КРЕПКОЙ СЕМЬИ И УСПЕШНОГО ВОСПИТАНИЯ?

— Ценность, о которой я хочу рассказать, — не только моя личная. Это универсальный принцип, основа семьи и самой жизни. Речь идет об искренней любви между супругами — любви, которая рождает заботу друг о друге и о детях, оставляя конфликтам все меньше места.

Конечно, разногласия неизбежны. Но что значит любить? Это уметь прощать и уступать. Тот, кто первым делает шаг навстречу, проявляет мудрость и силу духа. Сказать: «Да, дорогая, какая разница? Я тебя люблю. Поступай, как считаешь нужным. Хочешь поехать — поедем. Не хочешь — хорошо, останемся». И тогда она, чувствуя заботу, ответит тем же: «Милый, я тебе доверяю. Давай сделаем так, как ты предлагаешь».

Так исчезают конфликты, а взаимопонимание становится крепче. Это и есть настоящая семья — когда есть доверие, любовь становится глубже, прочнее, наполненяясь истинной заботой.

Молодым парням и девушкам, которые только собираются создать семью, кто-то должен объяснить: «Сынок, жениться — это легко, но за этим стоит нечто гораздо более сложное. Ты уже не один, вас двое. Ты теряешь часть своей свободы, потому что теперь должен считаться с мнением близкого тебе человека. Ты обещал сделать её счастливой — значит держи это обещание». Об этом необходимо говорить, ведь основы семейной жизни — это в первую очередь гуманные ценности.

— КАК ВЫ ОБЪЕДИНЯЕТЕ ЛИЧНЫЕ УБЕЖДЕНИЯ С ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ В ВОСПИТАНИИ?

— Профессиональная деятельность неизбежно становится частью личных убеждений — всё в жизни переплетено. Я не подстраиваюсь под обстоятельства, а остаюсь собой. Не профессия определяет меня, а я сам наполняю её своим характером, своими ценностями. Именно так я строю свою работу в образовании.

Учитель не должен обижать детей. Даже в самых строгих школах он обязан уважать их — таков закон. Но в реальности это часто нарушается. Почему? Потому что личные качества порой подменяют собой правила, а гуманная педагогика по своей природе добра. Она не зависит от внешних условий. Где бы я ни находился — на встрече, за обедом, перед аудиторией — мои внутренние ценности, философия и взгляды на мир всегда проявляются.

Профессия — это нечто глубоко личное. Одни воспринимают работу как отдельную часть жизни: пришёл, отработал, ушёл. Для меня же она — продолжение моего характера, моего мировоззрения.

Есть мнение, что люди носят разные маски: ребёнка — перед родителями, друга — среди близких, ученика — перед учителем. Но я считаю, что лучше быть собой везде. Не скрываться за образами, не подстраиваться, а оставаться тем, кто ты есть. Я не меняюсь в зависимости от собеседника. Будь то разговор с вами, общение с сыном, коллегами или друзьями — я остаюсь собой. Ведь маска — это попытка спрятать истину, а я выбираю искренность. В семье, в профессии, в жизни.

ПРИ АВТОРИТАРНОМ ВОСПИТАНИИ РОДИТЕЛЬ ОБЛАДАЕТ ПОЛНОЙ ВЛАСТЬЮ НАД РЕБЁНКОМ. ЕСЛИ ДЕТИ НЕ ХОТЯТ ЧТО-ЛИБО ДЕЛАТЬ, ИХ ПРИНУЖДАЮТ СИЛОЙ ИЛИ НАКАЗАНИЕМ. ЭТО ЛИШАЕТ ДЕТЕЙ САМОСТОЯТЕЛЬНОСТИ И ОТНИМАЕТ У НИХ БУДУЩЕЕ.

AVTORITAR TARBIYADA OTA-ONABOLAGA TO'LIQ HUKMRONLIK QILADI. AGAR BOLALAR BIROR NARSANI QILISHNI XOHLAMASALAR, ULARNI KUCH ISHLATIB YOKI JAZOLAB MAJBURLAYDILAR. BU BOLALARNI MUSTAQILLIKDAN MAHRUM QILADI VA ULARNING KELAJAGINI TORTIB OLADI.

— QAYSI QADRIYATLARNI MUSTAHKAM OILA VA MUVAFFAQIYATLI TARBIYANING ASOSI DEB HISOBLAYSIZ?

– Men aytmoqchi bo'lgan qadriyat faqatgina mening shaxsiy qadriyatlarim emas. Bu universal tamoyil, oila va hayotning asosi. Gap er-xotin o'rtasidagi samimiy, bir-biriga va farzandlarga g'amxo'rlik tuyg'usini uyg'otadigan, kelishmovchiliklarga tobora kamroq joy qoldiradigan muhabbat haqida ketmoqda.

Albatta, o'zaro kelishmovchiliklar bo'lishi muqarrar. Ammo sevgi nima? Bu kechira olish va yon bera olishni anglatadi. Ilk qadamni qo'ygan kishi donolik va matonat ko'rsatgan bo'ladi. "Ha, azizam, nima farqi bor? Men seni sevaman. Qanday lozim topsang, shunday qil. Borishni xohlayotgan bo'lsang – boramiz. Xohlamasang – mayli, qolamiz" deb aytish mumkin. Shunda u g'amxo'rlikni his qilib, xuddi shu tarzda: "Azizim, men sizga ishonaman. Keling, siz taklif qilgandek ish tutaylik", deb javob beradi.

Shu tariqa ziddiyatlar barham topadi, o'zaro munosabatlar esa mustahkamlanadi. Ishonch bo'lganda mehr-muhabbat chuqurlashadi, chinakam g'amxo'rlikka to'lib kuchayadi – mana shu haqiqiy oila degani. Oila qurishga tayyorlanayotgan yosh yigit-qizlarga kimdir: "O'g'lim, uylanish oson, lekin buning ortida ancha murakkab narsalar bor. Endi sen yolg'iz emas, ikkita bo'lasizlar. O'z erkinligingning bir qismini yo'qotasan, chunki endi yaqin odamingning fikri bilan hisoblashishing kerak bo'ladi. Sen uni baxtli qilishga va'da bergansan – demak, shu va'dangni bajarishing shart" deb aytishi kerak. Bu haqda gapirish zarur. Axir oilaviy hayotning asoslari, birinchi navbatda, insoniy qadriyatlar hisoblanadi.

— SHAXSIY E'TIQODLAR BILAN TARBIYADAGI KASBIY FAOLIYATINGIZNI QANDAY QILIB BIRLASHTIRASIZ?

– Kasbiy faoliyat muqarrar tarzda shaxsiy e'tiqodlarning bir qismiga aylanadi – hayotda barcha narsa o'zaro bog'liq. Men vaziyatga moslashmayman, balki o'zligimcha qolaman. Kasbim meni emas, balki men o'z fe'l-atvorim va qadriyatlarim bilan kasbimga mazmun beraman. Ta'lim sohasidagi faoliyatimni aynan shu tarzda olib boraman.

O'qituvchi bolalarga ozor bermasligi kerak. Hatto eng qattiqqo'l maktablarda ham u o'quvchilarni hurmat qilishi shart – qonun shuni taqozo etadi. Biroq amalda bu ko'pincha buziladi. Nima uchun? Chunki shaxsiy xislatlar ba'zan qoidalar o'rnini bosadi. Insonparvar pedagogika esa o'z tabiatiga ko'ra ezgulikka asoslangan. U tashqi sharoitlarga bog'liq emas. Uchrashuvda, tushlikda, tinglovchilar oldida – qayerda bo'lmayin, mening ichki qadriyatlarim, falsafam va dunyoqarashim har doim namoyon bo'ladi. Kasb bu – o'ta shaxsiy narsa. Ayrimlar ishni hayotning alohida qismi, ya'ni keldi, ishladi, ketdi qabilida tushunadi. Men uchun esa bu fe'l-atvorim va dunyoqarashimning davomi. Odamlar turli niqoblar, ya'ni ota-onasi oldida – farzand, yaqinlari oldida – do'st, ustozi oldida – o'quvchi niqobini taqadi degan fikr bor. Ammo men har doim o'zligimizcha qolishimiz kerak, deb o'ylayman. Turli qiyofalar ortiga yashirinmasdan, o'zgalarga moslashmasdan, aksincha o'zligimizcha qolishimiz maqsadga muvofiq. Men suhbatdoshimga qarab o'zgarmayman. Siz bilan suhbatda ham, o'g'lim, hamkasblarim yoki do'stlarim bilan muloqot qilganda ham o'zligimcha qolaveraman. Zero, niqob haqiqatni yashirishga urinish, men esa samimiyatni tanlayman. Oilada ham, kasbda ham, hayotda ham.

— КАКИЕ РАЗЛИЧИЯ И ОБЩИЕ ЧЕРТЫ В ПОДХОДАХ К ВОСПИТАНИЮ ВЫ ЗАМЕТИЛИ МЕЖДУ ГРУЗИЕЙ И УЗБЕКИСТАНОМ?

— Грузинское традиционное воспитание сохраняет множество ценных качеств, хотя некоторые из них в современных реалиях требуют переосмысления. Но среди его главных достоинств — глубокое уважение к старшим, особая почтительность к женщинам, крепкие семейные узы, преданность и любовь к родителям. Эти ценности с детства формируют в человеке ответственность, уважение и чувство долга, создавая прочный фундамент для гармоничного общества.

Подобные традиции присущи и узбекской культуре. Они передаются из поколения в поколение, сохраняя духовную опору в мире, где традиции постепенно размываются. Однако важно не только беречь их, но и адаптировать к современности, чтобы они оставались жизнеспособными и полезными для будущих поколений. Вместе с тем некоторые устоявшиеся убеждения могут быть не только ошибочными, но и вредными. Например, выражение: «Если хочешь, чтобы ребёнок стал тебе другом — воспитывай его врагом» не выдерживает критики. Доверие и уважение не строятся на страхе и противостоянии. Нельзя ожидать дружбы, если воспитывать ребёнка в атмосфере конфликта.

Дети, растущие в постоянной борьбе, не учатся любви и доверию. Напротив, у них формируются агрессия, настороженность, стремление к соперничеству. Они начинают воспринимать мир как поле битвы, а близких — как конкурентов. Но разве это основа для крепкой семьи?

Кем воспитываешь ребёнка, тем он и станет. Если взращивать вражду, — он будет видеть вокруг себя врагов. Если же окружить его любовью, уважением и поддержкой, он научится отвечать тем же. Семья — это не место для борьбы за власть, а пространство доверия, понимания и заботы. Только так можно создать общество, где уважение рождается не из страха, а из искренней любви.

— GRUZIYA VA O'ZBEKISTONDAGI TARBIYAGA BO'LGAN YONDASHUVLARDA QANDAY FARQ VA O'XSHASH JIHATLARNI KO'RDINGIZ?

— Garchi zamonaviy sharoitlarda ayrim fazilatlarning qayta ko'rib chiqilishi talab etilsa-da, gruzinlarning an'anaviy tarbiyasi ko'plab qimmatli fazilatlarni saqlab kelmoqda. Lekin asosiy fazilatlar qatorida kattalarga bo'lgan cheksiz hurmat, ayollarga bo'lgan alohida ehtirom, mustahkam oilaviy rishtalar, ota-onaga bo'lgan sadoqat va mehr-muhabbatni sanab o'tish mumkin. Bu qadriyatlar bolalikdan insonda mas'uliyat, hurmat va burch tuyg'usini shakllantirib, uyg'un jamiyat uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Bunday an'analar o'zbek madaniyatiga ham xos. Ular avloddan avlodga o'tib, an'analar asta-sekin yo'qolib borayotgan dunyoda ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Biroq, ularni nafaqat asrab-avaylash, balki kelajak avlodlarga hayotiy va foydali bo'lib qolishi uchun zamonaviy voqelikka moslashtirishga ham e'tibor qaratish muhim. Shu bilan birga, ayrim o'rnashib qolgan qarashlar nafaqat noto'g'ri, balki zararli ham bo'lishi mumkin. Masalan, "Agar farzanding senga do'st bo'lishini istasang, uni dushman sifatida tarbiyala" degan ibora tanqidga arzimaydi. Ishonch va hurmat qo'rquv va qarshilik asosida qurilmaydi. Bolani nizoli muhitda tarbiyalab, undan do'stlik kutib bo'lmaydi.

Doimiy kurashda o'sgan bolalar mehr-muhabbat va ishonchni o'rganmaydi. Aksincha, ularda tajovuzkorlik, hadiksirash, raqobatga intilish hissi shakllanadi. Ular dunyoni jang maydoni, yaqinlarini esa raqiblar sifatida ko'rishni boshlaydi. Axir, bu mustahkam oila uchun poydevor bo'la oladimi?

Bolani qanday tarbiyalasang, o'shanday bo'ladi. Agar xusumat parvarish qilinsa – atrofida dushmanlarni ko'radi. Agar uni mehr-muhabbat, hurmat va qo'llab-quvvatlash muhitida o'stirsangiz, u xuddi shunday javob berishni o'rganadi. Oila – hokimiyat uchun kurash maydoni emas, balki ishonch, hamjihatlik va g'amxo'rlik makoni. Faqat shundagina hurmat qo'rquvdan emas, balki samimiy muhabbatdan tug'iladigan jamiyatni yaratish mumkin.

— ГРУЗИЯ И УЗБЕКИСТАН — СТРАНЫ С БОГАТЫМИ ЧАЙНЫМИ ТРАДИЦИЯМИ. В ЭТОМ ВЫПУСКЕ ЖУРНАЛА МЫ УДЕЛИЛИ ОСОБОЕ ВНИМАНИЕ ЧАЙНЫМ ЦЕРЕМОНИЯМ. СКАЖИТЕ, А КАКОЙ ЧАЙ ПРЕДПОЧИТАЕТЕ ВЫ?

— Мы всей семьёй обожаем травяные чаи – они наполняют дом уютом и дарят настоящее тепло. Если выбирать между черным и зелёным, чаще склоняюсь к зелёному – его свежий, слегка терпкий вкус бодрит и дарит ощущение гармонии. А ещё мне нравится открывать для себя новые вкусы и пробовать экзотические чаи. Одним из самых приятных открытий для меня стал узбекский горный чай – он удивительно ароматный, насыщенный и оставляет после себя приятное послевкусие, словно переносит в горные долины, наполненные природной свежестью и силой.

— КАКИЕ СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ В ВОСПИТАНИИ ВЫ СЧИТАЕТЕ НАИБОЛЕЕ АКТУАЛЬНЫМИ, И КАК ВАШ ПОДХОД ПОМОГАЕТ ИХ ПРЕОДОЛЕВАТЬ?

— Одна из главных проблем современного образования — утрата духовности. Причем дело не в том, что её вовсе нет, а в том, что авторитарная система просто не оставляет для неё места. Но духовность нельзя насильно внедрить — её невозможно регламентировать или прописать в стандартах. Единственный выход — дать устаревшей системе дожить свой век и уступить место гуманному образованию, основанному на уважении, развитии личности и осмысленном обучении. Некоторые учителя продолжают работать по старым методам, потому что иначе не могут. Пусть так. Но есть и те, кто готов строить новое — именно их нужно поддерживать.

Школу невозможно реформировать сверху. Можно обновить учебники, изменить стандарты, поставить новые парты и оснастить классы современной техникой. Но если не изменится сам учитель, если не произойдет «реформа» его души, подлинного обновления школы не случится. Это может звучать немного грустно, но такова реальность. Гуманная педагогика возвращает в образование духовную составляющую, которой так не хватает. Я убежден: стоит изменить лишь этот один аспект, и многие проблемы решатся сами собой.

ПОЛНОТА ГУМАННОЙ ЛИЧНОСТИ РАСКРЫВАЕТСЯ НЕ ТОЛЬКО ЧЕРЕЗ ДОБРЫЕ ПОСТУПКИ, НО И ЧЕРЕЗ ИСКРЕННЮЮ ВЕРУ В ИХ ПРАВИЛЬНОСТЬ И НЕОБХОДИМОСТЬ.

INSONPARVAR SHAXSNING TO'LAQONLILIGI NAFAQAT YAXSHI AMALLAR ORQALI, BALKI ULARNING TO'G'RILIGI VA ZARURLIGIGA BO'LGAN SAMIMIY ISHONCH ORQALI HAM NAMOYON BO'LADI.

— GRUZIYA VA O'ZBEKISTON CHOY AN'ANALARIGA BOY MAMLAKATLARDIR. JURNALNING BU SONIDA CHOY MAROSIMLARIGA ALOHIDA E'TIBOR QARATDIK. AYTING-CHI, SIZ QAYSI CHOYNI AFZAL KO'RASIZ?

— Butun oilamiz bilan o'tli choylarni juda yaxshi ko'ramiz – ular uyni shinamlikka to'ldiradi va haqiqiy iliqlik baxsh etadi. Agar qora yoki ko'k choyni tanlash kerak bo'lsa, ko'pincha ko'k choyga moyil bo'laman – uning yangi, biroz taxir ta'mi tetiklashtiradi va uyg'unlik hissini beradi. Bundan tashqari, men o'zim uchun yangi ta'mlarni kashf etishni va ekzotik choylarni tatib ko'rishni yoqtiraman. Men uchun eng yoqimli kashfiyotlardan biri o'zbek tog' choyi bo'ldi – u hayratlanarli darajada xushbo'y, to'yimli va o'zidan keyin yoqimli ta'm qoldiradi, go'yo sizni tabiiy tarovatga va kuch-quvvatga to'la tog' vodiylariga olib ketgandek bo'ladi.

— TARBIYADAGI QAYSI ZAMONAVIY MUAMMOLARNI ENG DOLZARB DEB HISOBLAYSIZ VA YONDASHUVINGIZ ULARNI BARTARAF ETISHGA QANDAY YORDAM BERADI?

— Zamonaviy ta'limning eng muhim muammolaridan biri — ma'naviyatning yo'qotilgani. Masala uning umuman mavjud emasligida emas, balki avtoritar tizim unga joy qoldirmayotganida. Ammo ma'naviyatni majburlab singdirib — me'yorlab yoki standartlarni belgilab bo'lmaydi. Yagona chora — eskirgan tizimga o'z umrini yashab, o'rnini hurmat, shaxs rivojlanishi va ongli maorifga asoslangan insonparvar ta'limga bo'shatishiga imkon berish bo'ladi. Ba'zi o'qituvchilar boshqa usulda ishlay olmagani uchun eski tartibda ishlashda davom etmoqda. Mayli, shunday bo'la qolsin. Ammo yangi narsalarni qurishga tayyor bo'lganlar ham bor — aynan ularni qo'llab-quvvatlash kerak.

Maktabni yuqoridan turib isloh qilib bo'lmaydi. Darsliklarni yangilash, standartlarni o'zgartirish, yangi partalar qo'yish, sinflarni zamonaviy texnikalar bilan jihozlash mumkin. Lekin o'qituvchining o'zi o'zgarmasa, uning qalbi "isloh" qilinmasa, maktabning chinakam yangilanishi ro'y bermaydi.

Bu biroz g'amgin eshitilishi mumkin, ammo haqiqat shunday. Insonparvar pedagogika ta'limga yetishmayotgan ma'naviy jihatni qaytaradi. Ishonchim komilki, faqat shu birgina jihatni o'zgartirsak, ko'pgina muammolar yechimi o'z-o'zidan topiladi.



— КАКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ВЫ ДАЛИ БЫ ТЕМ, КТО ТОЛЬКО НАЧИНАЕТ СВОЙ ПУТЬ В ПЕДАГОГИКЕ И СТРЕМИТСЯ К ГУМАННОМУ ВИДЕНИЮ ОБУЧЕНИЯ?

— Если молодой педагог приходит в школу после университета, ему важно сразу ориентироваться на передовые идеи. Не стоит просто воспроизводить шаблоны, заложенные в вузе и укоренившиеся в школьной системе. Нужно осознанно освобождаться от устаревших подходов и строить обучение на новых принципах. Настоящий новый учитель — это не тот, кто молод по возрасту, а тот, у кого свежие, смелые идеи. Возраст не имеет значения. Разве можно назвать «старым» человека, который приносит в образование что-то новое? Конечно, нет. Именно идеи делают нас молодыми.

Поэтому начинать стоит с ключевых понятий — духовности, любви, уважения. Да, на этом пути будет немало трудностей, но главное — не возвращаться к авторитарным методам, не поддаваться сомнениям, не говорить себе: «А вдруг я ошибаюсь?» или «Проще идти по старой, проторённой дороге». Прошлое завершено, оно больше не существует.

Важно смотреть только вперёд — в мир, где именно учитель способен изменить систему к лучшему и найти настоящее призвание в своей профессии.

— КАК ВЫ ВИДИТЕ БУДУЩЕЕ ОБРАЗОВАНИЯ, ГДЕ ГЛАВНЫМИ ОСТАЮТСЯ ЛЮБОВЬ, УВАЖЕНИЕ И ВЗАИМОПОНИМАНИЕ?

— Знаете, вчера я видел удивительное здание, впечатляющее по своим масштабам пространство дивной красоты. Многие представляют школу будущего как ультрасовременное здание, оснащённое новейшими технологиями, с компьютерами в каждом классе и обновлёнными программами. Но всё это — лишь внешняя оболочка.

Настоящее будущее школы определяется не техникой, а учителем. Именно его характер, его взгляды формируют новое образование. Когда в школу приходит педагог с живым, свободным мышлением, он уже сейчас создаёт школу будущего. Такой учитель не цепляется за прошлое, а открывает путь вперёд, вдохновляя учеников и коллег. Его уважают, у него учатся, он становится проводником перемен. Школа будущего — это не стены и не технологии. Это сердце и ум учителя, который меняет образование изнутри.

ПОЛНОТА ГУМАННОЙ ЛИЧНОСТИ РАСКРЫВАЕТСЯ НЕ ТОЛЬКО ЧЕРЕЗ ДОБРЫЕ ПОСТУПКИ, НО И ЧЕРЕЗ ИСКРЕННЮЮ ВЕРУ В ИХ ПРАВИЛЬНОСТЬ И НЕОБХОДИМОСТЬ.

INSONPARVAR SHAXSNING TO‘LAQONLILIGI NAFAQAT YAXSHI AMALLAR ORQALI, BALKI ULARNING TO‘G‘RILIGI VA ZARURLIGIGA BO‘LGAN SAMIMIY ISHONCH ORQALI HAM NAMOYON BO‘LADI.

— PEDAGOGIKA SOHASIGA ENDIGINA QADAM QO‘YAYOTGAN VA TA’LIMNI INSONPARVARLIK NUQTAI NAZARIDAN KO‘RISHGA INTILAYOTGANLARGA QANDAY TAVSIYALAR BERGAN BO‘LARDINGIZ?

— Universitetni tugatib maktabga kelgan yosh o‘qituvchi darhol ilg‘or g‘oyalarga e’tibor qaratishi muhim. Shunchaki oliy o‘quv yurtida shakllangan va maktab tizimida ildiz otgan qoliplarni takrorlamaslik kerak. Ongli ravishda eskicha yondashuvlardan voz kechib, ta’limni yangi tamoyillar asosida tashkil etish kerak.

Haqiqiy yangi o‘qituvchi — bu yoshiga ko‘ra emas, balki yangi, dadil g‘oyalarga ega bo‘lgan kishi. Yosh muhim emas. Ta’limga yangilik olib kirayotgan insonni “qari” deb atash mumkinmi? Albatta, yo‘q. Aynan g‘oyalar bizni yosh qilib turadi.

Shuning uchun asosiy tushunchalar — ma’naviyat, mehr-muhabbat, hurmatdan boshlash kerak. Ha, bu yo‘lda ko‘plab qiyinchiliklar bo‘ladi, ammo eng muhimi — avtoritar usullarga qaytmaslik, shubhalarga yengilmaslik, o‘zingizga: “Ehtimol, men xato qilayotgandirman?” yoki “Eski, sinab ko‘rilgan yo‘ldan yurish osonroq” deb aytmaslik kerak. O‘tmish yakuniga yetgan, u endi yo‘q. Faqat oldinga — tizimni aynan o‘qituvchi yaxshilashga qodir bo‘lgan va o‘z kasbida haqiqiy maqsadini topa oladigan dunyoga qarash muhim.

— MEHR-MUHABBAT, HURMAT VA O‘ZARO HAMJIHATLILIK USTUVOR BO‘LADIGAN TA’LIM KELAJAGINI QANDAY TASAVVUR QILASIZ?

— Bilasizmi, kecha o‘z ko‘lami va betakror go‘zalligi bilan hayratga soladigan binoni ko‘rdim. Ko‘pchilik kelajak maktabini eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan, har bir sinfda kompyuterlar o‘rnatilgan va yangilangan dasturlar mavjud ultra zamonaviy bino sifatida tasavvur qiladi. Biroq, bularning barchasi faqatgina tashqi ko‘rinish.

Maktabning haqiqiy kelajagi texnika bilan emas, o‘qituvchi bilan belgilanadi. Yangi ta’limni aynan uning fe’l-atvori, qarashlari shakllantiradi. Maktabga kelgan jonli, erkin fikrlaydigan pedagog shu ondayoq kelajak maktabini yaratishni boshlaydi. Bunday o‘qituvchi o‘tmishga bog’lanib qolmasdan, aksincha, o‘quvchilar va hamkasblarini ilhomlantirgan holda oldinga yo‘l ochadi. Uni hurmat qilishadi, undan o‘rganishadi, u o‘zgarishlar yo‘lboshchisiga aylanadi. Kelajak maktabi devorlar yoki texnologiyalardan iborat emas. Bu ta’limni ichkaridan o‘zgartirishga qodir bo‘lgan o‘qituvchining qalbi va aqlidir.

CENTRUMAIR РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

Ташкент TAS — 3 часа 20 минут — **Тбилиси** TBS

РЕКЛАМА

CENTRUM HOLIDAYS

Откройте для себя Узбекистан с эксклюзивными турами от Centrum Holidays!

Centrum Holidays eksklyuziv sayohatlari bilan O‘zbekistonni kashf eting!

Авторские маршруты проведут вас через древние города и современные мегаполисы, ремесленные мастерские и живописные степи, погружая в уникальный восточный колорит.

Mualliflik yo‘nalishlari sizni qadimiy shaharlar va zamonaviy megapolislar, hunarmandchilik ustaxonalari va go‘zal cho‘llar bo‘ylab o‘ziga xos sharqona koloritga olib kiradi.

По следам ремесленников
Hunarmandlar izidan

По следам кочевников
Ko‘chmanchilar izidan

7 дней восточной сказки
Sharq ertaklarining 7 kuni

8 дней восточной сказки
Sharq ertaklarining 8 kuni

Выходные в Узбекистане
O‘zbekistonda dam olish kunlari

AVIASPOTTING: OSMON VA OBYEKTIV ORASIDA

Авиаспоттинг: между небом и объективом



Самолёты взлетают и исчезают за горизонтом, оставляя за собой не только след в небе, но и сотни историй. Для кого-то это просто транспорт, но для авиаспоттеров – настоящее искусство, азарт и образ жизни. Они поднимаются ни свет ни заря, чтобы «поймать» редкий борт, пробираются через сложные маршруты ради одного идеального кадра, спорят о ракурсах и настройках, но всегда остаются единой командой.

Samolyotlar havoga ko'tarilib, ufqda g'oyib bo'ladi, o'z ortidan osmonda nafaqat iz, balki yuzlab hikoyalarni ham qoldirib ketadi. Kimdir uchun bu shunchaki transport, lekin aviaspotterlar uchun — haqiqiy san'at, ishtiyoq va hayot tarzi. Ular noyob bortni "tutish" uchun tong saharda turishadi, bitta ideal kadr deb murakkab yo'nalishlardan o'tishadi, rakurs va sozlamalar haqida bahslashishadi, lekin har doim yagona jamoa bo'lib qolaverishadi.

SARDOR YUSUPOV: SAMOLYOTLAR UCHRASHUVLARDAN MUHIMROQ BO'LGANDA

САРДОР ЮСУПОВ: КОГДА САМОЛЁТЫ ВАЖНЕЕ ВСТРЕЧ

Моё увлечение небом началось с ранних лет. Мы жили неподалёку от аэропорта, и дедушка часто водил меня на мост, откуда открывался прекрасный вид на взлетно-посадочную полосу. Я мог часами наблюдать за тем, как самолёты набирают скорость, отрываются от земли и исчезают в облаках. Тогда я ещё не знал, что это увлечение однажды станет важной частью моей жизни.

Спустя годы интерес к авиации не угас, а, напротив, усилился. Однажды мне попалось видео о споттинге в ташкентском аэропорту, и я был поражён: оказывается, в Узбекистане есть целое сообщество людей, которые разделяют мою страсть. Они собирались у аэропорта, фотографировали, обсуждали авиационные события. Я понял, что хочу стать частью этого мира. В поисках информации я познакомился с Рустамом Маннановым, который подробно объяснил, как всё устроено: где можно снимать, как попасть на официальные мероприятия и на что стоит обратить внимание. Так начался мой путь в споттинге, а весной 2024 года я впервые оказался на официальной съёмке в аэропорту.

O'smonga bo'lgan ishtiyoqim bolaligimdan boshlangan. Biz aeroport yaqinida yashardik va bobom meni tez-tez uchish-qo'nish yo'lagidagi ajoyib manzara ko'rinadigan ko'prikka olib borar edi. Soatlab samolyotlarning tezlanishi, yerdan ko'tarilib, bulutlar orasida g'oyib bo'lishini kuzatishim mumkin edi. O'shanda bir kun kelib bu qiziqishim hayotimning muhim qismiga aylanishini bilmasdim.

Yillar o'tsa-da, aviatsiyaga bo'lgan qiziqishim so'nmadi, aksincha, yanada kuchaydi. Bir kuni Toshkent aeroportidagi spotting haqidagi videoni ko'rib qolib, hayratga tushdim: ma'lum bo'lishicha, O'zbekistonda men kabi ishtiyoqqa ega kishilardan iborat butun bir jamoa bor ekan. Ular aeroport yaqinida to'planishar, suratga olishar, aviatsiya yangiliklarini muhokama qilishar ekan. Shunda men bu jamoaning bir qismi bo'lishni xohlayotganimni angladim. Ma'lumot qidirish asnosida Rustam Mannanov bilan tanishdim, u menga barcha tafsilotlarni: qayerda suratga olish mumkinligi, rasmiy tadbirlarga qanday kirish va nimalarga e'tibor berish kerakligini batafsil tushuntirdi. Shu tariqa men spottingga kirib keldim, 2024-yil bahorida ilk bor aeroportdagi rasmiy suratga olish tadbirida qatnashdim.

Этот день врезался в память. Нас провели через контроль, выделили специальную площадку и дали возможность целый день снимать. В отличие от привычной съёмки через забор, здесь мы получили доступ к самым захватывающим ракурсам. Мы наблюдали, как лайнеры готовят к вылету, фиксировали моменты, которые обычно скрыты от глаз. Это был мой первый настоящий вау-эффект, укрепивший тягу к увлечению.

Со временем я осознал, что споттинг – это не только фотографии, но и видеосъёмка. Многие выкладывают снимки на платформы вроде JetPhotos или Instagram, но мне хотелось передать нечто большее: движение, звук, энергетику момента. Постепенно я начал снимать видео, и вскоре этими материалами стали интересоваться не только друзья и подписчики, но и представители авиационной сферы. Ко мне стали обращаться за материалами, тут я и заметил, как хобби переросло в нечто большее.

Однако споттинг – это не всегда просто поиск красивых кадров. Иногда он требует терпения, выдержки и даже умения преодолевать неожиданные трудности. Один из таких случаев произошел, когда в Ташкент прилетел глава соседнего государства. Мы целый день провели на мосту, ожидая его самолет, не зная точного времени прибытия. Камеры были наготове, концентрация на пределе, но за несколько минут до посадки нас окружили сотрудники милиции. Они не понимали, зачем мы здесь и почему вообще снимаем самолёты. Все наши объяснения о том, что это хобби, не находили отклика. «Какое хобби? Кому это вообще интересно?» – с недоумением спрашивали они. В результате нас отвезли в РУВД, а долгожданный рейс приземлился без нас.

Подобные ситуации случаются и в других местах. Даже за пределами аэропорта споттеры часто сталкиваются с повышенным вниманием. Если стоишь у забора, охрана может сделать замечание или спросить, что ты здесь делаешь. Хотя мы не нарушаем никаких правил, людям наше увлечение кажется странным, особенно когда они видят камеры с длиннофокусными объективами, издалека кажущиеся чем-то подозрительным. В самом аэропорту тоже есть строгие ограничения: нам обозначают зоны, за которые нельзя заходить, и мы стараемся соблюдать установленные правила.

Но несмотря на все сложности, споттинг остаётся моим любимым занятием. Это не просто фотографии, а настоящая охота за уникальными кадрами. Важно не только найти правильный ракурс, но и запечатлеть редкий момент. Например, одним из самых значимых видео в моей коллекции стала съёмка пяти самолетов Су, пролетавших над парком «Янги Узбекистон» в День независимости. Они оставили за собой шлейф и развернули флаг Узбекистана прямо в воздухе.

Bu kun xotiramda o‘chmas iz qoldirdi. Bizni nazorat tekshiruvidan o‘tkazib, bizga maxsus maydoncha ajratib berishdi va kun bo‘yi suratga olish uchun imkoniyat yaratishdi. Odatdagi to‘siq ortidan suratga olishdan farqli ravishda, bu safar eng qiziqarli rakurslarda suratga olish imkoniga ega bo‘ldik. Biz samolyotlarning parvozga tayyorlanishini kuzatdik, ko‘pincha ko‘zga tashlanmaydigan lahzalarni suratga oldik. Bu mening qiziqishimni yanada kuchaytirgan birinchi haqiqiy “vau-effekt”im edi.

Vaqt o‘tgan sayin spotting – faqat fotosurat emas, balki videotasvirga ham olish ekanligini angladim. Ko‘pchilik suratlarini JetPhotos yoki Instagram kabi platformalarga joylaydi, lekin men ko‘proq narsani: harakat, ovoz, lahza haroratini yetkazishni xohlardim. Asta-sekin videolarni suratga ola boshladim va tez orada bu materiallarga nafaqat do‘stlarim va obunachilarim, balki aviatsiya sohasining vakillari ham qiziqish bildira boshlashdi. Menga materiallar so‘rab murojaat qila boshlashdi, shunda xobbiim qandaydir kattaroq narsaga aylanganini payqadim.

Ammo spotting – faqatgina chiroyli kadrlarni izlashdan iborat emas. Ba’zida u sabr-toqatni, chidamlilikni va hatto kutilmagan qiyinchiliklarni yengish ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab qiladi. Shunday holatlardan biri Toshkentga qo‘shni davlat rahbari tashrif buyurganida yuz berdi. Biz samolyotning kelish vaqtini aniq bilmay, uni kun bo‘yi ko‘prik ustida kutib o‘tirdik.

Kameralar shay, diqqatimiz yuqori darajada edi, ammo samolyot qo‘nishiga bir necha daqiqa qolganida bizlarni militsiya xodimlari o‘rab olishdi. Ular bizni nima uchun bu yerda ekanligimizni va umuman nima sababdan samolyotlarni suratga olayotganimizni tushunishmadi. Bu xobbi ekani haqidagi barcha tushuntirishlarimiz e’tiborsiz qoldi. “Qanaqa xobbi? Umuman, buning kimga qizig‘i bor?” — deb so‘rashardi ular hayron bo‘lib. Oqibatda bizni tuman IIBga olib ketishdi, uzoq kutilgan reys esa bizsiz qo‘ndi.

Bunday vaziyatlar boshqa joylarda ham sodir bo‘ladi. Ko‘pincha spotterlarga hatto aeroportdan tashqarida ham e’tibor kuchli bo’ladi. Agar to‘siq yonida tursangiz, qo‘riqchilar sizga e’tiroz bildirishi yoki bu yerda nima qilayotganingizni so‘rashi mumkin. Zero, hech qanday qoidani buzmasak-da, bizning ishtiyoqimiz odamlarga g‘alati tuyuladi, ayniqsa, uzoqdan shubhali ko‘rinishi mumkin bo‘lgan uzun fokusli obyektiv kameralarni ko‘rishganida. Aeroportning o‘zida ham qat’iy cheklovlar mavjud: bizga kirish taqiqlangan hududlar belgilab beriladi va biz o’rnatilgan qoidalarga rioya qilishga harakat qilamiz.

Barcha qiyinchiliklarga qaramay, spotting mening eng sevimli mashg‘ulotim bo‘lib qolaveradi. Bu shunchaki suratga olish emas, balki noyob kadrlar ortidan haqiqiy ovdir. Nafaqat to‘g‘ri rakursni topish, balki kamdan kam uchraydigan lahzani ham aks ettirish zarur. Masalan, kolleksiyamda eng muhim o’rin egallagan videolardan biri Mustaqillik kunida “Yangi O‘zbekiston” bog‘i uzra parvoz qilgan beshta Su samolyotini tasvirga tushirish bo‘ldi. Ular o‘z ortidan iz qoldirib, havoda O‘zbekiston bayrog‘ini yoyishdi.

Ammo hammasini ham “tutish”ning iloji bo‘lavermaydi. Ba’zida kam uchraydigan samolyot qo‘qqisdan paydo bo‘lib qoladi-yu, kamera qo‘lda bo‘lmaydi. Bunday holat men rul boshqarganimda yoki shunchaki tayyorgarlik ko‘rishga ulgurolmagan vaqtimda yuz berardi. Bunday vaziyatlarda hech bo‘lmaganda telefonda video olishga harakat qilaman, chunki fursatni butunlay o‘tkazib yuborgandan ko‘ra, loaqal biror narsani saqlab qolganim ma’qul.

Но удается поймать далеко не всё. Иногда редкий самолёт появляется внезапно, а камеры под рукой нет. Такое случалось, когда я был за рулем, и просто не успевал подготовиться. В такие моменты стараюсь хотя бы снять видео на телефон, ведь лучше сохранить хоть что-то, чем упустить момент совсем.

Помимо технической стороны, споттинг – это ещё и уважение к сообществу. Замечал, что новички порой спорят с опытными споттерами, не слушают их советы, но я всегда понимал, что у каждого есть чему поучиться. Когда только начинал, многому научился у Рустама, следовал его рекомендациям. Это особенно важно, когда снимаешь в местах, где могут возникнуть сложности. За последний год я увидел, как споттинг в Узбекистане развивается. Всё больше людей интересуются этим, находят нас в социальных сетях, спрашивают, где можно снимать. Некоторые даже пишут с просьбой провести их в аэропорт, думая, что я там работаю. Я объясняю, что официальные мероприятия проходят всего два-три раза в год, но сам факт растущего интереса радует.

Авиация привлекает меня не только полётами, но и уникальным дизайном самолётов. Компания Centrum Air недавно обновила свои авиалайнеры, добавив новый стиль окраски, и это выглядит очень эффектно. My Freighter также примечателен –

Spotting – texnik jihatdan tashqari, jamoaga bo'lgan hurmat ham hisoblanadi. Ba'zan yangi boshlayotganlarning tajribali spotterlar bilan bahslashayotgani, ularning maslahatlariga quloq solmayotganini ko'rganman, lekin har kimda o'rganish uchun nimadir borligini doim tushunganman. Endigina boshlagan paytlarimda Rustamdan ko'p narsalarni o'rgandim, uning tavsiyalariga amal qildim. Bu, ayniqsa, muammolar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan joylarda suratga olishda juda muhim hisoblanadi. So'nggi bir yil davomida O'zbekistonda spotting rivojlanib borayotganini kuzatdim. Tobora ko'proq odamlar qiziqish bildirishyapti, ijtimoiy tarmoqlarda bizni topib, qayerda suratga olish mumkinligini so'rashyapti. Ba'zilar hatto meni aeroportda ishlaydi deb o'ylab, u yerga olib kirishimni so'rab murojaat qilishyapti. Men ularga rasmiy tadbirlar yiliga atigi ikki-uch marta o'tkazilishini tushuntiraman, lekin qiziqishning o'sib borayotgani meni quvontiryapti. Aviatsiya meni nafaqat parvozlar, balki samolyotlarning betakror dizayni bilan ham o'ziga jalb qiladi. Yaqinda Centrum Air kompaniyasi o'z avialaynerlarini bo'yash uslubini o'zgartirish orqali yangiladi va bu juda chiroyli ko'rinish berdi. My Freighter ham e'tiborga loyiq – hatto samolyotlardan birining dum qismida Kanada bayrog'ining rasmi saqlanib qolgan, uni bo'yashga ulgurishmagan

у одного из их самолётов даже остался на хвосте канадский флаг, который так и не закрасили. Этот самолёт стал настоящей легендой среди споттеров, и многие стремятся его заснять. Со временем приходит понимание, что важнее не количество снимков, а их уникальность. Многие споттеры уже засняли всевозможные рейсы в Узбекистане, но когда появляется что-то необычное, чего ещё нет в коллекции, вот тогда охватывает настоящий азарт. Авиация – это не просто увлечение, а важная часть моей жизни. В семье есть родственники, работающие в этой сфере, и если бы я не занимался споттингом, то, возможно, выбрал бы профессию пилота. Но сейчас я продолжаю снимать, искать новые ракурсы, ловить моменты, которые нельзя повторить.

Телефон звонит, отрывая меня от мыслей. Смотрю на экран – знакомый номер. Прислушиваюсь – знакомый голос: «Встреча остаётся в силе?». На мгновение задумываюсь, но глядя на часы понимаю, что не успею туда, где меня хотят видеть. «Мы обязательно всё обсудим, но позже». Убираю телефон и мысленно уже оказываюсь там, где ровно через час развернётся долгожданное событие. Сегодня это для меня важнее.

chog'i. Bu samolyot spotterlar orasida chinakam afsonaga aylandi va ko'pchilik uni suratga olishga harakat qilmoqda. Vaqt o'tishi bilan suratlar soni emas, balki ularning betakrorligi muhimroq ekanini tushunib yetasiz. Ko'plab spotterlar O'zbekistondagi turli reyslarni allaqachon suratga olib ulgurishgan, ammo hali kolleksiyada yo'q noodatiy narsa uchrab qolganda, haqiqiy ishtiyoq boshlanadi. Aviatsiya – shunchaki qiziqish emas, balki hayotimning muhim qismi. Oilamda bu sohada faoliyat yuritadigan qarindoshlarim bor, agar men spotting bilan shug'ullanmaganimda, ehtimol, uchuvchilik kasbini tanlagan bo'lardim. Lekin hozir suratga olishda davom etyapman, yangi rakurslarni izlayapman, takrorlab bo'lmaydigan lahzalarni qo'lga kirityapman.

Telefon jiringlab, o'y-xayollarimdan chalg'itdi. Ekranga qaradim – tanish raqam. Ovozni tanidim: "Uchrashuv haqidagi kelishuv hali ham o'z kuchidami?" Bir lahza o'ylanib qoldim, ammo soatga qarab, meni kutishayotgan joyga ulgurmasligimni tushundim. "Albatta, hammasini muhokama qilamiz, lekin keyinroq". Telefonni stolga qo'ydim va xayolan roppa-rosa bir soatdan so'ng intiqlik bilan kutilayotgan voqea joyiga ko'chib o'tdim. Bugun bu men uchun muhimroq.

ELDOR XAYRULOV: SOVUQ QANOTLARNING TAFTI

ЭЛЬДАР ХАЙРУЛОВ: ТЕПЛО ХОЛОДНЫХ КРЫЛЬЕВ

Я люблю смотреть на пролетающие самолёты: вслушиваться в звук их двигателей, запоминать силуэты, пытаться угадать маршрут. Это что-то большее, чем просто интерес. Со временем понял, что мне мало просто наблюдать – хочется фиксировать эти моменты, сохранять их. Так в моей жизни появился споттинг, а с ним и возможность увидеть в самолетах то, что никто не замечает: для кого-то они – просто машины, а для меня – живые создания каждое со своей историей.

Помню первый раз, когда оказался на перроне, всего в нескольких метрах от огромного лайнера. В тот момент мне казалось, что сердце замерло. Видеть, как пилоты готовятся к рейсу, механики завершают последние проверки, а лайнер начинает движение, медленно разворачиваясь на полосе – незабываемое ощущение. Такие моменты заставляют буквально затаить дыхание, ведь в них – вся магия авиации.

Uchib o'tayotgan samolyotlarni kuzatishni, dvigatellarining ovozini tinglab, qiyofalarini xotiramga muhrlashni, yo'nalishlarini taxmin qilishga urinishni yoqtiraman. Bu shunchaki qiziqish emas. Vaqt o'tishi bilan men uchun shunchaki kuzatish yetarli emasligini, bu onlarni qayd etish, ularni saqlab qolish istagim paydo bo'lganini angladim. Shu tariqa hayotimga spotting kirib keldi, u bilan birga samolyotlarda hech kim ilg'amaydigan narsalarni ko'rish imkoniyati paydo bo'ldi: kimlardir uchun ular shunchaki mashina bo'lsa, men uchun – har biri o'z tarixiga ega bo'lgan tirik mavjudotlar.

Birinchi marta perronda, ulkan laynerdan atigi bir necha metr narida turganimni haligacha eslayman. O'sha daqiqada yuragim to'xtab qolganday tuyulgandi. Uchuvchilarning parvozga tayyorgarlik ko'rayotgani, mexaniklarning so'nggi tekshiruvlarni yakunlayotgani, laynerning esa yo'lakda asta-sekin burilib o'z harakatini boshlayotganini ko'rish – unutilmas hissiyot. Bunday lahzalardan nafasingiz ichingizga tushib ketadi – aviatsiyaning butun sehri ham ana shunda.

Редкие самолёты всегда были моей слабостью. Стоит появиться информации о прибытии уникального борта, и я готов бросить всё, лишь бы оказаться на месте вовремя. Грузовой АН-124, турбовинтовой АН-28 – уже в моей коллекции, ведь такие машины не прилетают каждый день, и пропустить их было бы настоящей потерей. В эти моменты я ощущаю азарт охотника, когда важна каждая секунда, а удачный кадр становится настоящим трофеем. Споттинг – образ жизни, требующий терпения, скорости реакции и готовности поймать момент, который не повторится.

Одна из самых запоминающихся съемок у меня случилась на Пхукете. Там фон для фото был невероятным: пляж, море, небо, облака. Каждый снимок был полон цвета и глубины. Особенно приятно было запечатлеть самолёты, которых нет в Узбекистане – редкие модели и авиакомпании, не летающие сюда. Всё это вдохновляет продолжать заниматься этим делом.

Но споттинг – это ещё и неожиданности. Иногда ты ждёшь борт, уже нацелился на съёмку, но в самый последний момент дует «ветер перемен», и лайнер уходит на другую полосу. Вроде бы всё готово, но приходится срочно менять точку, искать новый ракурс, подстраиваться под ситуацию. А иногда просто не успеваешь добраться вовремя и остаётся только наблюдать за взмывающим в небо самолётом.

Сложностей в этом хобби хватает. В Ташкенте, например, приходится быть настороже, особенно когда находишься рядом с аэропортом. В других городах, том же Пхукете, всё намного проще: выбираешь любую точку, спокойно снимаешь, никто не обращает на тебя внимания. Здесь же всё иначе – даже при наличии разрешения ты всё равно ощущаешь себя в напряжении, постоянно осматриваешься, чтобы не привлечь лишнего внимания. Тем не менее мне повезло – я ни разу не сталкивался с серьезными проблемами с властями или службами аэропорта. Возможно, это потому, что в последнее время снимаю реже, всё больше времени уходит на работу. Чаще всего выбираюсь на официальные мероприятия, где проблем с разрешением на съемку не возникает. Те, кто ходит снимать за забором, конечно, регулярно сталкиваются с трудностями.

Kam uchraydigan samolyotlar doim zaif tomonim bo‘lgan. Shunday samolyotning kelishi haqida ma’lumot paydo bo‘lishi bilanoq, o‘z vaqtida yetib borish uchun hamma narsani tashlab ketishga tayyorman. AN-124 yuk tashuvchi va AN-28 turbovintli samolyotlar – kolleksiyamda bor, chunki bunday mashinalar har kuni ham uchib kelavermaydi, ularni o‘tkazib yuborish esa haqiqiy yo‘qotish bo‘lardi. Bunday paytlarda har bir soniya muhim, muvaffaqiyatli kadr haqiqiy o‘ljaga aylangan paytda men o‘zimni ovchidek his qilaman. Spotting – sabr-toqat, tez harakat qilish va takrorlanmas lahzani suratga olish uchun doimo tayyor turishni talab qiladigan hayot tarzi.

Eng esda qolarli tasvirga olish onlaridan biri Pxuketda bo‘ldi. U yerda fotosurat uchun aql bovar qilmaydigan fon – plyaj, dengiz, osmon, bulutlar bor edi. Har bir surat rang va teranlikka to‘la bo‘lgan. Ayniqsa, O‘zbekistonda mavjud bo‘lmagan samolyotlar – bu yerga uchib kelmaydigan kamyob model va aviakompaniyalarni suratga olish juda yoqimli edi. Bularning barchasi spotting bilan shug‘ullanishni davom ettirishga ruhlantirib turdi.

Spotting – kutilmagan hodisalar ham degani. Ba’zida bortni kutasiz, suratga olishga tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lasiz, ammo so‘nggi lahzada “o‘zgarishlar shamoli” esib qoladi-yu, layner boshqa yo‘lakka burilib ketadi. Hamma narsa tayyordek ko‘rinsa-da, lekin tezda joyingizni o‘zgartirishga, yangi rakurs topishga, vaziyatga moslashishga to‘g‘ri keladi. Ba’zida esa vaqtida yetib kela olmaysiz va osmonga ko‘tarilayotgan samolyotni kuzatishdan boshqa chorangiz qolmaydi. Xobbining o’ziga yarasha qiyinchiliklari ham yetarli. Masalan, Toshkentda, ayniqsa aeroport yaqinida juda ehtiyotkor bo‘lishga to‘g‘ri keladi. Boshqa shaharlarda, xususan Pxuketda, vaziyat umuman boshqacha: xohlagan joyingni tanlab, bemalol suratga olasan, hech kim senga e’tibor ham bermaydi. Bu yerda esa hammasi boshqacha – hatto ruxsatnomang bo‘lsa ham, sen baribir o‘zingni asabiy his qilasan, ortiqcha e’tiborni jalb qilmaslik uchun doimo atrofni ko‘zdan kechirasan.

Shunga qaramay, omadim chopgan –hech qachon hokimiyat yoki aeroport xizmatlari bilan jiddiy muammolarga duch kelmaganman. Ehtimol, bu so‘nggi paytlarda kamroq suratga olayotganim, ko‘p vaqtimni ishga sarflayotganim uchun bo‘lsa kerak.

Мне повезло, что родные относятся к моему увлечению с пониманием. Для них это просто часть моей жизни, как любое другое хобби. Друзья тоже понимают и даже проявляют интерес. Я веду канал в Telegram, делюсь своими снимками, публикую статистику рейсов. Конечно, данные, которые я считываю по Flightradar, не всегда совпадают с официальными: авиакомпании фиксируют полёт с момента запуска двигателя, а Flightradar – только с момента взлёта. Но это не мешает мне анализировать и видеть, как развивается авиация, изучать маршруты и делать выводы, которые могут быть полезны не только мне, но и другим споттерам.

За последние годы споттинг в Узбекистане изменился: появилось больше официальных мероприятий, авиакомпании стали приглашать нас на открытие рейсов, презентации новых бортов. Когда я начинал, всего этого не было. Сейчас же споттеров становится больше, интерес к авиации растет, а следовательно, появляются новые точки для съёмки, организуются встречи, и даже авиакомпании начинают обращать внимание на наше сообщество. Это создаёт не только больше возможностей для съёмки, но и помогает популяризировать споттинг, делая его более понятным и признанным в обществе. Сегодня каждая новая модель самолёта – это симбиоз технологий, инженерной мысли и удобства для пассажиров. Если бы у меня был шанс провести день в кабине, я бы выбрал 787 Dreamliner. Этот лайнер вобрал в себя все передовые доработки и стал символом нового поколения авиации. Возможность увидеть его изнутри – это был бы по-настоящему уникальный опыт.

Глядя на современные авиалайнеры, понимаешь, что визуальная эстетика играет не меньшую роль, чем технические характеристики. Каждая авиакомпания стремится выделиться, создавая узнаваемый стиль, который остаётся в памяти пассажиров и споттеров. Что касается дизайна, мне нравится, что Centrum Air добавили больше деталей в окраску своих бортов. Просто белый самолёт выглядит скучно, но синий оттенок делает его более живым.

Авиация для меня – не только споттинг. Мне нравится сам процесс полета. Когда появилась возможность полететь на тестовом рейсе, я воспользовался этим шансом. Это был редкий Boeing 757-300, который раньше не летал в Узбекистане. Я всегда мечтал оказаться на борту такого самолета, и этот полет стал для меня настоящим событием.

> *Время движется неумолимо быстро, особенно когда хочется, чтобы мгновение длилось дольше. Смотрю на часы и понимаю, что мне стоит проверить оборудование. В голове всплывает воспоминание – недавно я купил дополнительный комплект батареек для друга. Его фотоаппарат, кажется, живёт по своему расписанию – разряжается ровно тогда, когда он нужен больше всего, так что новая батарея ему сегодня, в этот особенный день, точно понадобится. Как по мне, то в споттинге важна не только техника, но и поддержка. Ведь что может быть ценнее, чем поделиться моментом с теми, кто понимает твою страсть?*

Ko‘pincha suratga olish uchun ruxsatnoma bilan muammo tug‘ilmaydigan rasmiy tadbirlarga boraman. To‘siq ortidan suratga olish uchun boradiganlar esa, tabiiyki, muntazam ravishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Yaxshiyamki, oila a’zolarim mening qiziqishimni to‘g‘ri qabul qilishadi. Ular uchun bu xuddi boshqa har qanday xobbi kabi hayotimning bir qismi, xolos. Do‘stlarim ham tushunishadi, hatto qiziqish ham bildirishadi. Telegramda kanal yuritaman, suratlarim bilan bo‘lishaman, parvozlar statistikasini nashr qilaman. Albatta, Flightradar orqali hisoblagan ma’lumotlarim har doim ham rasmiy ma’lumotlarga mos kelmaydi: aviakompaniyalar parvozni dvigatel ishga tushirilgan paytdan boshlab qayd etsa, Flightradar – faqat havoga ko‘tarilgan paytdan boshlab hisobga oladi. Ammo bu menga aviatsiya qanday rivojlanayotganini kuzatish va tahlil qilish, yo‘nalishlarni o‘rganish hamda nafaqat o‘zim, balki boshqa spotterlarga ham foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan xulosalar qilishimga xalaqit bermaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistondagi spotting o‘zgardi: ko‘proq rasmiy tadbirlar paydo bo‘ldi, aviakompaniyalar bizni reyslar ochilishiga, yangi bortlar taqdimotiga taklif qila boshlashdi. Men ish boshlagan paytlarimda bularning barchasi yo‘q edi. Hozirgi kunda spotterlar soni tobora ko‘payyapti, aviatsiyaga qiziqish ortyapti, natijada suratga olish uchun yangi nuqtalar paydo bo‘layapti, uchrashuvlar tashkil etilyapti va hatto aviakompaniyalar ham hamjamiyatimizga e’tibor qaratishni boshlayapti. Bu faqat suratga olish uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratib qolmaydi, balki spottingni yanada tushunarli va jamiyatda tan olinadigan holda ommalashtirishga ham yordam beradi. Bugungi kunda samolyotlarning har bir yangi modeli – texnologiyalar, muhandislik g‘oyalari va yo‘lovchilar uchun yaratilgan qulayliklar simbiozi. Agar kunimni kabina ichida o‘tkazish imkoni bo‘lganida, 787 Dreamlinerni tanlagan bo‘lardim. Bu layner barcha ilg‘or ishlanmalarni o‘z ichiga olib, aviatsiya yangi avlodining ramziga aylandi. Uni ichkaridan ko‘rish imkoniyati – haqiqatan ham ajoyib tajriba bo‘lar edi.

Zamonaviy samolyotlarga nazar solib, vizual estetika texnik xarakteristikalardan kam rol o‘ynamasligini tushunasiz. Har bir aviakompaniya yo‘lovchilar va spotterlar xotirasida qoladigan o‘ziga xos uslubni yaratish orqali boshqalardan ajralib turishga intiladi. Dizaynga keladigan bo‘lsak, Centrum Air o‘z bortlari rangiga ko‘proq detallar qo‘shgani menga yoqdi. Shunchaki oq rangdagi samolyot zerikarli ko‘rinadi, ammo, ko‘k tuslar uni yanada yorqinroq qiladi. Men uchun aviatsiya – faqat spottingdan iborat emas. Menga parvoz jarayonining o‘zi zavq bag‘ishlaydi. Sinov reysida uchish imkoniyati tug‘ilganda, fursatni qo‘ldan boy bermadim. Bu ilgari O‘zbekistonda uchmagan noyob Boeing 757-300 samolyoti edi. Men doim shunday samolyot bortida bo‘lishni orzu qilardim va bu parvoz men uchun unutilmas voqea bo‘ldi.

> *Vaqt, ayniqsa, lahza yanada uzoqroq cho‘zilishini xohlaganingda juda tez o‘tadi. Soatga qarab uskunalarni tekshirishim kerakligini tushunaman. Yaqinda do‘stim uchun qo‘shimcha batareykalar to‘plamini sotib olganimni eslayman. Uning fotoapparati go‘yo o‘z jadvaliga ko‘ra yashaydi – aynan eng kerak paytda quvvati tugaydi. Demak, bugun, bu muhim kunda unga shubhasiz, yangi batareyka kerak bo‘ladi. Menimcha, spottingda nafaqat texnika, balki bir-birini qo‘llab-quvvatlash ham muhim. Axir, ishtiyoqingizni tushunadiganlar bilan lahzani baham ko‘rishdan ham qadrliroq narsa bormi?*

DANIIL SHULIMOV: PARVOZGA YORDAM BERADIGAN INSONLAR

ДАНИИЛ ШУЛИМОВ: ЛЮДИ, ЧТО ПОМОГАЮТ ВЗЛЕТЕТЬ

Самый захватывающий момент случился осенью 2023 года, когда я оказался на официальном споттинге. Мы с ребятами фотографировали лайнеры, как вдруг услышали «голос» Ил-76. Этот массивный грузовой самолёт, рычащая махина, которую я так мечтал запечатлеть, стоял прямо передо мной. До этого я никогда его не снимал, а тут сразу несколько бортов. Сердце колотилось, камера в руках, я едва дышал, боясь упустить момент. Поймал его не в воздухе, а на перроне, что сделало снимок еще более ценным. Ил-76 – редкость в Узбекистане, и этот кадр стал одним из самых важных в моей коллекции.

Но не всегда всё проходит гладко. Далеко не всегда. Споттер будет не споттером, если никогда не рисковал и не шёл на жертвы ради удачного снимка. Когда в Ташкент прилетал президент Республики Корея, мы всей командой решили запечатлеть его самолёт. Вся территория аэропорта была под охраной, оцепление стояло на каждом углу. Тогда мы отправились на одну удалённую точку, заброшенный холм, с которого открывался идеальный вид. Дорога была сложной – пыль, грязь, крутые подъемы. Я упал, вымазался с головы до ног, но кадры того стоили. В тот день вместе со мной снимали еще около десяти споттеров. В воздухе царил настоящий командный дух.

Есть снимки, которые мне особенно дороги. Самый любимый кадр я сделал в Казахстане, в Алматы. Это был Ан-24 авиакомпании SCAT, который летает только в летний период. Мне повезло: я приехал именно в тот день, когда он выполнял рейс. Но удача в тот момент казалась призрачной – аэропорт был под оцеплением из-за отлёта президента Казахстана. Ждать пришлось долго, но когда ограничения сняли, я первым делом поймал в объектив Ан-24. Даже местные споттеры, снимающие много лет, не могли заснять этот самолёт. А затем случился тот самый кадр, о котором я буду рассказывать годами: на одной полосе разошлись Boeing 777 Cargo и Bombardier DHC-8, который в авиации называют «Дашка». Они оказались настолько близко, что на фото кажется, будто они «целуются». Этот момент стал кульминацией насыщенного дня. Но бывают и другие моменты – когда ты без камеры, а редкий самолёт появляется прямо над головой. Так случилось с Ту-154. Я просто гулял, не планировал снимать, и тут в нашу группу приходит сообщение: в небе «Тушка». Никаких шансов успеть, просто смотришь и провожаешь глазами. Обидно? Конечно. Но в тот раз никто не успел его снять, и это немного сгладило разочарование. Хотя если бы кому-то удалось, сначала я бы позавидовал, а потом искренне порадовался. Ведь поймать такой борт в наших краях – большая удача. Гулять без камеры – не самая страшная ошибка новичка. Самая распространённая – неправильные настройки камеры. Если не учесть освещение, выставить неверное ISO, выдержку или диафрагму, фото получится пересвеченным или, наоборот, слишком тёмным. Важно не снимать против солнца, иначе самолёт выйдет тёмным пятном.

Eng hayajonli lahza 2023-yilning kuzida, rasmiy spottingda ishtirok etganimda sodir bo'ldi. Do'stlarim bilan samolyotlarni suratga olayotganimizda, birdan Il-76ning "ovozi"ni eshitib qoldik. Men tasvirga olishni orzu qilgan, o'kirayotgan bu bahaybat yuk samolyoti ro'paramda turardi. Ilgari uni hech qachon suratga olmagandim, bu yerda esa bir vaqtning o'zida bir nechta bort bor edi. Yuragim gupillab urar, qo'limda kamera, lahzani o'tkazib yubormaslik uchun nafasimni ichimga yutib turardim. Uni havoda emas, perronda suratga oldim, bu esa suratning qiymatini yanada oshirdi. Il-76 – O'zbekistonda kamdan-kam uchraydi, bu kadr to'plamimdagi eng muhim suratlardan biriga aylandi.

Lekin har doim ham hamma narsa silliq ketavermaydi. Aslo unday emas. Yaxshi suratni olish uchun tavakkal qilinmasa va fidoyilik ko'rsatilmasa, spotter hech qachon chinakam spotter bo'lolmaydi. Janubiy Koreya prezidenti Toshkentga tashrif buyurganida, butun jamoamiz bilan uning samolyotini suratga olishga ahd qildik. Aeroportning butun hududi qo'riqlanar, har bir burchakka qo'riqchilar qo'yilgandi. Shunda biz uzoqdagi bir joyga, ajoyib manzara ko'rinadigan tashlandiq tepalikka yo'l oldik. Yo'l og'ir — hammayoq chang, tuproq, tik qiyaliklar. Men yiqilib, boshdan-oyoq changga belandim, lekin olingan kadrlar bunga arzirdi. O'sha kuni men bilan birga yana o'nga yaqin spotter suratga olayotgandi. Havoda haqiqiy jamoa ruhi hukmron edi.

Men uchun o'zgacha qadrli bo'lgan suratlar bor. Eng sevimli kadrimni Qozog'istonda, Olmaotada oldim. Bu SCAT aviakompaniyasining faqat yoz mavsumida parvoz qiladigan An-24 samolyoti edi. Omadim keldi: aynan u reysni bajarayotgan kuni yetib bordim. Biroq o'sha paytda omadim xayoliy bo'lib tuyuldi – Qozog'iston prezidentining uchib ketishi munosabati bilan aeroport o'rab olingandi. Uzoq kutishga to'g'ri keldi, ammo cheklovlar olib tashlangan zahoti An-24ni nishonga oldim. Bu samolyotni hatto ko'p yillardan beri suratga olayotgan mahalliy spotterlar ham suratga ololmagan ekan. Keyin esa men yillar davomida hikoya qiladigan o'sha kadr paydo bo'ldi: bir yo'lakda Boeing 777 Cargo va aviatsiyada "Dashka" deb ataladigan Bombardier DHC-8 uchrashib qoldi. Ular bir-biriga shunchalik yaqinlashdiki, suratda ular xuddi "o'pishayotgandek" tuyuladi. Bu lahza sermazmun kunning eng yuqori cho'qqisi bo'ldi.

Boshqa holatlar ham yuz beradi – qo'lingda kamera bo'lmaganida boshing uzra kamdan-kam uchraydigan samolyot paydo bo'ladi. Tu-154 bilan xuddi shunday bo'lgandi. Shunchaki sayr qilib yurgandim va suratga olishni rejalashtirmagan edim, shu payt guruhimizga xabar keldi: osmonda "Tushka". Ulgurishning imkoni yo'q, faqat qarab, ko'zing bilan kuzatib qolasan.

Я тоже через это прошёл, но постепенно учился, перенимая опыт у старших товарищей. Сейчас даже при обработке фото нужно учитывать детали: резкость, контраст, погодные условия. Ведь если небо серое, а самолёт тоже серый, добиться выразительности снимка бывает сложно.

Как и в любом другом увлечении, в споттинге важна поддержка. Я счастлив, что мои родители понимают мою страсть. Отец вообще сам купил мне фотоаппарат, с детства подталкивал к споттингу. Говорил: «Давай, снимай самолёты!». И теперь он всегда со мной, даже если сначала говорит, что не поедет. А мама переживает. Каждый раз, когда она узнаёт, что нас задерживали или подходили сотрудники, недоумевает: «Зачем ты туда ходишь?». Но когда я показываю кадры, улыбается и признаёт, что это действительно красиво. Родители даже берут меня в командировки, чтобы я снимал в других странах. Так я оказался в Казахстане, а скоро полечу в Бишкек.

Вспоминаю свой первый прилет в Казахстан: меня встретили местные споттеры, провезли по разным точкам, а потом вкусно накормили. У нас тоже есть традиция гостеприимства: если кто-то приезжает, мы встречаем его, угощаем пловом, самсой, показываем лучшие места для съёмки.

С каждым годом споттинг в Узбекистане приобретает всё большую популярность и поддержку. Нас стали меньше тревожить службы безопасности, начал поддерживать аэропорт. Даже говорили о создании официальной площадки для споттеров. Пока это только обещания, но прогресс заметен. Если сравнивать с тем, что было три года назад, разница огромная.

Конечно, в споттинге не обходится без сложностей. Взаимодействие со службами безопасности аэропорта иногда становится отдельной историей. Недавно на холм, где мы снимали с другими споттерами, приехали сотрудники ППС. Они начали расспрашивать, требовали разрешение, которого, конечно, у нас не было. Всё закончилось неожиданно: опытный споттер Мухаммадрасул Мухиддинов нашёл с ними общий язык, деликатно и вежливо объяснил наши мотивы и предложил сотрудникам самим сделать несколько кадров на его камеру. Тут-то в них и проснулся ребёнок! Спустя десять минут нас оставили наедине с самолётами. Возможно, если бы каждый попробовал хотя бы «прикоснуться» к нашему хобби, то недопонимание исчезло.

> *Слышу четыре знакомых гудка автомобиля – отец уже ждёт меня у подъезда. Пора выходить. Очередной день, очередной рейс, который нельзя упустить. Не знаю, смог бы я получать весь спектр эмоций от споттинга, если бы не мой отец, который всегда и во всём рядом со мной. Поехали!*

Alam qiladimi? Albatta. Ammo o‘sha safar uni hech kim suratga olishga ulgurmagandi, bu biroz taskin beradi. Agar kimdir buni eplay olganida, avvaliga havas qilardim, keyin esa chin dildan quvonardim. Axir, yurtimizda bunday samolyotni kadrga muhrlab olish – katta omad-ku.

Kamerasiz sayr qilish yangi kelgan spotterlarning eng katta xatosi emas. Eng ko‘p uchraydigan xato – kamerani noto‘g‘ri sozlash. Agar yoritish hisobga olinmasa, ISO, ekspozitsiya yoki diafragma noto‘g‘ri o‘rnatilsa, rasm haddan tashqari yoritilgan yoki aksincha, juda qorong‘i bo‘lib chiqadi. Quyoshga qarshi suratga olmaslik muhim, aks holda samolyot qora dog‘ bo‘lib ko‘rinadi. Men ham shu yo‘lni bosib o‘tganman, ammo asta-sekin hamkasblarim tajribasini o‘zlashtirib bordim. Hozir hatto rasmga ishlov berishda ham mayda-chuydalar — aniqlik, kontrast, ob-havo sharoitiga e’tibor berish kerak. Agar osmon ham, samolyot ham kulrang bo‘lsa, tasvirning ta’sirchan chiqishiga erishish qiyin bo‘ladi.

Har qanday sevimli mashg‘ulotda bo‘lgani kabi, spottingda ham qo‘llab-quvvatlash muhim o’rin tutadi. Ota-onam mening bu ishtiyoqimni tushunganidan baxtiyorman. Aslida, otamning o‘zi menga fotoapparat sotib olib berib, bolaligimdan spotting bilan shug‘ullanishga undagan. “Qani, samolyotlarni suratga ol-chi!” derdi. Endi u doim men bilan birga, garchi oldindan bormayman, deb qo’ygan bo’lsa ham. Onam esa xavotirlanadi. Har safar xodimlar bizni ushlab turgani yoki yaqinlashganini bilsa, “Nega u yerga borasan?” deb taajjublanadi. Ammo suratlarni ko‘rsatganimda, jilmayib, bular chindan ham chiroyli ekanligini tan oladi. Ota-onam hatto boshqa mamlakatlarda suratga olishim uchun meni xizmat safarlariga ham olib ketishadi. Shu tariqa Qozog‘istonda bo’ldim, tez orada Bishkekka uchib ketaman.

Qozog‘istonga birinchi tashrifimni eslayman: meni mahalliy spotterlar kutib olib, turli nuqtalarga olib borishdi, keyin esa mazali taomlar bilan mehmon qilishdi. Bizda ham bu mehmondo‘stlik an’anasi bor: agar biror kishi kelsa, uni kutib olib, palov, somsa bilan ziyofat qilamiz, suratga olish uchun eng yaxshi joylarni ko‘rsatamiz.

Yildan-yilga O‘zbekistonda spotting tobora ommalashib, qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xavfsizlik xizmatlari bizni kamroq bezovta qila boshlashdi, aeroport ham bizni qo‘llab-quvvatlamoqda. Hatto spotterlar uchun maxsus maydoncha yaratish haqida ham gapirildi. Hozircha bu faqat va’dalar, ammo ijobiy o’zgarishlar ko‘zga tashlanyapti. Uch yil avvalgi holat bilan solishtiradigan bo‘lsak, farq juda katta.

Albatta, spottingda qiyinchiliklarsiz bo‘lmaydi. Aeroport xavfsizlik xizmati bilan munosabatlar ba’zan alohida voqeaga aylanadi. Yaqinda biz boshqa spotterlar bilan suratga olayotgan tepalikka PPX xodimlari tashrif buyurishdi. Ular so‘roq qilib, tabiiyki, bizda bo’lmagan ruxsatnomani talab qila boshlashdi. Voqea kutilmagan tarzda yakun topdi: tajribali spotter Muhammadrasul Muhiddinov ular bilan til topishib, xushmuomalalik bilan motivlarimizni tushuntirdi va xodimlarga uning kamerasi orqali o‘zlari bir nechta kadr olishlarini taklif qildi. Shu payt ulardagi bolalarcha qiziqish uyg‘onib ketdi! O‘n daqiqadan so‘ng bizni samolyotlar bilan yolg‘iz qoldirishdi. Agar har bir kishi bizning xobbini hech bo‘lmasa “his qilib ko‘rganida” edi, ehtimol, bunday tushunmovchiliklar bartaraf bo‘lardi.

> *Avtomobilning to‘rt bor chalingan tanish signalini eshitdim – otam meni kirish eshigi oldida kutmoqda. Chiqish vaqti bo‘ldi. Navbatdagi kun, o‘tkazib yuborib bo‘lmaydigan navbatdagi reys. Agar doimo va har qanday vaziyatda ham yonimda turgan otam bo‘lmaganida, spottingdan bunday rang-barang his-tuyg‘ularni olgan bo‘larmidim, bilmayman. Ketdik!*

RUSTAM MANNANOV: SPOTTERLAR — IKKINCHI OILA

РУСТАМ МАННАНОВ: СПОТТЕРЫ – ВТОРАЯ СЕМЬЯ

Перрон аэропорта «Ташкент» дышал ранним утром. Суматоха пассажиров, мерный гул двигателей, экипажи, идущие к самолётам, словно слаженный оркестр, выбивает шагом свой собственный ритм. Но в тот день я не был простым наблюдателем – я впервые оказался внутри, среди этого хаоса, не как пассажир, а как фотограф. Это был мой первый официальный споттинг, когда я получил возможность снимать прямо с территории аэропорта. Ещё за сутки волнение меня накрыло с головой – я не спал до трёх часов ночи, мысленно прокручивая предстоящий день, а в шесть утра был уже на ногах, проверяя технику. Тогда у меня даже не было собственной камеры – пришлось взять в аренду. Весь день без единой минуты покоя, но это стоило каждой секунды.

Это было событие, которое изменило всё. Видеть, как мощные лайнеры выруливают на взлётную полосу, как экипажи готовятся к вылету, как заправляют и проверяют каждый борт – казалось, я попал в другой мир, и даже воздух здесь пропитан авиацией. Я смотрел на окружающее и понимал: это моё место. Тогда мне ещё не хватало опыта, но энтузиазм и желание учиться всё компенсировали.

Споттинг – это эмоции и мгновения, которые невозможно повторить. Один из самых уникальных снимков, которые мне довелось сделать, – это кадр с самолётом, пересекающим Луну. Такой кадр требует идеального расчёта, терпения и в огромной степени удачи. Я знал, что тот момент будет коротким, но поймал его. Правда, когда смотрел на снимок позже, понял, что мог бы сделать лучше, но даже этот кадр стал для меня знаковым.

Не всегда удаётся запечатлеть мгновения, о которых мечтаешь. Piaggio P180, редкий самолёт, которого я ждал два часа. Без радара, без точного времени прилёта, вслепую. И вот он, наконец, появился в небе. Я выскочил из машины, пробрался через камыши и… попал в болото. Вода хлюпает в сандалиях, штаны в грязи, но это было неважно. Главное – кадр.

“Toshkent” aeroporti perronida hayot erta tongdan qizg‘in edi. Yo‘lovchilarning g‘ovur-g‘uvuri, dvigatellarning bir maromdagi guvillashi, samolyotlar tomon borayotgan ekipajlar bamisoli uyg‘unlashgan orkestrdek bir maromda harakat qilardi. Ammo o‘sha kuni men shunchaki kuzatuvchi emas edim – birinchi marta bu tartibsizliklar ichida yo‘lovchi emas, balki fotograf sifatida turar edim. Bu aeroport hududidan bevosita suratga olish imkoniyati berilgan birinchi rasmiy spottingim edi. His-hayajon bir kun oldin boshlandi – bo‘lajak kunni xayolan ko‘z oldimdan o‘tkazib, tungi soat uchgacha uxlay olmadim, sahar soat oltida oyoqqa turib, uskunalarni tekshirdim. O‘shanda hatto shaxsiy fotoapparatim ham yo‘q edi – ijaraga olishga majbur bo‘ldim. Kun bo’yi bir daqiqa ham tinmadim, lekin o’tgan har bir soniya shunga arzigulik edi.

Bu hamma narsani o‘zgartirib yuborgan voqea bo‘lgan edi. Qudratli laynerlarning uchish yo‘lagiga burilishi, ekipajlarning parvozoldi tayyorgarligi, har bir bortga benzin quyilishi va tekshirilishini tomosha qilarkanman, xuddi boshqa olamga tushib qolgandek edim. Hatto bu yerning havosi ham aviatsiyaga to‘yingandek edi. Atrofimga nazar solib, bu mening joyim ekanligini angladim. O‘sha paytda hali tajribam yetishmasdi, ammo g‘ayrat va o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqim hammasini qoplab ketdi.

Spotting bu – takrorlab bo‘lmaydigan his-tuyg‘u va lahzalar. Men olgan eng noyob suratlardan biri – Oyni kesib o‘tayotgan samolyotning tasviri. Bunday kadr mukammal hisob-kitobni, sabr-toqatni va juda katta omadni talab qiladi. O‘sha payt vaqtim juda oz bo‘lishini bilardim, ammo suratga olishga ulgurdim. To‘g‘ri, keyinroq suratni ko‘rib, uni yanada yaxshiroq olishim mumkinligini angladim. Shunday bo‘lsa-da, hatto shu kadr men uchun juda qadrli edi.

Har doim ham orzu qilingan lahzalarni suratga olishning iloji bo‘lmaydi. Piaggio P180 — men ikki soat kutgan noyob samolyot. Radarsiz, aniq uchish vaqtini bilmay, ko‘r-ko‘rona. Nihoyat, u osmonda paydo bo‘ldi. Mashinadan sakrab tushib, qamishzor oralab o‘ta boshladim va… botqoqqa botib qoldim.

Правда, в итоге получился не снимок, а размытое пятно за сеткой забора. Всё, что осталось от той попытки, – воспоминание о том, как два часа ожидания обернулись несколькими секундами разочарования.

За годы споттинга я понял одну вещь: в этом деле ты не один. У нас крепкое сообщество, где мы поддерживаем друг друга. Делимся информацией, помогаем советами, координируем загрузку снимков на международные ресурсы, чтобы как можно больше работ наших ребят появилось в мировых авиационных базах. Даже придумали систему, чтобы обойти ограничение сайтов на количество снимков с одним бортом: загружаем фотографии одновременно, и если раньше принимали одну-две фотографии, то теперь публикуют минимум пять. Мы – команда.

Но не всегда нашей команде бывают рады. На вышках дежурят военные, которые вызывают патруль, как только видят объектив, а в последнее время на заборах аэропорта появились таблички с запретом на съёмку. Иногда приходится отстаивать свои права, доказывать, что мы не нарушаем закон. Мы даже обратились с коллективной петицией в госорганы, надеясь на официальное разрешение для споттеров. Пока ждём ответа. Да, нельзя сказать, что споттинг в Узбекистане не развивается, но это происходит не так быстро, как хотелось бы. Официальные площадки, которые должны были открыть, до сих пор остаются в планах. Но несмотря на трудности, мы продолжаем встречать самолёты, делиться фотографиями, рассказывать миру о небе нашей страны.

Oyoq kiyimimda suv shaloplar, shimim loy, lekin bularning ahamiyati yo‘q edi. Eng muhimi — kadr edi. Afsuski, natijada surat emas, to‘siq orqasidagi xira dog‘ hosil bo‘ldi. O‘sha urinishdan qolgan yagona xotira – ikki soatlik kutishdan keyin bir necha soniyada hafsalam pir bo‘lgan edi.

Spottingdagi yillar davomida bir narsani tushundim: bu ishda siz yolg‘iz emassiz. Biz bir-birimizni qo‘llab-quvvatlaydigan mustahkam hamjamiyatmiz. Bir-birimizga ma’lumot ulashamiz, maslahatlar beramiz, spotterlarimizning ishlari dunyo aviatsiya bazalarida paydo bo‘lishi uchun xalqaro resurslarga suratlar yuklashni muvofiqlashtiramiz. Biz hatto saytlarning bir bort suratlari soniga qo‘yilgan cheklovini chetlab o‘tish tizimini ham o‘ylab topdik: fotosuratlarni bir vaqtning o‘zida yuklaymiz, ilgari resurslar bir-ikkita fotosuratni olgan bo‘lsa, endi kamida beshtasini nashr qiladi. Biz jamoamiz.

Lekin jamoamizni har doim ham xursandchilik bilan kutib olishmaydi. Minoralardagi navbatchi harbiylar obyektivni ko‘rgan zahoti patrulni chaqirishadi, so‘nggi paytlarda esa, aeroport devorlarida suratga olishni taqiqlovchi e’lonlar paydo bo‘ldi. Ba’zida o‘z huquqlarimizni himoya qilishga, qonunni buzmayotganimizni isbotlashga to‘g‘ri keladi. Hatto spotterlar uchun rasmiy ruxsatnoma olish umidida, davlat idoralariga jamoaviy ariza bilan murojaat ham qildik. Hozircha javobini kutyapmiz. To‘g‘ri, O‘zbekistonda spotting rivojlanmayapti deb bo‘lmaydi, ammo bu jarayon biz istagan darajada tez kechmayapti. Ochilishi mo‘ljallangan rasmiy maydonchalar haligacha reja bo’lib qolmoqda.

Несколько часов разговаривать с сотрудником органов – не самое страшное. В начале моего пути семья не понимала, чем я занимаюсь. Мама была категорически против: «Взрослый человек, у тебя работа, зачем тебе это?». Но потом пришло понимание, что это не просто забава. Меня стали приглашать на торжественные мероприятия, авиакомпании просили фотографии, даже предложили несколько бесплатных полётов. Когда я впервые принёс домой гонорар за съёмки, отношение мамы изменилось. Теперь она просто кивает, когда я ухожу на съёмку, зная, что остановить меня уже невозможно. Безмерно благодарен и своей жене. Если бы про нас когда-нибудь вышла наклейка жвачек «Love is...», то в ней бы непременно написали «Любовь это... зарядить батарейки для своего споттера».

Я – не один. Когда прихожу на точку, проверяю технику и всматриваюсь в горизонт, то знаю: скоро сюда прибудут такие же увлечённые, как и я. Люди, которые до сих пор с детским восторгом поднимают взгляд к небу при виде самолёта. Сегодняшний день не будет исключением. Вот-вот должны подъехать Сардор, Эльдар, Даниил и другие члены нашей семьи. Мы – желанные гости на этом празднике, свидетели и хранители истории авиации. Мы объединяем поколения и указываем на новые маршруты в небе. Но кто-то скажет, что мы всего лишь чудаки с фотоаппаратами, и этот кто-то тоже будет прав.

А пока мы ждем прибытия нового Airbus A330 авиакомпании Centrum Air, и в этот момент нас не просто объединяет увлечение. Мы – одна команда, потому что споттинг – это не про фотографию и даже не про самолёты. Это про узы, которые укрепляют традиции и одаривают верой в безоблачное небо.

Barcha qiyinchiliklarga qaramay, biz samolyotlarni kutib olishni, suratlar bilan bo'lishishni, vatanimiz osmoni haqida dunyoga hikoya qilishni davom ettiryapmiz.

Huquq-tartibot organlarining xodimi bilan bir necha soat suhbatlashish – eng dahshatli narsa emas. Faoliyatimni boshlaganimda oilam nima bilan shug'ullanayotganimni tushunmasdi. Onam bunga qat'iyan qarshi edi: "Kap-katta odamsan, ishing bor, buni senga nima keragi bor?" Ammo, keyinchalik bu shunchaki ermak emasligini tushuna boshladi. Meni tantanali tadbirlarga taklif qila boshlashdi, aviakompaniyalar suratlar so'rab murojaat qilishdi, hatto bir nechta bepul parvozlarni taklif qilishdi. Suratlarim uchun birinchi marta gonorar olib kelganimda, onamning munosabati o'zgardi. Endi u meni to'xtatib bo'lmasligini anglab, suratga olish uchun ketayotganimda bosh irg'ab qo'yadi, xolos. Rafiqamdan ham cheksiz minnatdorman. Agar qachondir biz haqimizda "Love is..." saqichlarining yopishtiriladigan qog'ozi chiqarilsa, unda albatta "Sevgi bu... spotteringning batareykalarini quvvatlash" deb yozilgan bo'lardi.

Men yolg'iz emasman. Belgilangan joyga kelib, uskunalarni tekshirib, ufqqa tikilganimda tez orada bu yerga men kabi ishtiyoqmandlar kelishini bilaman. Haligacha samolyot ko'ringanda osmonga bolalarcha hayajon bilan boqadigan odamlar. Bugungi kun ham bundan mustasno bo'lmaydi.

Hozir Sardor, Eldor, Daniil va oilamizning boshqa a'zolari yetib kelishlari kerak. Biz – bu bayramning qadrli mehmonlarimiz, aviatsiya tarixining guvohlari va posbonlarimiz. Biz avlodlarni birlashtirib, osmondagi yangi yo'nalishlarni ko'rsatamiz. Ammo kimdir bizni shunchaki fotoapparat ko'targan g'alati odamlar, deb atashi mumkin va o'sha kimdir ham haq bo'ladi.

Hozircha Centrum Air aviakompaniyasining yangi Airbus A330 samolyotini kutyapmiz, bu paytda bizni shunchaki qiziqishlarimizgina birlashtirmaydi. Biz – bir jamoamiz, chunki spotting – faqat suratga olish emas va hatto samolyotlar haqida ham emas. Bu an'analarni mustahkamlaydigan va musaffo osmonga bo'lgan ishonchni uyg'otadigan rishtalar haqida.

РЕКЛАМА

SHAMSAN
HOTEL

Shamsan Hotel – гармония Востока и Запада

Идеально для бизнес- и leisure-путешественников!

Shamsan Hotel – стильные номера, высокие стандарты, уникальная атмосфера

60 просторных номеров, современный конференц-зал

2 ресторана, включая ресторан на крыше с видом на город

СПА-центр с хаммамом, бассейном и фитнес-залом

Колоссальный опыт команды в проведении мероприятий

+998 99 900 90 90 www.shamsan.uz sales@shamsan.uz

РЕКЛАМА

Вы — в центре путешествий!

CENTRUMAIR

Маршрутная сеть

СНГ

Ташкент
Ургенч
Фергана
Москва
Санкт-Петербург
Новосибирск
Казань
Алматы
Баку

МЕЖДУНАРОДНЫЕ

Бангкок
Гуанчжоу
Сеул
Доха
Дубай
Салала
Джидда
Медина
Шарм эль-Шейх
Тель-Авив
Тбилиси
Батуми

Прямые рейсы из Узбекистана по 20 популярным направлениям

centrum-air.com +998 55 518 88 88

H WORLD INTERNATIONAL

H World International объединяет проверенные бренды с международным гостиничным опытом. Компания представлена в Европе, на Ближнем Востоке, в Индии, Африке и Азиатско-Тихоокеанском регионе.

Девять уникальных брендов работают под эгидой H Rewards – удобной платформы бронирования и эксклюзивной программы лояльности с 260 миллионами участников по всему миру.

H World International является частью H World – одной из крупнейших и самых динамично развивающихся гостиничных групп.

Больше информации на hrewards.com.

Steigenberger Hotel & Residence Doha – сочетание немецкой точности и катарского гостеприимства

Удобно расположенный в деловом центре Дохи, всего в 7 км от международного аэропорта Хамад, отель предлагает 208 элегантных номеров и люксов, а также 278 полностью оборудованных резиденций с просторными интерьерами и современными удобствами. Расслабьтесь в The Opal – роскошном городском спа-центре площадью 1 700 кв. м или отдохните у бассейна на крыше.

Насладитесь интернациональной кухней в Olea Terrace и четырех других ресторанах, включая Social Loft, идеально подходящий для длительного проживания. Организуйте безупречные мероприятия в элегантном бальном зале и четырёх конференц-залах. Окунитесь в атмосферу комфорта и утончённого стиля в Steigenberger Hotel & Residence Doha.

IntercityHotel Salalah – исследуйте красоту Омана

Первый из четырех IntercityHotels в Омане, IntercityHotel Salalah расположен в деловом районе, рядом с государственными учреждениями и торговыми центрами. Гостям доступны 69 комфортабельных номеров и зоны отдыха: бассейн на крыше, спа, тренажерный зал и два ресторана.

Ощутите подлинное оманское гостеприимство, откройте для себя богатую культуру и насладитесь завораживающими пейзажами.

РЕКЛАМА

Steigenberger Alcazar – роскошный отдых в Шарм-эль-Шейхе

Расположенный в живописном заливе Набк, всего в нескольких минутах от международного аэропорта Шарм-эль-Шейха, Steigenberger Alcazar предлагает эксклюзивный пятизвездочный отдых.

Курорт занимает территорию 30 000 кв. м с частным пляжем, элегантными номерами и люксами, а также первоклассным Mividaspa. Гости могут насладиться изысканной кухней в пяти ресторанах, расслабиться в трёх подогреваемых бассейнах или погрузиться в удивительный подводный мир Красного моря.

Идеальное место как для романтического путешествия, так и для семейного отдыха. Вас ждет безупречный сервис и незабываемые впечатления.

Steigenberger Hotel Saint Catherine – Египет

Оазис роскоши в самом сердце Синая, где современный стиль гармонично сочетается с богатым историческим наследием региона. Откройте для себя уникальное сочетание истории, природы и первоклассного гостеприимства.

Открытие уже в этом году!



Steigenberger Marhaba Thalasso – ваш идеальный отдых на побережье Туниса

Расположенный на живописном 10-километровом пляже Хаммамета, Steigenberger Marhaba Thalasso – идеальное место для отдыха. Гостей ждут 153 номера, 17 люксов и 201 бунгало.

Побалуйте себя гастрономическим разнообразием в пяти ресторанах и барах, расслабьтесь у трех бассейнов или насладитесь процедурами Marhaba Thalasso & Spa, включая талассотерапию, массаж и хаммам.

Для любителей активного отдыха – водные виды спорта всего в 150 метрах от отеля и два чемпионских гольф-поля в 3 км.

Hayot Bank

Вклад “Yaxshi niyat”

Процентная ставка	Минимальная сумма	Срок вклада
24% годовых	**500 000 сум**	**24 месяца**

- Периодичность выплаты процентов каждые 15 дней
- Возможность пополнения вклада на 100 000 сумов
- Частичное снятие средств — предусмотрено

Оформить вклад "Yaxshi niyat" можно в мобильном приложении банка или в любом отделении Hayot Bank

1320
hayotbank.uz
App Store Google Play

При досрочном закрытии вклада, начисленные проценты пересчитываются в следующем порядке: до 1 месяца - 1%, от 2 по 6 месяцев - 19%, от 7 по 12 месяцев - 20%, от 13 по 18 месяцев - 22%, более 18 месяцев – 24%. Все вклады в АО "HAYOT BANK" гарантируются Законом Республики Узбекистан «О гарантиях защиты вкладов в банках». Подробная информация на сайте www.hayotbank.uz. РУз ЦБ лицензия №91 от 16 марта 2023 года.